ISSN 2181-9335

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI



2022
MAXSUS SON

JAMOAT XAVFSIZLIGI
ilmiy-amaliy jurnali

30 YIL | O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 30 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021 yil 30 sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGANLIGINING 30 YILLIGIGA

SAIDOV A.X.
Yangi O‘zbekiston sharoitida qiynoqlarga qarshi kurashish: holati, muammolari va tahlili..... **3**

ISLAMOV B.D.
Konstitutsiya va sud tizimi: huquqiy asos, samarador amaliyot, istiqbol rejalari..... **12**

YO‘LDOSHEV N.T.
Konstitutsiyaviy islohot: maqsad inson qadri va huquqlarini ta’minlash..... **18**

DJURAYEV R.M.
Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining shakllanishi.... **22**

TURSUNOV B.R.
Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlari maqomi mustahkamlanmoqda..... **25**

MAMAYUSUPOV S.D.
Konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida harbiylar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish masalalari.... **28**

RUSTAMBAYEV M.X.
Mustaqil odil sudlovga murojaat qilish – inson manfaatlarini ta’minlovchi asosiy konstitutsiyaviy kafolat..... **32**

XATAMOB P.A.
Конституция Республики Узбекистан – правовая основа деятельности органов внутренних дел по защите прав человека, обеспечению общественного порядка и безопасности.... **36**

MIRAKULOV M.M.
Konstitutsiyaning mohiyati va ijrosi..... **41**

CHORIYEV T.R.
Jamoat tartibini saqlashga oid qonunchilikning takomillashuvi **45**

KARIMOV T.P.
Qonunchilikdagi islohotlar – fuqarolik huquqining kafolati **48**

SHIRINOV D.D.
Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlari masalasi **53**

TAXIROV F.
Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kafolatlashning konstitutsiyaviy asoslari..... **58**

RUZIYEV R.D.
Mulk va uni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari mazmunining fuqaroviy-huquqiy talqini... **64**

MUXAMMADIYEV A.A.
Konstitutsiyada xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi **68**

МИРАЗОВ Д.М.
Конституционно-правовое обеспечение прав человека на неприкосновенность..... **71**

MAXMUDOV R.M., QORABOYEV A.A.
O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fundamental qonun sifatida **74**

СЕЛИМАНОВА С.М.
Конституционная реформа: опыт и перспективы..... **79**

USMANOVA M.A., AXMEDOVA M.T.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - mehnat qilish huquqining kafolatidir..... **81**

ZULFIQOROV Sh.X., XOMIDOV E.O.
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining konstitutsiyaviy maqomi va uni takomil-lashtirishning ayrim masalalari..... **86**

MAXSADOV M.I., RASULOVA N.S., YUNUSOV U.A., JUMAEV A.J.
Koreya Respublikasi Milliy politsiya agentligining ta’lim muassasalari faoliyatining ijobiy jihatlari va ularni milliy amaliyotga qo‘llash masalalari..... **92**

NURMUHAMMEDOVA G.B., NIZAMETDINXODJAYEV U.R.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarining tartibga solinishi **101**

XOMIDOV E.O.
Ta’lim olishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va uni takomillashtirish masalalari..... **106**

KUCHKAROV X.Z.
Sud qarorlarini qayta ko‘rishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari **110**

MUSLIMOV I.
Jazo tayinlashda hisobga olinadigan sodir etilgan jinoyatning xususiyatini tavsiflovchi jazoni yengillashtiruvchi holatlar tahlili..... **117**

MUHAMMADIYEVA M.Y.
Konstitutsiyaviy islohotlar hozirgi va kelajak barqaror rivojlanishning zarur yuridik zaminidir..... **126**

ТАДЖИЕВА М.М.
Нормы-принципы Конституции Республики Узбекистан..... **132**

XO‘JAMBERDIYEV F.K.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida Konstitutsiya normalarining o‘rni va ahamiyati **137**

ATANIYAZOV J.K.
Konstitutsiya – insonparvarlik aktlari asosi yoxud afv etish institutini qo‘llash samaradorli-gini oshirishning amaliy jihatlari **143**

RAVSHANOV U.M.
Xalqaro gumanitar huquq normalarini mamlakat qonunchiligiga implementasiya qilishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘rni va ahamiyati..... **154**

Usmanova Muborak Akmaldjanovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor;
Axmedova Muqaddasxon Tursunovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, dotsent

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI - MEHNAT QILISH HUQUQINING KAFOLATIDIR

Mehnat qilish huquqi – insonning eng muhim tabiiy huquqlaridan sanaladi. Mehnat qilish huquqining amalda ta’minlanganligi shaxs mavqeyining mustahkam bo‘lishi, uning nafaqat iqtisodiy jihatdan mustaqilligi, balki jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyining belgilanishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mehnat qilish huquqi va imkoniyati har bir insonga taqdim etilishi, uning uchun davlat va jamiyat tomonidan tegishli tashkiliy-huquqiy iqtisodiy chora-tadbirlar ko‘rilishi, unumli va sifatli mehnat qilish uchun sharoit yaratilishi lozim. Bunda davlat o‘zining qonunlari orqali fuqarolarining mehnat qilish huquqlarini e’tirof qilishi, ularni ro‘yobga chiqarilishi va samarali himoya etilishi uchun tegishli huquqiy kafolatlarni yaratib berishi lozim.

O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi erishgan barcha ijobiy yutuqlarni, gumanitar qadriyatlarni, xalqaro huquqiy mezonlar va talablarni e’tirof etgani holda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida xalqaro andozalarga mos keladigan faoliyat yuritishga intilib kelmoqda. Bu faoliyat, eng avvalo, inson manfaatlariga yangicha yondashishda uning huquqiy negizini yaratish, insoniyat taraqqiyotida erishilgan ijobiy qoidalarni o‘z milliy tizimimizga joriy etilishida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik tizimi barpo etildi, fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilishning xalqaro demokratik standartlarga mos keluvchi huquqiy mexanizmlari yaratildi, jamiyatimizda erkinlashtirish, huquqlar kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Barcha – iqtisodiy, demokratik, siyosiy, huquqiy islohotlarning asl maqsadi, insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat hisoblanadi.

Konstitutsiya va qonun normalari so‘zsiz ishlashi uchun ishonchli huquqiy kafolat yaratilmoqda. Inson huquqlari sohasida ham holat tubdan o‘zgardi. Majburiy mehnat va bolalar mehnati to‘liq bartaraf etildi. Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiya qabul qilindi. O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo etib saylangani olib borayotgan siyosatimizning xalqaro miqyosdagi yuksak e’tirofidir.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlari demokratik, insonparvarlik va adolat tamoyillariga asosan huquqiy tartibga solingan hamda bozor munosabatlari sharoitidagi zamon talablariga javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida nazarda tutilgan “har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega”[1] ekanligi haqidagi qoidani amalga oshirishga qaratilgan barcha munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar o‘rnatilgan.

Konstitutsiyamizdagi ushbu huquq “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ning 23-moddasida belgilangan: “Har bir inson hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega. Har bir ishlovchi kishi o‘zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta’minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur bo‘lganda ijtimoiy ta’minotning boshqa vositalari bilan to‘ldiriluvchi daromad olish huquqiga ega” degan prinsipga to‘la mos keladi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan barcha demokratik, siyosiy,ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarimizdan ko‘zlangan asosiy maqsad eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...Ayni paytda biz inson huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta’minlashda amalga oshirgan ishlarimizdan ko‘ra, oldimizda turgan vazifalar ko‘p ekanini ham yaxshi tushunamiz. Ma’lumki, bu oliy qadriyatni tom ma’noda qaror toptirish – biron-bir manzilga yetib borib to‘xtash, degani emas. Inson huquqlarini himoya qilish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini barchamiz chuqur anglaymiz. Jahon tarixi va demokratik davlatlar tajribasi ham shundan dalolat beradi [2].

*Islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta’minlash maqsadida Yurtboshimiz tomonidan taqdim etilgan “Taraqqiyot strategiyasi”doirasida amalga oshiriladigan eng ustuvor vazifalarning b*irinchi va ikkinchi yo‘nalishlari ham aynan inson va fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilishga, qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasidagi ishlarimizni faol davom ettirishga hamda adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta’minlashning eng asosiy va zarur sharti ekanini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da[3] ilgari surilgan maqsadlar orasida aholi bandligi darajasini oshirish, fuqarolarni ish va tirikchilik manbai bilan ta’minlash, ularga o‘z insoniy salohiyatlarini omilkorlik bilan ishga solganlari holda farovon va baxtli hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berish ustuvor o‘rinda turadi.

O‘zbekistonda aholi bandligi darajasini oshirish, fuqarolarni ish va tirikchilik manbai bilan ta’minlash, ularga o‘z insoniy salohiyatlarini omilkorlik bilan ishga solganlari holda farovon va baxtli hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berish ustuvor vazifaga aylandi. Xususan, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi (2021)[4], “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (2016))[5], “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi (2019) [6], “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi (2019) [7], “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi kabi qonunlar qabul qilindi.

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning mehnat qilish huquqini amalda ta’minlashga alohida e’tibor berilayotganligiga qaramasdan joylarda mehnat huquqlarining buzilish holatlari mavjud. Masalan, joriy yilning 10 oyi davomida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasiga 20814 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, murojaatlar ish beruvchilar tomonidan ish haqi va boshqa to‘lovlarni vaqtida to‘lamaslik (6329), ish haqidan majburiy ushlab qolish (732), ishga qabul qilishda qonun buzilish holatlari (765) ishga qabul qilishni rad etilganligi (723), noqonuniy ishdan bo‘shatilish (2244), norasmiy ishlatish (1644), mehnat daftarchalari yuritilishidagi qonun buzilishi (378), ish vaqtiga rioya etilmaganlik (279), baxtsiz hodisalar (144), tovon pulini to‘lamaslik (137), mehnat sharoitlari yaratilmaganligi (61), mehnatni muhofaza qilish (238) boshqa masalalarga oid 6467 tani tashkil qiladi.

Murojaatlarni tekshirish natijada 10 441 ta qonun buzilish holatlari aniqlangan. Shundan, 12 152 tasi qanoatlantirilgan, 7832 tasiga tushuntirish berilgan.

Yuqoridagi tahlillarga ko‘ra, bozor talablari va tamoyillarining ijtimoiy hayotimizga tobora chuqurroq singib borayotgani tufayli taraqqiyotimiz sur’atlarini kerakli darajada bo‘lishini ta’minlash uchun o‘zgartirish va yangilash jarayonlarini uzluksiz davom ettirish, oldimizda paydo bo‘layotgan muammo va vazifalarni o‘z vaqtida hal etishimiz, Yangi O‘zbekistonga hamda uning taraqqiyotiga javob beradigan yangi qoidalarni kiritish kerakligi, konstitutsiyaviy islohotlarni obyektiv zarurat sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda.

Ma’lumki, mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarini e’tiborga olgan holda qabul qilinadi. Mazkur qonun hujjatlari davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lmish fuqarolarni iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularga munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

2017-2022 yillarda O‘zbekiston

Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan maqsadlar orasida aholi bandligi darajasini oshirish, fuqarolarni ish va tirikchilik manbai bilan ta’minlash, ularga o‘z insoniy salohiyatlarini omilkorlik bilan ishga solganlari holda farovon va baxtli hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berish ustuvor o‘rinda turadi[2].

Mehnat qonunchiligini isloh etilishi mehnat bozorini samarali faoliyat ko‘rsatishi, ishlab chiqarish jarayonida shaxs-davlat-jamiyat manfaatlari uyg‘unligini ta’minlash, fuqarolarning farovon turmush kechirishlari, ishsizlikdan himoyalanishi, ularning ijtimoiy mehnat huquqlarini himoyalashning aniq mexanizmini belgilashi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Bugungi kunda amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi [8] uning asosiy tarmoq qonuni sifatidagi ahamiyati - mehnat va mehnatga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishda yagona yondoshuvni ta’minlab berganidadir.

Hammamizga ayonki, mamlakatimizda demokratlashtirish jarayonlari chuqurlashayotgan sharoitda milliy qonunchilikni takomillashtirish orqali jamiyatimizning barcha jabhalarini, shu jumladan, mehnat sohasini bosqichma-bosqich o‘zgartirilishiga erishilmoqda. Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgani va buning natijasida jamiyat iqtisodiy hayotida yangicha voqeliklar, yangicha qarashlar yuzaga kelayotgani, mehnatga oid ijtimoiy munosabatlar mazmunan boyib, shaklan xilma-xillashib borayotgani mehnat sohasida o‘zaro munosabatlarni tartibga solishda muayyan muammolar va bo‘shliqlarni vujudga keltirdi. Alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, bozor munosabatlarining uzluksiz chuqurlashib va takomillashib borayotganligi, nodavlat, xususiy sektor ishlab chiqarishning salmoqli qismini tashkil etishi, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmida ham xususiy sektor yetakchi ekanligi, iqtisodiy faol aholining juda katta qismi aynan shu sohada band ekanligi, davlatimiz tomonidan kasanachilikni qo‘llab-quvvatla-nayotganligi ish kuchining turli xususiyatlari namoyon bo‘lishi mehnatga va mehnat huquqiga yangicha yondoshuvlarni taqozo qilmoqda. Ayni paytda mehnat huquqi fanining amaliyotdan ortda qolayotganligi, ko‘pchilik qonunlar va qonun hujjatlari ilmiy-nazariy tahlillarsiz, ijtimoiy jarayonlarning mehnat munosabatlariga ta’siri yetarli o‘rganilmagani, amaliy ehtiyojlarga tayanilgani holda qabul qilinayotganligi kuzatilmoqda. Bozor munosabatlarining salbiy oqibatlari va ta’siridan xodimlarni himoyalashga xizmat qiluvchi vositalar ishlab chiqish va joriy etilishi haqida so‘z yuritilar ekan, bunda mavjud qonunlarni takomillashtirish, ulardagi kamchiliklarni, yetarli darajada samarali ishlamayotgan normalarni, tez o‘zgarib borayotgan zamon talablariga mos kelmasdan qolgan qoidalarni bartaraf qilish, ular o‘rniga islohotlarimiz mazmuniga, odamlar manfaatiga to‘la javob beradigan huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni belgilash, joriy qilish to‘g‘risida ham o‘ylash lozim.

Inson manfaatlari oliy qadriyat va uning haq-huquqlari, erkinliklari ustuvor mavqega ega ekanligi tamoyilidan kelib chiqqan holda mehnat qonunchiligida qaror topgan ayrim muammolar hamda ularning ilmiy yechimlari haqida fikr-mulohazalar yuritishni maqsadga muvofiq deb topdik: Bunda,

- bozor munosabatlari chuqur ildiz otib, tez rivojlanib borayotgani holda ayrim mehnat munosabatlarining qonun doirasidan tashqarida qolayotgani yoki yetarli qamrab olinmagani, bunday munosabatlarga qaratilgan yuridik mexanizmlarni mavjud emasligi yoki juda jo‘n ko‘rinishda ekanligi;

- iqtisodiy va yollanma mehnatdan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlar bozor tamoyillari asosida yangi qirralar kasb etayotgani, uzluksiz rivojlanib borayotgani va yangi-yangi muammo hamda vazifalar oldimizda paydo bo‘layotgani;

-yollanma mehnatni tartibga solish, bunda mehnatkashlar huquq va manfaatlarini, ayni paytda tadbirkorlar manfaatlarini ifodalovchi va tartibga soluvchi xalqaro yutuqlar, ilg‘or mamlakatlar tajribasidan foydalanish, mehnatga oid xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish va ularda mustahkamlangan samarali mexanizmlarni joriy qilish, ulardan foydalanish sur’atini oshirish;

-mehnat munosabatlarini tartibga solinishida tarmoq va boshqa ko‘rsatkichlar

bo‘yicha tabaqalangan holda yondoshuvni yanada kuchaytirish taqozo etilayotgani va busiz ijtimoiy adolat tamoyiliga putur yetishi mumkinligi, shu sababli bu sohadagi mavjud qonunchilik tizimiga tanqidiy yondoshgan holda uni kuchaytirish choralarini ko‘rish

O‘zbekistonda shakllangan mehnat bozorini rivojlanishi, ish beruvchilar va xodimlar manfaatlarini davlat organlari ko‘magida uyg‘unlashuviga, ijtimoiy himoyaga muhtoj mehnatkashlarning huquqlarini himoyalashga va shu orqali noformal bozordan mehnat munosabatlarini chiqarishga xizmat qiladigan huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish kerakligi kabi holatlar diqqatni tortdi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalar o‘z ahamiyatiga ko‘ra dolzarb bo‘lib, mehnat munosabati ishtirokchilari o‘rtasida ijtimoiy adolatni qaror topishi,“inson - jamiyat - davlat” tamoyilining amal qilishi, oxir-oqibatda jamiyatda qonuniylik hamda barqarorlik yanada mustahkamlanishiga yordam beradi.

O‘zbekistonda raqamlashtirish jarayonlarining mehnat sohasini qamrab olishi munosabati bilan yollanma mehnat amaliyotida yangicha yondoshuv va mexanizmlar, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘lllab-quvvatlash uchun sharoit yaratish, shuningdek, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilishning zamonaviy muammolari mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni davr talabiga moslashtirish vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda.

O‘zbekistonning bugungi rivojlanish bosqichi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini takomillashtirishni, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish muhim vazifa ekanligini qayd etgan holda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 37-moddasiga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

-mehnat qilish va erkin kasb tanlash, adolatli va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlarida ishlash hamda ishsizlikdan himoyalanish;

-shaxs va uning oilasi yashashi uchun eng kam ish haqining yetarliligini ta’minlash;

-majburiy mehnat va bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash;

-homiladorlik yoki bolalari borligi sababli ayollarning mehnat huquqlarini cheklashni taqiqlash;

-aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ish bilan ta’minlash, qashshoqlik va ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha davlat kafolatlari;

-ayollarni homiladorlik yoki bolasi borligi sababli ishga qabul qilmaslik, ishdan bo‘shatish, va ish haqini kamaytirishni taqiqlash;

-har bir ishlayotgan ayolga haq to‘lanadigan homiladorlik va tug‘ish ta’tili hamda yangi tug‘ilgan bolani yoki farzandlikka olingan bolani parvarishlash bilan bog‘liq ta’tillarni olish huquqini kafolatlovchi normalar o‘z aksini topmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida mehnat qonunchiligi taraqqiyoti mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga hamda huquqiy davlat barpo qilish sohasida qo‘lga kiritgan yutuqlarimizga mos bo‘lishi, fuqarolarimizning mehnat qilish huquqlarining ro‘yobga chiqarilishiga har tomonlama ko‘maklashish bilan birga bu sohada huquq buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik, odamlarimizning iqtisodiy faolliklarini yanada oshirishga, "eng muhimi, inson manfaati har narsadan ulug‘, degan ezgu g‘oyani izchil davom ettirish”ga xizmat qilmog‘i lozim[9].

Mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bunday dolzarb masalalar va ularning yechimlari mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash nihoyatda muhim ahamiyatga egadir.

Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashib harakat qilishgina bizni nurli manzillarga yetkazadi. Bu intilishlarning ulkan amaliy ishlarga aylanib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda har birimizning faol ishtirokimiz, chuqur mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashash bugun davr talabiga aylandi” [9].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси //lex.uz.(murojaatsanasi 09.08.2022 yil)
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 6 ноябрдаги “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳотлар йўлини қатъий давом эттирамиз” номли маърузаси. 2021 йил 7 ноябрь. Халқ сўзи газетаси.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. // https://lex.uz/docs/5841063
4. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,20.10.2020. 03/20/642/1396-сон
5. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси,21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)
6. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 03.09.2019.03/19/562/3681-сон
7. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.09.2019.03/19/561/3680-сон
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармон.
9. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови”. Халқ сўзи. 2016 йил 8 декабрь.
10. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. “O‘zbekiston” нашриёти, 2021.25- бет.

Usmanova M.A., Axmedova M.T. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - mehnat qilish huquqining kafolatidir

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mehnat qilish huquqining ifodalanishi, mamlakatimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlar, mehnat qonunchiligini rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan va ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat qilish huquqi, konstitutsiya, huquqiy islohotlar, xodim, mehnat qonunchiligi, yollanma mehnat, xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solish;

Усманова М.А., Ахмедова М.Т. Конституция Республики Узбекистан - гарантия права на труд

В статье анализируется выражение права на труд в Конституции Республики Узбекистан, проводимые в нашей стране правовые реформы, вопросы, связанные с развитием трудового законодательства, а также выдвигает предложения по совершенствованию законодательства в этой сфере.

Ключевые слова: право на труд, конституция, правовые реформы, работник, трудовое законодательство, наемный труд, правовое регулирование труда работников;

Usmanova M.A., Akhmedova M.T. Constitution of the Republic of Uzbekistan guarantee of the right to work

The article analyzes the expression of the right to work in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, legal reforms carried out in our country, issues related to the development of labor legislation and also puts forward proposals for improving legislation in this area.

Key words: right to work, constitution, legal reforms, employee, labor legislation, hired labor, legal regulation of the work of employees.

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor;
Xomidov Eldor Olimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 12 iyuldagi “Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak” nomli ma’ruzasida ta’kidlab o‘tganidek, “Demokratiya qayerdan boshlanadi – parlamentdan boshlanadi. “Parlament – demokratiya maktabi”, deymiz. Shunday ekan, milliy parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi kerak” [1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasida, O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin, deyiladi. Mazkur normaning o‘ziyoq, Oliy Majlisning oliy vakillik hokimiyatini amalga oshirishini, uning davlat hokimiyati organlari tizimida alohida o‘rin tutishini nazarda tutadi. Konstitutsiyaning “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi” deb nomlangan beshinchi bo‘limi esa, “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi” haqidagi XVIII bob bilan boshlanadi. 76-88-moddalardan iborat mazkur bob O‘zbekiston Respublikasi parlamentining konstitutsiyaviy maqomini belgilab beradi.

Oliy Majlis faoliyati qonun qabul qilish bilan chegaralanmay, hokimiyatning oliy vakillik organi sifatida davlat ahamiyatiga molik muhim muammolarni yechadi, ichki va tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. Tabiiyki, ijtimoiy vazifalarni yechishda parlament rolining tobora ortib borishi, uning tuzilishini takomillashtirish, parlamentar demokratiyani rivojlantirish, nazorat qilish funksiyasini kuchaytirish, keng jamoatchilikni qonunchilik jarayoniga jalb qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xorijiy huquqshunos olimlarning ikki palatali parlament tizimining ijobiy xususiyati sifatidagi fikrlarini o‘rganadigan bo‘lsak biz uchun ahamiyatli hisobla. XVIII asrda faoliyat olib borgan mashhur olim Sh. Monteskye Angliyaning ikki palatali parlament tizimi haqida so‘z yuritib, “Bu yerda bir-birining qarorlarini bekor qilish vakolati orqali o‘zaro tiyib turish mexanizmini vujudga keltiruvchi qonunchilik majlisi mavjud”ligiga e’tibor qaratgan[2]. Amerikalik olim J. Brays esa ikki palatali tizimda quyi palataning shoshmashosharligi, qiziqqonligi va loqaydsizligining oldini olish vositasini ko‘rgan[3].

Huquqshunos olimlarning ikki palatali parlament to‘g‘risidagi fikrlari albatta subyektiv xarakterga ega bo‘lib, bu fikrlar ikki palatali parlamentning mazmun-mohiyatini ochib bera olmaydi.

Fikrimizcha, ikki palatali parlament tizimining mavjudligi mamlakatimizdagi ijtimoiy hayotning huquqiy asoslarini yaratish, jamiyat va davlat ishlarini oqilona tashkil etilishi yuzasidan o‘zaro hamkorlikda, oldiga qo‘yilgan vazifalar doirasidan kelib chiqib fuqarolarimizni huquq va manfaatlarini ta’minlashdagi birgalikdagi sa'y-harakatlarining ifodasidir. Ikki palatali parlamentning mazmuni-mohiyatini biz quyida ham to‘laroq tavsiflab o‘tamiz. Jumladan,

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 7-maqsadida ham [4] Oliy Majlis palatalarining davlat hokimiyati tizimidagi o‘rnini mustahkamlash, ularning ichki va tashqi siyosatga oid muhim vazifalarni hal etishdagi

vakolatlarini kengaytirish, Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish, qabul qilingan qonunlarning amaliyotda so‘zsiz va to‘liq ijro etilishini ta’minlashda parlamentning ishtirokini kengaytirish, Qonun ijodkorligi va parlament nazoratini amalga oshirishning amaldagi mexanizmlarini samaradorlik nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Ikki palatali Oliy Majlisning bir palatali Oliy Majlisdan farqli xususiyatlaridan biri shundaki, bunda parlamentning kompetensiyasiga kiruvchi masalalar har ikki palata tomonidan o‘z vakolatlari doirasida yoki birgalikda amalga oshiriladi. Parlament palatalarining birgalikdagi tasarrufiga kiruvchi masalalarni, shartli ravishda, to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1) qonunchilikka oid; 2) vakillikka oid; 3) nazoratga oid; 4) ma’muriy-hududiy tuzilishga oid [5]. Parlament tomonidan hal qilinadigan masalalar, shuningdek predmeti va hal qilish tartibiga ko‘ra ham bir necha turlarga ajratiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlarini hal qilish predmetiga ko‘ra, quyidagicha tasniflash mumkin: 1) huquq ijodkorligi sohasida, 2) jamiyat va davlat hayotining muhim masalalari yuzasidan, 3) ma’muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish sohasida, 4) moliya va kredit sohasida, 5) davlat hokimiyati mexanizmini tashkil etish sohasida.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan, 2020 yil 20 yanvar kuni yangi shakllangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig‘ilishida, Quyi palataning parlament nazoratini amalga oshirish borasidagi faoliyatida ham o‘z yechimini kutayotgan qator masalalarga to‘xtalib o‘tgan edilar. Xususan:

birinchidan, yangi deputatlar ta’sirchan parlament nazoratini olib borish orqali xalq ishonchini oqlashi zarur;

ikkinchidan, palataning qo‘mitalari va boshqa tarkibiy tuzilmalari nazorat-tahlil ishlarini kuchaytirishi lozim;

uchinchidan, parlament va deputat so‘rovining ta’sirchanligini oshirish choralarini ko‘rish kerak;

to‘rtinchidan, saylovchi va deputatning o‘zaro munosabatlariga axborot texnologiyalarini keng joriy etadigan vaqt keldi. Jumladan, parlament va deputat so‘rovlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish zarur;

beshinchidan, parlament faoliyatiga aholini keng jalb etish maqsadida “Mening fikrim” veb-portali ishini takomillashtirish darkor.

Darhaqiqat, hozirgi kunda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida olib borilayotgan islohotlarda parlament faoliyatini yanada kengaytirish, ijro etuvchi hokimiyat faoliyat ustidan parlament nazorati o‘rnatishni kuchay-tirish, parlament va deputat so‘rovi institutlaridan samarali foydalanishi, parlament faoliyatidan aholining xabardorligi darajasini yanada oshirish masalalari parlament oldida turgan juda ham muhim vazifalar hisoblanadi.

Parlament nazorati shaklidan unumli foydalanish maqsadida, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasi, “Parlament so‘rovi, Qonunchilik palatasi deputati so‘rovi”, deb yangicha nomlanib, Qonunchilik palatasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga qonunlarning, turli sohalardagi davlat dasturlarining ijrosi masalalari hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan parlament so‘rovi yuborishga haqliligi, Qonunchilik palatasi deputati esa, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga, qoida tariqasida, tegishli saylov okrugi saylovchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan asoslantirilgan tu-shuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan so‘rov yuborishga haqliligi belgilab qo‘yildi.

Agar oldingi tahrirga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, faqat parlament so‘rovi tushunchasi mavjud edi va uni amalga

oshirish mexanizmi ham murakkab shaklda edi. Endilikda parlament so‘rovi, Qonunchilik palatasi deputati so‘rovi alohida - alohida shaklda mustahkamlab qo‘yildi. Bu esa so‘rov institutidan samarali foydalanishga huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Misol uchun, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yili davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga 14 ta, 2021 yilda 16 ta[6] parlament so‘rovi yuborilgan. Holbuki, 2016 yilda bor-yo‘g‘i bitta parlament so‘rovi jo‘natilgan.

Oliy Majlis Senati tomonidan esa jamiyat hayotining muhim sohalaridagi dolzarb masalalar yuzasidan hukumatga, davlat boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga 2015 - 2019 yillarda 26 ta [7], 2020 - 2021 yillarda 26 ta parlament so‘rovi yuborilgan[8].

Parlament islohotlari davrida Hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, yangi mexanizmlarini o‘rnatish orqali tiyib turishi, o‘zaro muvozanatni ta’minlash kabi vazifalar muhim maqsad sifatida belgilanadi. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2018 yildan parlament faoliyati tarixida ilk bor “hukumat soati” – Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a’zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish instituti joriy etildi. 2018 – 2019 yillarda 14 marotaba “hukumat soati” o‘tkazilib, ularda vazirlik va davlat qo‘mitalari rahbarlari xalq vakillarining dolzarb masalalarga doir savollariga atroflicha javob bergan. **2020 yilda 9 marta, 2021 yilda 7 marta** hukumat soatlari o‘tkazilgan[9]. Bu albatta parlamentning qonunlar qabul qilish, uning ijrosini nazorat qilish sohasidagi vakolatlarini yanada kengaytirish masala-sining amalda ijrosi bo‘layotganligining bir tasdig‘idir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligi munosabati bilan so‘zlagan ma’ruzalarida, “... parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish lozimligi”ga alohida e’tiborini qaratgan edilar[10].

Darhaqiqat, parlament hozirgi demokratlashuv jarayonlarida qonunlar, qarorlar qabul qilish bilan birga uni joylardagi ijrosi masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Darhaqiqat, qonunlar qabul qilish ishning yarmi, ijrosi masalasi esa asosiy o‘ringa chiqmog‘i lozim.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan Prezidentimizning ko‘plab ma’ruzalarida bildirilayotgan taklif va mulohazalardan kelib chiqib, Oliy Majlis palatalarining qonunlarning ijrosini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilayotganligi nuqtai nazaridan, parlament nazorati sohasidagi qonunchilik manbalariga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha quyidagi taklifni kiritmoqchimiz, ya’ni: “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, **qonun chiqaruvchi hokimiyatni va qonunlarning ijro etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi**”. Haqiqatda ham parlament qonunlar qabul qildimi, mazkur qonun-larning ijrosini nazorat qilish funksiyasi ham uning asosiy vazifasi bo‘lishi lozim.

Ta’kidlash lozimki, Davlat rahbarining ba’zi bir vakolatlarini Oliy Majlisga o‘tkazilishi O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligini, bu ishlar esa ortga qaytmas ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Darhaqiqat, kim o‘z vakolatini boshqaga bergisi keladi, so‘zsiz hech kim. Ushbu islohotlar Oliy Majlis vakolatlarini kengaytiradi, bir vaqtning o‘zida esa xalq vakillarining mas’uliyatini yanada oshiradi. Davlatdagi muhim lavozimlarga tayinlashda ko‘pchilikning fikrini inobatga olish imkoniyati kengayadi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasining 78- moddasiga kiritilgan yangi qoidalarga ko‘ra, ya’ni Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlarini kengaytirish orqali ijro hokimiyati organlari ustidan parlament nazoratini amalga oshirish faoliyatini kengaytirish, inson huquqlari institutlarining rolini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishni yuqori bosqichga olib chiqish kabi masalalar shular jumlasidandir. Endi bevosita mazkur yangi qoidalarga to‘xtalib o‘tsak:

birinchidan, mazkur moddaning 15-bandiga “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma’ruzasini ko‘rib chiqish” bo‘yicha qo‘shimcha kiritilmoqda. Hammamizga ma’lumki, hukumat aholining joylardagi muammolarini yechimini topishda, hal qilib berishda asosiy ijro organi hisoblanadi. Konstitutsiya loyihasida, xalq ovoz bergan Oliy Majlis tomonidan hukumatning har yili ijtimoiy, iqtisodiy hayotning eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma’ruzasini ko‘rib chiqishi, hukumatning o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarashi, xalqqa yanada yaqinroq bo‘lish imkoniyatini yaratib beradi. Nazarimizda, ma’ruza endi nomigagina bo‘lmaydi, balki bu orqali tegishli oqibatlar kelib chiqadi, tegishli rahbarlarning faoliyatiga baho beriladi.

Nazorat qilish vazifalarini amalga oshirish doirasida Qonunchilik palatasi tomonidan birgina joriy yilning to‘qqiz oylik muddat davrida qonunlar ijrosi yuzasidan **24 ta** nazorat-tahlil tadbiri, **16 ta** “parlament eshituvi” o‘tkazildi, **5 ta** “hukumat soati” tashkil etilgan[11];

ikkinchidan, mazkur moddaning 16-bandiga “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakilini saylash” vakolati kiritilmoqda. Bu norma orqali bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimi yanada takomillashtiriladi, bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta’sirchan tizimi kuchaytiriladi.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2021 yilda Bola ombudsmani nomiga bola huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi to‘g‘risida jami 182 ta (125 tasi shikoyat, 57 tasi ariza) murojaat kelib tushgan. Bolalar ombudsmani tomonidan bola huquqlari va erkinliklarini ta’minlash yuzasidan 123 ta so‘rov davlat tashkilotiga yuborilgan. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, kelib tushgan murojaatlarning aksariyati, bolaning oilaviy muhitga bo‘lgan huquqiga doir 65 ta, aliment olish huquqiga doir 12 ta murojaat kelib tushgan[10]. Demak, ko‘rinib turibdiki fuqarolarimizning Bola ombudsmani faoliyatiga nisbatan ishonchi oshmoqda;

uchinchidan, mazkur moddaning 17-bandi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi har yilgi Milliy ma’ruzani ko‘rib chiqish” vakolati bilan to‘ldirilmoqda. Xabaringiz bor, 2017 yil yanvar oyida Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi alohida qonun, 2020 yil iyun oyida Davlat rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida farmon va qarorlari qabul qilingan edi. Mazkur hujjatlarda parlament palatalariga Milliy ma’ruzalar kiritish tartibi kabi masalalar belgilab qo‘yilgan edi. Hozirgi davrda korrupsiyaga qarshi kurashish eng dolzarb vazifa ekanligini inobatga olgan holda, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli qoidalarni konstitutsiyaga kiritish masalasi muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qilingan ishlar atroflicha tahlil qilinishi, muhokama qilinishi bilan birga kelgusida qay jihatlarga e’tibor qaratilishi lozimligi to‘g‘risidagi masalalar ham xalq vakillari tomonidan muhokama qilinadi.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, “Transparency International” xalqaro tashkilotining 2021 yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksida O‘zbekiston 2020 yilga nisbatan 6 pog‘onaga yuqorilab, 180 davlat ichida 140-o‘rinni egalladi. Eng ilg‘or davlat o‘ntaligi qatoriga esa, Daniya, Finlyandiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Singapur, Shvetsiya, Shveytsariya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Germaniya davlatlari kiradi. Bu ko‘rsatkichlar ham aytib turibdiki, xoli oldimizda bu illatga qarshi kurashish uchun keng jamoatchilik oldida ancha vazifalar turibdi[12];

to‘rtinchidan, Prezidentning ayrim vakolatlarini Oliy Majlis Senatiga o‘tkazilishi, muhim davlat boshqaruvidagi konstitutsiyaviy o‘zgarishlar amalga oshirilyapti desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Xususan, Oliy Majlis Senatining mutloq vakolati bilan bog‘liq 80-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi rahbarini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash; Hisob palatasi raisini lavozimga tayinlash va ozod qilish vakolatini

Senatga o‘tkazish vakolatlari shular jumlasidandir (2022 yil 25 iyundagi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi).

beshinchidan, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining 83-moddasiga kiritilishi taklif etilayotgan saylov huquqiga ega, 100 ming kishidan kam bo‘lmagan miqdordagi fuqarolar qonunchilik takliflarini kiritish institutini joriy etilishi, xalqning bevosita qonun ijodkori sifatida qonun hujjatlariga tashabbus ko‘rsatish huquqi orqali eng o‘tkir va tizimli muammolarni “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” tamoyili asosida hal etishiga olib keladi. Bu yangi tizim Shveysariya, Ispaniya, Italiya, Avstriya kabi davlatlar tajribalarida ham bevosita uchraydi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, albatta jamiyatda parlamentning o‘rni va roli oshirib borilishi lozim. Zero, xalq vakillaridan iborat parlament orqali xalqimizning muammolarini yechish osonlashadi. Parlament vakolatlari keng bo‘lgan davlatlarda demokratik rivojlanish, xalq yoki uning vakillari bilan hisoblashish, parlamentning nazorati instituti shakllaridan foydalanish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент : “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.- Б. 552.

2. Монтескье Ш. Избранные произведение. – М., Политиздат, 1953. – С.298.

3. Брайс Ж. Американская Республика. 1-часть. – М., 1889. – С.120.

4. https://lex.uz/docs/5841063. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.

5. Ўзбекистон Республикаси Конституциявий ҳуқуқи. Дарслик. / Муаллифлар жамоаси. Тошкент: ТДЮИ, 2005.- 422-бет.

6. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг 2021 йил якунлари ахбороти

7. http://senat.uz/uz/lists/view/893.

8. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати 2021 йилдаги фаолияти

9. http://parliament.gov.uz/ru/.Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг 2021 йилдаги фаолияти тўғрисида ахборот.

10. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.80-81.

11. https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-vakillik-organlari-rivozhining-yangi-bosqichi_403257.

12. https://stat.uz.2021 йилги “Transparency International” баёнотидан.

Zulfiqorov Sh.X., Xomidov E.O. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining konstitutsiyaviy maqomi va uni takomillashtirishning ayrim masalalari

Maqolada milliy parlamentimiz, uning amalga oshiradigan vazifalari va istiqbollari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Shuningdek, parlamentning mohiyati to‘g‘risida xorijiy huquqshunos olimlarning fikrlari o‘rganilib, parlament mohiyatiga mualliflik qarashlari ilgari surilgan. Milliy qonunchiligimizni takomillashtirishga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: parlament, deputat, parlament so‘rovi, qonun ijodkorligi, demokratiya, davlat hokimiyati, jamiyat va davlat.

Зулфиқоров Ш.Х., Хомидов Э.О. Конституционный статус Олий Мажлиса Республики Узбекистан и некоторые вопросы его совершенствования

В статье рассказывается о нашем национальном парламенте, задачах и перспективах его реализации. Также были изучены мнения зарубежных ученых-юристов о природе парламента и выдвинуты авторские взгляды на сущность парламента. Были выдвинуты предложения по совершенствованию нашего национального законодательства.

Ключевые слова: парламент, депутат, парламентский запрос, законотворчество, демократия, государственная власть, общество и государство.

Zulfikorov Sh.Kh. Khomidov E.O. Constitutional status of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan and some issues of its improvement

The article talks about our national parliament, its implementation tasks and prospects. Also, the opinions of foreign legal scholars on the nature of Parliament were studied and author's views on the essence of Parliament were put forward. Proposals have been put forward to improve our national legislation.

Key words: parliament, deputy, parliamentary inquiry, lawmaking, democracy, State Power, society and the state.

Maxsadov Maxsatullo Ismatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Rasulova Nodira Sardarovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari nomzodi, dotsent;
Yunusov Ulug‘bek Abdullayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura fakulteti boshlig‘i, dotsent;
Jumayev A’loqul Jo‘rakulovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

KOREYA RESPUBLIKASI MILLIY POLITSIYA AGENTLIGINING TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING IJOBIY JIHATLARI VA ULARNI MILLIY AMALIYOTGA QO‘LLASH MASALALARI

Rivojlangan mamlakatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash, ushbu sohada professional kadrlarni tayyorlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli ta’minlash hamda ushbu yo‘nalishda ilg‘or texnologiyalardan samarali foydalanish amaliyoti keng joriy etilgan. Xususan bu borada Janubiy Koreyaning tajribasi o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

Koreya Milliy politsiya agentligi mamlakatda jamoat va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, tergov faoliyati, sud-tibbiy ekspertiza, kiberxavfsizlik kabi muhim yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi[1]. Agentlikning Koreya Milliy politsiya universiteti ushbu yo‘nalishlarda professional kadrlarni yetishtirib beradigan oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Koreya milliy politsiya universiteti faoliyati o‘quv, ilmiy-tadqiqot, moddiy-texnik ta’minot va tashkiliy-amaliy yo‘nalishlarda olib boriladi.

Universitetda ta’lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan bo‘lib, “nazariya va amaliyot uyg‘unligi” tizimini yo‘lga quyish maqsadida o‘quv fanlari: huquqiy fanlar, ma’muriy boshqaruv va politsiya ilmlari fanlari bloklariga bo‘lingan (tegishli fanlar bo‘yicha uchta fakultet mavjud). O‘z o‘rnida, o‘quv fanlari ixtisoslik bo‘yicha majburiy va ixtisoslik bo‘yicha ixtiyoriy, bazaviy fanlar, umumiy bilimlar bo‘yicha hamda boshqa fanlarga (Yakka kurash, Intizom, Politsiya dala mashg‘ulotlari, Bitiruv malaka ishi) bo‘lingan. O‘quv jarayonining mazkur tartibi Politsiyachilarni tayyorlash tizimida bir vaqtning o‘zida 2 ta mutaxassislik berish va ta’lim jarayonini tashkil etishda moslashuvchan jadval joriy etish imkoniyatini bergan. Jumladan, universitetning bitiruvchilari o‘qish davrida majburiy bo‘lgan Politsiya ilmlari bo‘yicha bakalavr mutaxassisligi bilan bir qatorda, fanlarni ixtiyoriy tanlash orqali Ommaviy-ma’muriy boshqaruv yoki Yurisprudensiya mutaxassisliklariga ega bo‘lishadi. Yoinki, modullar tanlovi turli bosqichdagi (1, 2, 3 va 4 bosqich) kursantlarni bitta fan doirasida o‘qitish, bitta auditoriya va o‘quv kursi doirasida ta’lim berishni tashkil etish imkoniyatini yaratgan.

Universitet ta’lim jadvalida alohida yozgi (3 haftalik) va qishki (4 haftalik) amaliy mashg‘ulotlari (Seasonal Session) joriy etilgan. Bunda yozgi mashg‘ulotlar birinchi kurslar uchun avtomobilni maxsus boshqarish, xorijiy tillar ko‘nikmalari o‘quv kurslari, ikkinchi kurslar uchun Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash amaliyoti, uchinchi kurslar uchun Patrul politsiyasi sifatida jamoat xavfsizligini ta’minlashda, to‘rtinchi

kurslar uchun jinoyatlarni ochish va tergov qilish amaliy mashg‘ulotlarini o‘taydilar[2]. O‘z navbatida, qishki amaliy mashg‘ulotlar 1-3 kurslar uchun o‘q otish poligoni va Politsiya ishi bo‘yicha maxsus leksiyalardan iborat. 4-kurs kursantlari uchun qishki mashg‘ulotlar bir oylik Bazaviy harbiy tayyorgarlik kursidan iborat. Ta’kidlash joizki, amaliy mashg‘ulotlar alohida baholanadi va ular bo‘yicha tegishli kreditlar hisoblanadi. Ta’til yozgi – avgust oyi va qishki – yanvar oyi davomida tashkil etilgan[3].

O‘quv jarayonidagi amaliy mashg‘ulotlarni kurslar bo‘yicha alohida taqsimoti bosqichma-bosqich amaliy ko‘nikma va moslashuvchanligini shakllantirib borilishiga, amaliyotdagi faoliyatning yagona baholash tizimiga kiritilganligi amaliyot sifatini samarali nazorat etish tizimini yaratishga imkon bergan.

Universitetda kursantlarning intizomini nazorat qilishda balli tizim joriy etilgan. Bunda to‘rt yil davomida kursantning intizomi uchun oldindan 100 ball berilib, o‘qish davomida Ichki tartib qoidalarini buzilgan har bir holati uchun tegishli ballar kamaytirib boriladi. Ta’kidlash joizki, kursantlarni ishga taqsimot qilish davomida o‘qish davridagi ballar inobatga olinib, yuqori natijaga erishgan kursantlarga nufuzli bo‘linmalarga joylashish tanlovi taqdim etiladi, kam ball to‘plagan kursantlarni kursdan qoldirish va olis hududlardagi yoki og‘ir sharoitdagi bo‘linmalarga majburiy yuborish kabi yagona va bir-biriga uzviy bog‘liq tizim joriy etilgan. Mazkur baholash tartibining joriy etilishi kursantlarni o‘zini o‘zi nazorat qilishga, yaxshi o‘qish va intizomli bo‘lishga motivatsiya berish bilan universitetda ichki tartib qoidalarga yuqori hurmat ruhini shakllantirishga, shuningdek kursantlarni bevosita nazorat qilishga ketadigan moliyaviy va kadr resurslarini tejashiga olib kelgan.

Universitetda professor-o‘qituvchi-larning akademik mustaqilligi prinsipi kiritilgan. Bunda, har bir o‘quv kursi bo‘yicha ilmiy ish yoqlagan professor-o‘qituvchi belgilangan bo‘lib, unga o‘quv kursi mazmuni, dars o‘tish tartibini belgilash, materiallarni o‘zlashtirilganligini baholash va kursdagi davomat masalalarini mustaqil hal etish vakolati berilgan. Shu bilan birga professor-o‘qituvchilarning ta’limi sifati kursantlarni kurs o‘rtasida (oraliq) va yakunida anonim anketa so‘rovnomasi orqali bilvosita nazorat qilish tartibi joriy etilgan. Mazkur tartib, o‘quv jarayonini nazorat qilishda ortiqcha qog‘ozbozlik, bir nechta instansiyalar bilan kelishish, mansabdor shaxslar tomonidan doimiy nazorat qilib turish, leksiyalar davomida boshqa shaxslarni kirishi orqali chalg‘itish zaruratlaridan voz kechish orqali nazorat personali shtati qisqarishiga va vaqt tejamkorligiga erishilgan hamda faqat ta’limga diqqatni jalb qilish, professorlarning nufuzini oshirish imkoniyatini yaratgan.

Mazkur ta’lim muassasasida ingliz tili majburiy bazaviy xorijiy til sifatida birinchi kursda o‘qitilib, kursantlar tanlovi asosida yapon, nemis, fransuz, arab, xitoy va ispan ikkinchi xorijiy til kurslari tashkil etilgan. Til kurslariga 3 tadan ko‘p kursant yozilgan holda universitet tomonidan tashkillash-tiriladi. Bunda, kursantlar ham birinchi, ham ikkinchi xorijiy til bo‘yicha belgilangan balldan kam bo‘lmagan kvalifikatsion sertifikat olishi majburiy hisoblanadi. Mazkur tartib, xorijiy tillarni bilish universitetda universitetni jahon ta’lim dargohlari orasidagi nufuzini oshirish, Koreya politsiyachilarining xorijiy fuqarolar bilan muloqot qila olish kompetensiyalarini shakllantirish maqsadlariga erishib borishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga Universitetda politsiya ilmlari fakulteti mavjud bo‘lib mazkur fakultetda politsiya faoliyati bilan bog‘liq tor doiradagi o‘quv kurslari bo‘yicha mashg‘ulotlar olib boriladi. Bular qatorida jinoyatchi psixologiyasi, krizis holatlarda muzokaralar olib borish, jinoyat joyini ko‘zdan kechirish, kiber jinoyatlarni ochish va tergov qilish, yo‘l harakati bilan bog‘liq jinoyatlarni ochish va tergov qilish, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlash, tevarak atrof arxitekturasi dizayni orqali jinoyatlarni oldini olish (CPTED), jinoyatchilar profaylingi (shaxsning tashqi ko‘rinishi va xulq-atvori

tahlili orqali potensial xavfli subyektni erta aniqlashga qaratilgan psixologik usullar majmui), tergovda so‘rov va so‘roq qilish, tezkor ma’lumotlar tahlili orqali jinoyatchilarni aniqlash, viktimologiya kabi 47 ta maxsus chuqurlashtirilgan o‘quv modullari mavjud [3].

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, boshqa ta’lim muassasalarining 50 ta 2 kursini bitirgan talabalarni Universitetga o‘qishga 3 kursdan qabul qilish tartibi mavjud. Bunda 3 va 4 kursni Universitetda tahsil olib professional politsiya xodimlarini tayyorlanadi. Mazkur tartib, 2 yil davomida o‘qitiladigan bazaviy dasturdagi fanlarni mustaqil o‘zlashtirgan shaxslarni ortiqcha vaqt va mablag‘ sarfisiz o‘qitish va ishga yo‘naltirish imkoniyatini bergan.

Universitetda alohida kadetlik o‘qish tartibi mavjud bo‘lib, mazkur tartib orqali alohida imtihon orqali bir yillik o‘qishga qabul qilinadi. Bunda 21 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan talabgorlar yuridik fanlar, Koreya tarixi, jinoyat kodeksi, davlat boshqaruv tizimidan test, maxsus jismoniy tayyorgarlikdan sinov, ingliz tilidan imtihon va suhbatdan o‘tadilar[3]. Mazkur tartib, 3 yil davomida o‘qitiladigan bazaviy dasturdagi fanlarni mustaqil o‘zlashtirgan shaxslarni ortiqcha vaqt va mablag‘ sarfisiz o‘qitish va ishga yo‘naltirish imkoniyatini bergan.

Universitetda talabalarni o‘qishga qabul qilish ishlarini tashkil etish va olib borish uchun alohida Qabul bo‘limi tashkiliy shtat tuzilmasi mavjud, bo‘limda (11 shtat birligi) alohida ofitserlar qabulning alohida yo‘nalishlari (bakalavr (harbiy va fuqarolik), magistratura (harbiy va fuqarolik), doktorantura, qayta tayyorlash va malaka oshirish)ga funksional javobgar etib belgilangan. Mazkur tartib, qabul jarayoni sifatini oshirish, yil davomida qabul ishlarini tashkil etish, Universitetning abituriyentlar orasida nufuzini oshirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini sifatini oshirish bilan bir qatorda boshqa xodimlar va professor-o‘qituvchilarni asosiy ishlaridan chalg‘itmaslik imkoniyatini bergan.

Koreya qonunchiligiga binoan jamiyatda gender tengligini ta’minlash maqsadida barcha davlat muassasalarida bir yilga 1 soatlik maxsus kurs joriy etilgan. Shu bilan birga politsiya ta’lim muassasalarida 10 soat, rahbar kadrlar malaka oshirish kursida esa 7 soat miqdorida gender tengligi, jinsiy zo‘ravonliklarga qarshi kurashish va ikkilamchi viktimologiya o‘quv mashg‘ulotlari olib boriladi. Mazkur kurslar orqali koreys jamiyatida gender tengligiga erishish va gender jinoyatlarini profilaktika qilish davlat tizimining yagona ta’lim va targ‘ibot elementi shakllantirilgan.

O‘q otish mashg‘ulotlarida xizmat tabel qurolidan sekin tempda 10 ta, tez tempda 20 ta o‘qni nishonga otishni mashq qilish yo‘lga qo‘yilgan. Bunda har xil templarda mashg‘ulotlar jangovar vaziyatning har xil holatlariga tayyor bo‘lish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Universitetda kadrlar bilan bog‘liq barcha harakatlar “E-saram” davlat elektron platformasi orqali amalga oshiriladi. Bunda xodimlarni ishga olishdan tortib to pensiyaga chiqishlarigacha bo‘lgan barcha harakatlar ortiqcha hujjatlarsiz amalga oshiriladi. Jumladan, 1,5 mingdan ortiq shaxsiy tarkibning ta’til, ijtimoiy yordam, ishni ko‘chirish, sug‘urta, kompensatsiyalar, xodimlar farzandlarini bolalar bog‘chasiga joylashtirish, psixologik yordamini tashkil etish bitta xodim tomonidan amalga oshiriladi[3].

Koreya Respublikasi Milliy politsiya Universiteti magistraturasi tinglovchilari bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar doirasida tinglovchilarda liderlik sifatlarni shakllantirishga katta urg‘u berilgan. Mazkur o‘quv moduli davomida strategik fikrlashni tarbiyalash, idoralararo hamkorlikni tashkil etish, vazifalarni bajarishda tashkil etishda boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish, fuqarolar bilan turli vaziyatlarda muloqotda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirilib boriladi.

Koreya Respublikasi Milliy politsiya Universiteti bilan bir qatorda Koreya Respublikasi politsiyasining Tergov akademiyasi va Koreya Respublikasi politsiyasining inson resurslarini boshqarish institutlarining faoliyati ham mamlakatda

muhim ahamiyatga egadir.

Koreya Respublikasi politsiyasining Tergov akademiyasi bazasida o‘tgan yillarda sodir etilib ochilmay qolgan jinoyatlarni ochish samaradorligini oshirish, shaxsi aniqlanmagan murdalarni identifikatsiya qilish borasidagi sud-tergov organlari imkoniyatlarini oshirish maqsadida trassalogiya, doktiloskopiya, antropologiya, qon izlari tahlili, yong‘in va qasddan o‘t qo‘yishni aniqlash, o‘q otar qurollar ballistikasi laboratoriyalari o‘quv-amaliy kriminalistik laboratoriyalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan[3]. Mazkur laboratoriyalar eng ilg‘or laborator instrumentlar, maxsus texnik va kimyoviy vositalar bilan jihozlangan bo‘lib, amaliy tadqiqotlar, eksperimentlar olib boriladi, ilg‘or tergov va kriminalistik metodologiyalar asosida amaliyot xodimlarini malakasini oshirish ishlari tashkil etilgan. Ta’kidlash joizki, mazkur muassasa “amaliyotdan oldin yurish” tamoyili asosida faoliyat ko‘rsatib, ilg‘or kriminamlistik-texnik jihozlarning amaliyotga tatbiq etishdan oldin tegishli laboratoriyalar tomonidan o‘quv kurslarida tegishli mutaxassislarning malakasi oshiriladi.

Koreya Respublikasi politsiyasining inson resurslarini boshqarish institutida raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarni ochish va tergov qilish, raqamli dalillarni to‘plash bo‘yicha malaka oshirish kurslari, shuningdek patrul politsiyasi xodimlari uchun avtotransportlarni maxsus boshqarish simulyatsion markazi va xizmat mototsikllarini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish poligoni faoliyat olib boradi. Ta’lim jarayonida, raqamli texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni aniqlash bo‘yicha dasturiy ta’minot, raqamli dalillarni to‘plash bo‘yicha maxsus texnik-dasturiy komplekslardan foydalangan holda amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Universitetda ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari ham samarali yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, oliy ta’limdan keyingi ta’limda tahsil olayotgan doktorantlar uchun 39 ta ta’lim kreditidan (585 soat) iborat bo‘lgan Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi fani o‘qitiladi. Mazkur modul doirasida tadqiqotchilarda ilmiy ishlarni amalga oshirishning usul va uslublari, ilmiy yangiliklarni shakllantirish, tadqiqot ishiga qo‘yilgan ilmiy va texnik talablar, tanlangan mavzu doirasida ilmiy apparatni, ilmiy gipotezalarni shakllantirish, sotsiologik va dala tadqiqotlarini olib borish metodologiyasi va amaliyoti kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Shuningdek, Universitet tarkibida Politsiya fanlari ilmiy-tadqiqot instituti faoliyat yuritadi. Mazkur institut tarkibida Jinoyatlarni tergov qilish masalalari tadqiqoti, Xorijiy politsiya tajribasini o‘rganish, Ayollarga qarshi jinoyatlarni tadqiq etish hamda Aqlli politsiya ma’lumotlari tahlili markazlari mavjud. Shuningdek, Institutda Huquq va siyosat tadqiqotlari, Ilm va yuqori texnologiyalar rivojlantirish, Ijtimoiy barqarorlik va milliy xavfsizlik masalalari tadqiqotlari hamda Jamiyat xavfsizligi masalalari tadqiqotlari ofislari faoliyat yuritadi.

Jumladan, Aqlli politsiya ma’lumotlari tahlili markazlarida politsiya faoliyati davomida to‘planadigan juda katta hajmdagi ma’lumotlarni munitsipal idoralar va xususiy biznes informatsion platformalari tomonidan yig‘iladigan, shuningdek fuqarolarning ijtimoiy tarmoqlardagi tarqatadigan ma’lumotlar bilan birlashtirib Big Data texnologiyasi asosida tahlil qilib jinoyatlarni oldini olish siyosatini ishlab chiqish, internet makonidagi jinoyatlarga qarshi kurash taktikasini ishlab chiqishda, mahalla darajasida xavfsiz muhitni yaratish dasturlari ishlab chiqiladi.

Institutda maxsus laboratoriyalar tashkil etilgan bo‘lib, ular avtonom avtomobil haydashni ta’minlovchi dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish, o‘t qo‘yish va jinoyat joylaridan olingan gazlar tahlili laboratoriyasi (o‘tgan yilda 40 dan ortiq og‘ir turdagi jinoyatlarni ochishga qaratilgan xulosalar taqdim etilgan), politsiyaga ekipirovkasiga tegishli 3D va boshqa jihozlarni tayyorlash, mobil telefon orqali firibgarliklarga qarshi dasturiy ta’minotlar yaratish kabi masalalar borasida amaliy tadqiqotlar olib borishadi.

Kursantlar va universitetning o‘quv jarayonidagi o‘zaro aloqasi universitetning yagona himoyalangan ta’lim platformasida amalga oshiriladi. Bunda har bir kursantning Universitet ta’lim platformasida shaxsiy profili mavjud bo‘lib, dars jadvallari, baholar, fan dasturlari, ma’ruza matnlari va taqdimot materiallari, tavsiya etilgan kitoblar, va b. joylashtirilib, har bir kursantga universitet domenidan elektron pochta manzili taqdim etilgan. Kursantlarga platforma ma’lumotlar bazasidagi minglab elektron darsliklar va manbalarga kirish imkoniyati berilgan.

Ta’lim muassasasining butun hududida barcha ro‘yxatga olingan (mak adres bo‘yicha) elektron qurilmalarga Wi-Fi orqali yuqori tezlikdagi internetga kirish imkoniyati mavjud. Universitet o‘zini global darajadagi OTM sifatida taqdimot etishini ko‘zlab, o‘z hududida alohida ingliz tilidagi ko‘rgazmalar, infografikalar, maketlar va boshqa ekspozitsiyalardan alohida zal, har bir fakultet va bo‘limlarda ularning faoliyati aks etuvchi ingliz tilidagi buklet, videorolik, prezentatsiyalar universitet saytidagi barcha sahifalarning ingliz tilidagi shakllari mavjud.

Kursantlarda politsiya xizmat avtotransportlarini maxsus boshqarish va yo‘l harakati xavfsizligini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida universitet hududida Avtotransport vositalarini maxsus boshqarish poligoni tashkil etilgan. Turli amaliy xizmatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekstremal vaziyatlarni modulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan elektron tir tashkil etilgan bo‘lib, o‘quv qurollar xizmat tabel quroli og‘irligi va kompleksiyasini takrorlaydi. Mazkur kompleks kursantlarda psixologik barqarorlik, vaziyatga mos tezkor reaksiya va aniq nishonga olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Harbiy xizmatchilar va xizmatchilarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish maqsadida barcha xodimlar va ularning oila a’zolari Universitet tomonidan ijtimoiy va tibbiy sug‘urtalanadi, hududda xodimlar va xizmatchilarning farzandlari uchun maktabgacha ta’lim muassasasi tashkil etilgan (60 o‘ringa ega, hozirda 34 ta tarbiyalanuvchi mavjud).

Koreya Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, favqulodda vaziyatlarda vaziyatni nazorat qilish, yordamga muhtoj shaxslarni qutqarish, jabrlanganlar sonini aniqlash, bedarak yo‘qolganlarni qidirib topishda dronlardan keng ko‘lamda foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Koreya qonunchiligiga muvofiq dronlarni boshqarish sertifikatiga ega bo‘lgan har qanday fuqaro dronlarni sotib olish va foydalanish huquqiga ega. Politsiyani tuman darajasidagi har bir bo‘linmasida dron guruhlari (Drone teams) tashkil etilgan bo‘lib, ular odatda 2 ta ofitserdan tashkil topgan, xizmat avtomobili va uchuvchisiz uchish kompleksi bilan ta’minlangan[3]. Xizmat dronlari issiqlik kamerasi, 30 karra yaqinlashtiruvchi kunduzgi kameralar bilan jihozlanganligi ularni tunu kun ishlatish va shaxslarni uyumlar tagidan hamda o‘rmon ichida aniqlash imkoniyatini beradi.

Davlatda yagona dronlarni boshqarishni o‘rgatuvchi instruktorlarni tayyorlash (Koreya transport xavfsizligi vazirligining Xvason shahridagi Dronlarni boshqarish o‘rgatuvchi instruktorlarni tayyorlash markazi), dronlarni boshqarish sertifikatsiyalangan o‘qitish markazlari tizimi shakllantirilgan.

Koreya Respublikasida ommaviy namoyishlarni o‘tkazish bo‘yicha ijobiy tajriba shakllangan. Jumladan, har qanday fuqaroga hokimiyat ruxsatisiz yakka piket tashkil etish huquqi berilgan. Bittadan ortiq fuqaro ishtirokidagi namoyishlar tuman politsiya idorasining ruxsati talab etiladi, bunda belgilangan shakldagi (집회 신고) ariza blankini to‘ldirish talab etiladi. Politsiya o‘z navbatida piket joyi (odatda bu markaziy shoh ko‘chaning ikki tarafi) va piketchilarni qo‘riqlashni ta’minlaydi. Ma’muriy binolarga 100 metr yaqinlikda piket va namoyishlar o‘tkazish taqiqlanadi. Ko‘cha yurishlarida xuddi shunday protseduraga amal qilinib, qo‘shimcha ravishda yurish marshruti politsiya bilan kelishiladi. Ruxsatnoma darhol berilib, 48 soat o‘tgach kuchga kiradi.

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlili, shuningdek Koreya Respublikasi Milliy

politsiya agentligining ta’lim muassasalari faoliyatidagi ta’lim jarayonining ijobiy jihatlarining O‘zbekiston Respublikasidagi jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini samaradorligini oshirishda foydalanish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, ta’lim jarayonining amaliyotga yaqinlashtirish va o‘quv dasturining moslashuvchanligini ta’minlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tizimiga kadrlar tayyorlovchi Oliy o‘quv yurtlarida Jamoat xavfsizligi bazaviy mutaxassisligi va qo‘shimcha tanlov asosidagi qo‘shimcha mutaxassislik berish masalasini o‘rganish;

ikkinchidan, o‘quv jarayonidagi amaliy mashg‘ulotlarni sifatini va samaradorligini oshirish maqsadida mazkur mashg‘ulotlarni bosqichma-bosqichlik tamoyili asosida tashkil etilish va amaliy mashg‘ulotlardagi ko‘rsatgan natijalar keyingi yarim yillik o‘qishni davom ettirishi masalasini hal etishi tartibini joriy etish. Amaliyot natijalari qoniqarsiz deb baholangan kursantlarni kursdan-kursga qoldirish amaliyotini joriy etish;

uchinchidan, kursantlarning ishga yo‘naltirishda “bilim–ko‘nikma–intizom” tamoyilini joriy etish, bunda a’lo baholarda o‘qigan (bilim), amaliyotda yaxshi natijalarni ko‘rsatgan (ko‘nikma), o‘quv-tarbiyaviy jarayonda ichki tartib qoidalarga qat’iy amal qilgan (intizom) bitiruvchi kursantlarni nufuzli bo‘linmalarda ish joylariga o‘tish tanlash imtiyozini berish, mazkur toifadagi xodimlarga bir yil davomida “umidli iqtidorli xodim” ko‘krak nishoni va qo‘shimcha to‘lovini joriy etish masalasini ko‘rib chiqish. Bunda, kursantlarni ta’limi davomida intizomini nazorat qilishda oldindan 100 ball taqdim etish va har bir intizomni buzish holatida tegishli ballni olib tashlash tartibini joriy etish.

to‘rtinchidan, ta'lim sifatini nazorat qilishda o‘zaro tiyib turish va o‘zaro nazorat tamoyilini joriy etish maqsadida professor-o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilimini baholashda mustaqilligini, tinglovchi (kursant)larni esa professor-o‘qituvchining dars sifatini baholash imkoniyatini berish. Bunda, ta’lim oluvchilarning professor o‘qituvchilarning dars sifatini baholash o‘quv fanining oraliq va yakuniy nazoratlardan so‘ng o‘tkazish, baholash natijalari bilan professor-o‘qituvchilarni tanishtirish amali-yotini joriy etish orqali ularning o‘z ustida muntazam samarali ishlab borishini ta’minlash;

beshinchidan, Universitetni jahon ta’lim dargohlari orasida nufuzini oshirish, universitet bitiruvchilarining xorijiy fuqarolar bilan muloqot qila olish kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida birinchi kursda ingliz va rus tillarini majburiy bazaviy xorijiy til sifatida o‘qitishni, shuningdek kursantlar tanlovi asosida yapon, nemis, fransuz, arab, xitoy va ispan ikkinchi xorijiy til kurslari tashkil etish. Bunda, til kurslarini 10 tadan ko‘p kursant yozilgan holda universitet tomonidan tashkillashtirish hamda kursantlar ham birinchi, ham ikkinchi xorijiy til bo‘yicha belgilangan balldan kam bo‘lmagan kvalifikatsion sertifikat olishini majburiy qilib belgilash.

oltinchidan, Universitetda Jamoat xavfsizligi mutaxassisligi uchun o‘qitilish majburiy bo‘lgan jinoyatchi psixologiyasi, krizis holatlarda muzokaralar olib borish, jinoyat joyini ko‘zdan kechirish, kiber jinoyatlarni ochish va tergov qilish, yo‘l harakati bilan bog‘liq jinoyatlarni ochish va tergov qilish, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlash, tevarak atrof arxitekturasi dizayni orqali jinoyatlarni oldini olish (CPTED), jinoyatchilar profaylingi (shaxsning tashqi ko‘rinishi va xulq-atvori tahlili orqali potensial xavfli subyektni erta aniqlashga qaratilgan psixologik usullar majmui), tergovda so‘rov va so‘roq qilish, tezkor ma’lumotlar tahlili orqali jinoyatchilarni aniqlash, viktimologiya kabi o‘quv modullarini tashkil etish masalasini ko‘rib chiqish;

yettinchidan, Respublikamizning boshqa OTMlarini 2 kursini umumfuqaroviy asosda ta’lim olib bitirgan talabalarni tahsil olayotgan yo‘nalishlarini hisobga olgan holda universitetning 3 bosqichiga kursantlar safiga o‘qishga qabul qilishni joriy etish;

sakkizinchidan, Respublikamizning boshqa OTMlarida umumfuqaroviy asosda ta’lim olgan fuqarolarni bitirgan yo‘nalishlarini hisobga olgan holda Universitetda alohida kadetlik o‘qish tartibini joriy etish orqali o‘qitish ishlarini (6 oydan 1 yilgacha) tashkil etish va tegishli yo‘nalishlarda ofitser kadr tayyorlash. Bu, bazaviy dasturdagi fanlarni ortiqcha vaqt va mablag‘ sarfisiz o‘qitish va ishga yo‘naltirish imkoniyatini beradi;

to‘qqizinchidan, Universitetda kursant, tinglovchi, magistr va doktorantlarni o‘qishga qabul qilish hamda harbiy xizmatchi va fuqaro xizmatchilarni ishga qabul qilish ishlarini tashkil etish va olib borish uchun alohida O‘qishga va ishga qabul qilish bo‘limi tashkiliy shtat tuzilmasini tashkil etish (amaldagi kadrlar bo‘limi negizida).

o‘ninchidan, jamiyatda gender tengligini ta’minlash maqsadida Universitetda bir yilga 1 soatlik gender tengligi, jinsiy zo‘ravonliklarga qarshi kurashish va ikkilamchi viktimologiya o‘quv mashg‘ulotlari maxsus kursini joriy etish;

o‘n birinchidan, Har xil templarda mashg‘ulotlar jangovar vaziyatning har xil holatlariga tayyor bo‘lish ko‘nikmasi shakllantirish maqsadida o‘q otish mashg‘ulotlarida xizmat tabel qurolidan sekin tempda 10 ta, tez tempda 20 ta o‘qni nishonga otishni mashq qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

o‘n ikkinchidan, Respublikada kadrlarning ta’til, ijtimoiy yordam, ishni ko‘chirish, sug‘urta, kompensatsiyalar, xodimlar farzandlarini bolalar bog‘chasiga joylashtirish, psixologik yordamini tashkil etish va boshqa masalalar bo‘yicha yuridik va amaliy ahamiyatga ega harakatlarni “E-ijtimoiy himoya” davlat elektron platformasi imkoniyatlarini kengaytirgan holda onlayn shaklda amalga oshirish;

o‘n uchinchidan, Universitet magistraturasi tinglovchilarida strategik fikrlashni tarbiyalash, idoralararo hamkorlikni tashkil etish, vazifalarni bajarishda tashkil etishda boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish, fuqarolar bilan turli vaziyatlarda muloqotda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirilib maqsadida liderlik va kommunikativ ko‘nikmalar o‘quv modulini joriy etish masalasini ko‘rib chiqish;

o‘n to‘rtinchidan, Universitetning kriminalistik poligoni bazasida o‘tgan yillarda sodir etilib ochilmay qolgan jinoyatlarni ochish samaradorligini oshirish, shaxsi aniqlanmagan murdalarni identifikatsiya qilish borasidagi sud-tergov organlari imkoniyatlarini oshirish maqsadida trassalogiya, doktiloskopiya, antropologiya, qon izlari tahlili, yong‘in va qasddan o‘t qo‘yishni aniqlash, o‘q otar qurollar ballistikasi laboratoriyalari o‘quv-amaliy kriminalistik laboratoriyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, shuningdek mazkur laboratoriyalarni eng ilg‘or laborator instrumentlar, maxsus texnik va kimyoviy vositalar bilan jihozlash;

o‘n beshinchidan, kursant va talabalar hamda amaliyotda xizmat olib boruvchi xodimlarda xizmat avtotransportini boshqarishda maxsus ko‘nikmalarni (quvib yetish, to‘sib to‘xtatish, favqulodda to‘xtatish va b.lar) shakllantirish, shuningdek cheklangan moliyaviy resurslarni tejash maqsadida Universitet Situatsion o‘quv markazi qoshida Avtoulovlarni boshqarish simulyatsiya xonasini tashkil etish, uning bazasida kursantlarga va malaka oshirish uchun kelgan xodimlarga o‘rgatiladigan maxsus o‘quv-amaliy kursini tashkil etish;

o‘n oltinchidan, Tadqiqotchilarda ilmiy ishlarini amalga oshirishning usul va uslublari, ilmiy yangiliklarni shakllantirish, tadqiqot ishiga qo‘yilgan ilmiy va texnik talablar, tanlangan mavzu doirasida ilmiy apparatni, ilmiy gipotezalarni shakllantirish, sotsiologik va dala tadqiqotlarini olib borish metodologiyasi va amaliyoti kabi ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida Universitetda oliy ta’limdan keyingi ta’limda tahsil olayotgan doktorantlar uchun “Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi” fanini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish;

o‘n yettinchidan, Jamoat xavfsizligi bo‘yicha ilmiy izlanishlarni va fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek amaliyotda zarur bo‘lgan texnik va dasturiy mahsulotlar,

ishlanmalarni yaratish va ishlab chiqishga joriy etish maqsadida Universitet qoshida Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish. Bunda tadqiqotlar maqsadlaridan kelib chiqib Institut tarkibida Xavfsizlik texnik vositalarini yaratish va rivojlantirish, Maxsus vositalarni yaratish va rivojlantirish, Dronlarni yaratish va rivojlantirish, Jamoat xavfsizligini strategik rejalashtirishda Big Data, Xavfsiz hududlarni yaratish masalasini tadqiq etish kabi markazlarni tashkil etish;

o‘n sakkizinchidan, Universitetda yagona himoyalangan ta’lim platformasini ishlab chiqish va unda har bir kursantning shaxsiy profilini ochish, dars jadvallari, baholar, fan dasturlari, ma’ruza matnlari va taqdimot materiallari, tavsiya etilgan kitoblar, va b. joylashtirish, har bir kursantga universitet domenidan elektron pochta manzilini taqdim etish hamda ularga platforma ma’lumotlar bazasidagi minglab elektron darsliklar va manbalarga kirish imkoniyatini berish;

o‘n to‘qqizinchidan, Universitetning butun hududida barcha ro‘yxatga olingan (mak adres bo‘yicha) elektron qurilmalarga Wi-Fi orqali yuqori tezlikdagi internetga kirish imkoniyati joriy etish;

yigirmanchidan, Universitet o‘zini global darajadagi OTM sifatida taqdimot etishini ko‘zlab, o‘z hududida alohida ingliz tilidagi ko‘rgazmalar, infografikalar, maketlar va boshqa ekspozitsiyalardan alohida zal, har bir fakultet va bo‘limlarda ularning faoliyati aks etuvchi ingliz tilidagi buklet, videorolik, prezentatsiyalar universitet saytidagi barcha sahifalarning ingliz tilidagi shakllarini ishlab chiqish;

yigirma birinchidan, Universitet hududida kursantlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari xizmat avtotransportlarini maxsus boshqarish va yo‘l harakati xavfsizligini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida Avtotransport vositalarini maxsus boshqarish poligonini tashkil etish;

yigirma ikkinchidan, Universitetning O‘q otish kafedrasi bazasida o‘quv qurollar xizmat tabel quroli og‘irligi va kompleksiyasini inobatga olgan holda, amaliy xizmatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekstremal vaziyatlarni modulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan elektron tir bilan jihozlangan O‘q otish ko‘nikmalari markazini tashkil etish;

yigirma uchinchidan, Universitet harbiy xizmatchilari va xizmatchilarini har tomonlama ijtimoiy himoya qilish maqsadida barcha xodimlar va ularning oila a’zolari Universitet tomonidan ijtimoiy va tibbiy sug‘urtalash, hududda xodimlar va xizmatchilarning farzandlari uchun maktabgacha ta’lim muassasasini tashkil etish;

yigirma to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, favqulodda vaziyatlarda vaziyatni nazorat qilish, yordamga muhtoj shaxslarni qutqarish, jabrlanganlar sonini aniqlash, bedarak yo‘qolganlarni qidirib topishda dronlardan keng ko‘lamda foydalanishni yo‘lga qo‘yish. Mazkur maqsadda viloyat miqyosida barcha MG hududiy boshqarmalari qoshida IIV va FVVning xizmat sohalarida foydalanish uchun xizmat avtomobili va uchuvchisiz uchish kompleksi bilan ta’minlangan Dron guruhlarini tashkil etish;

yigirma beshinchidan, Koreya Respublikasi tajribasida kelib chiqib, Milliy gvardiya Ixtisoslashgan o‘quv markazi tarkibida Respublika yagona dronlarni boshqarishni o‘rgatuvchi instruktorlarni tayyorlash markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

yigirma oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasining yig‘ilishlar, namoyishlar, ko‘cha yurishlari va namoyishlarini tashkil etish va o‘tkazish borasida qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va takomil-lashtirishda Koreya Respublikasi tajribasidan foydalanish masalasini ko‘rib chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.police.ac.kr/police/eng/edu/pro/mng/professor_present.do?mdex=eng8.
2. www.unipage.net/ru/21151/korea_national_police_university.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti delegatsiyasining Koreya Respublikasi Milliy politsiya Universitetiga tashrifi yuzasidan hisoboti, - T., 2022 yil, may.

Maxsadov M.I., Rasulova N.S., Yunusov U.A. Jumayev A.J. Koreya Respublikasi milliy politsiya agentligining ta’lim muassasalari faoliyatining ijobiy jihatlari va ularni milliy amaliyotga qo‘llash masalalari

Maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida Janubiy Koreyaning tajribasi va Koreya milliy politsiya universitetining o‘quv, ilmiy, tashkiliy hamda boshqa yo‘nalishlardagi samarali faoliyati tahlil qilingan bo‘lib, ushbu ta’lim muassasasining jamoat xavfsizligi sohasida kadrlar tayyorlash amaliyoti o‘rganilgan va uni milliy tajribaga qo‘llash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: politsiya, ta’lim, jamoat xavfsizligi, kredit-modul tizimi, Seasonal Session, Ye-saram, Big Data, Drone teams, CPTED va boshqalar.

Махсадов М.И., Расулова Н.С., Юнусов У.А., Жумаев А.Ж. Положительные аспекты деятельности образовательных учреждений национальной полиции Республики Корея и вопросы их применения в национальной практике

В статье анализируется опыт Южной Кореи в сфере общественной безопасности и эффективная деятельность Корейского национального полицейского университета в образовательной, научной, организационной и других сферах, изучается практика обучения этого учебного заведения в сфере общественной безопасности и выработаны предложения и рекомендации по его применению к национальному опыту.

Ключевые слова: полиция, образование, общественная безопасность, система кредитных модулей, Seasonal Session, Ye-saram, Big Data, Drone teams, CPTED и др.

Maxsadov M.I., Rasulova N.S., Yunusov U.A. Jumaev A.J. Positive aspects of the activities of educational institutions of the national police of the Republic of Korea and issues of their application in national practice

The article analyzes the experience of South Korea in the field of public security and the effective activities of the Korean National Police University in the educational, scientific, organizational and other fields, studies the practice of teaching this educational institution in the field of public security and develops proposals and recommendations for its application to national experience.

Key words: police, education, public safety, credit module system, Seasonal Session, Ye-saram, Big Data, Drone teams, CPTED, etc.

Nurmuhammedova Go‘zalxon Bahodirovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
Nizametdinxodjayev Ulug‘bek Ruslanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Kotibiyat boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MASALALARINING TARTIBGA SOLINISHI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugun mamlakatimizda kechayotgan demokratik yangilanishlarning yangi bosqichida xalq bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, barchaning fikrini bilish, dardini eshitish va haqiqiy hayotga mos bo‘lgan xalqchil strategiyani amalga oshirishning hosilasi sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan adolat tamoyili kun tartibidagi eng ustuvor masalalardan biri sifatida ilgari surilmoqda. Jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini «Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda[1].

Qolaversa, dunyoda yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, alohida mamlakat misolida davlat suverenitetini saqlash va uning milliy xavfsizligini kompleks ta’minlash orqali aholining tinch va osoyishta hayot kechirishi uchun tizimli choralar ko‘rish masalalari o‘zining dolzarbligini qolmoqda. Zero, davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2018 yil 10 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida ta’kidlaganlaridek: “mintaqamizda va dunyoda hukm surayotgan, oldindan aytib bo‘lmaydigan murakkab sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz chuqur anglaymiz”[2].

Jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyatini tartibga soluvchi, normativ-huquqiy hujjatlarning pog‘onali mutanosibligiga muvofiq qonunchilik tizimida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning bosh qomusi, asosiy qonuni sifatida milliy qonunchilik, shu jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunchilikning rivojlanishi, xususan, tizimlashtirilishi uchun muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Konstitutsiya dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren demokratik davlat – O‘zbekiston Respublikasi qaror topganligini qonuniylashtirdi. Butun jahon ahliga xalqimizning xohish-irodasi bayon qilinib, unda o‘zbek davlatchiligini zamonaviy ma’rifiy asoslarda qayta tiklash, tinch-totuv yashash va tinchlikni mustahkamlash, demokratiyani chuqurlashtirish, inson huquqlari va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiq qolish, adolatli huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar osoyishtaligi hamda milliy hamjihatlikni ta’minlash kabi oliyjanob niyatlar e’lon qilindi. Bir so‘z bilan aytganda, konstitutsiya oliy darajadagi qonun sifatida davlatning qiyofasini, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvning demokratik prinsiplarini, jamiyat rivojlanishining strategik yo‘nalishlarini, fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlanganligini, ma’naviy qadriyatlarimiz asoslarini mustahkamlab berdi.

Konstitutsiyamizning jamoat xavf-

sizligini ta’minlashdagi muhim ahamiyatini anglashdan avval “xavfsizlik”, “xavf-xatar”, “tahdid”, “jamoat xavfsizligi”, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining obyekti, predmeti va subyektlariga qisqacha ta’rif berib o‘tamiz. Xavfsizlik tushunchasiga ko‘plab adabiyotlarda izohlar keltirib o‘tilgan, xususan O‘zbek tilining izohli lug‘atida: “xavfsizlik - xavf-xatarning yo‘qligi; xavf bo‘lmagan holat”; “xavf (qo‘rqinch, qo‘rqish, vahima, hadiksirash) – biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo‘lish ehtimolligi, xatar”; “xatar (xavf, tahlika, vahima, xavotir)” – biror baxtsizlikka, halokatga olib kelishi mumkin bo‘lgan sharoit. Xavfsizlik – bu hayotiy muhim manfaatlarning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati. Xavf-xatar turli xil tashqi (ichki) omillar (materiya, maydon, energiya, axborot yoki ularning birlashmasi va boshqalar)ning murakkab tizimlarga (misol uchun insonga) ta’siri natijasida uning faoliyati va rivojlanishining yomonlashishiga yoki to‘xtatilishiga olib kelish holati[3].

MDHga a’zo ayrim davlatlarning qonunchilik tizimida xavfsizlik sohasidagi munosabatlar alohida «Xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonun orqali tartibga solingan. Jumladan Rossiya Federatsiyasining «Xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunida xavfsizlik - shaxs, jamiyat va davlatning hayot uchun muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati deb ta’rif berilgan[4]. Bunda hayot uchun muhim manfaatlar shaxs, jamiyat va davlatning mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun ishonchli ta’minlaydigan ehtiyojlar yig‘indisi deb tushuncha berilgan. Xavfsizlikning asosiy obyektlariga shaxs uning huquq va erkinliklari, jamiyat uning moddiy va ma’naviy qadriyatlari, davlat va uning konstitutsiyaviy tuzimi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi kiradi[5].

Qozog‘iston Respublikasining «Milliy xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunida jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xavf va tahdidlardan fuqarolarning siyosiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy himoyalangan holati deb ta’rif berilgan[6].

Holbuki, Asosiy Qonunimizning 3, 25, 57 va 125-moddalarida har bir shaxsning daxlsizligi, mamlakatimizning chegara va hududlarining daxlsizligi, uning konstitutsiyaviy tuzumining himoya qilinishi hamda Qurolli Kuchlarning aholining tinch hayoti va xavfsizligi hamda mudofaa salohiyatiga ko‘maklashish bilan bog‘liq normalarning konstitutsiyaviy asoslari belgilab o‘tilgan. Konstitutsiyadagi real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat va epidemiyalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyat yuzaga kelganda davlat rahbarining qarori bilan mamlakatning butun hududi yoki ayrim joylarida favqulodda holat joriy etilishi konstitutsiyaviy mustahkamlangan.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy ta’minlashni o‘zida mujassam etgan qonun hujjatlari tizimida konstitutsiyaviy normalar o‘ziga yarasha alohida o‘rin va ahamiyat kasb etib quyidagilarga namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, Konstitutsiyaning Asosiy qonun sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tizimidagi ustuvor o‘rin egallashi, avvalambor, Konstitutsiyamizning o‘zida, xususan, uning 15-moddasidagi O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinishi hamda 16-moddasi ikkinchi qismidagi birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi qoida mazmunidan kelib chiqadi[7].

Ikkinchidan, butun qonun hujjatlari, shu jumladan harbiy qonun hujjatlari shakllanishida ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, tizimlashtirish, shu jumladan, kodifikatsiyalash natijasida yangi qonun hujjati yaratilishi ko‘zda tutiladigan bo‘lsa, u konstitutsiyaviy talablarni kafolatlashga qaratilgan normalarni qamrab olishi lozim bo‘ladi. Ya’ni, “huquq ijodkorligi faoliyati Konstitutsiyani amalga oshirishning huquqiy vositasi hisoblanadi”[8].

To‘rtinchidan, jamiyat rivojlanib borar ekan, turli yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishi bilan birga qonunlar ham, xususan Konstitutsiya ham takomillashib boradi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ijtimoiy davlat prinsipidan kelib chiqib isloh qilinmoqda. Ushbu islohotlarda tom ma’noda Bosh Qomusimizga xalqimiz tashabbusi va takliflari asosida juda katta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

“Darhaqiqat Konstitutsiyada jamiyat rivojlanishining bosh strategiyasi, ustuvor yo‘nalishlari, davlat umumiy va huquqiy siyosatining mazmun-mohiyati o‘zining qonuniy ifodasini topadi. Konstitutsiya jamiyat siyosiy yetukligining, ma’rifiy-huquqiy saviyasining, turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar muvozanatining natijasi, mahsulidir”[9].

Konstitutsiyani aksar hollarda davlatning Asosiy Qonuni deb atab, uning huquqiy tartibga solish tizimida alohida o‘rin tutishiga e’tibor qaratadilar. Konstitutsiya zamonaviy huquqiy davlatning yuridik hayotini belgilab beruvchi huquqiy tizimning o‘ziga xos o‘zagi, poydevori, hisoblanadi. Konstitutsiya normativ-huquqiy hujjat sifatida zamonaviy demokratik davlatning huquqiy tizimida alohida o‘rin tutadi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan yaratilish texnikasining o‘ziga xos xususiyatlari hamda o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan belgilar majmui bilan farqlanadi[10].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq norma O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari berilgan 93-moddasining 19-bandida aks etgan bo‘lib, unga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etishi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritishi mumkin. Vaholanki ushbu norma jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan holatlarda fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, huquq va erkinliklarini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiya doirasida o‘z vakolatlarini amalga oshirishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi asosiy maxsus qoidalar ham mustahkamlangan hamda Asosiy qonunimizning qator moddalarida, xususan, 3, 33, 35, 43, 57, 64, 70, 78, 93, 98, 125 va 126-moddalari mazmunida keltirib o‘tilgan. Masalan, davlat chegarasi va hududining daxlsizligi (3-modda, 2-qism), fuqarolarning miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazish bilan bog‘liq siyosiy huquqlarini ta’minlash (33-modda), har bir shaxsning vakolatli davlat organiga murojaat qilishi, hamda ularning murojaatlari qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi (35-modda), davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlashi (43-modda), konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish (57-modda), Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvere-niteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etilishi (70-modda 2-qismi), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlashi (78-modda 19-bandi), favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat va tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda insonlar xavfsizligini ta’minlash (93-modda, 19-band), davlatning ijro tizimini rivojlantirish (98-modda), aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish hamda mamlakat mudofaasini tashkil etishda ko‘maklashish (125-126-moddalar) kabi moddalari shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar va qismlarni, shuningdek boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi.

Konstitutsiyamizning 125-moddasi ikkinchi qismiga asosan, “Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi”. Ya’ni davlatning eng muhim faoliyatiga kiruvchi harbiy qurilish sohasi qonun bilan tartibga solinishi tufayli mudofaani tashkil etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining boshqaruvi jamoatchilik nazoratida bo‘lishi ta’minlanadi. Bu esa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarini o‘zida mujassam etgan, demokratik Konstitutsiya ekanligini yana bir bor ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi harbiy huquqning eng muhim

manbasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni[11] qabul qilinishi jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Farmonda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, 2022–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi, ushbu strategiya bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023 yildan boshlab har yili manzilli chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash tadbirlari belgilangani alohida diqqatga sazovor.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida konsepsiyada belgilangan vazifalar fuqarolarning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun yanada qulay sharoit yaratish, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz turizm”, “Obod va xavfsiz mahalla” konsepsiyalarini amalga oshirish maqsadida zamonaviy texnika va texnologiyalar, jalb etilayotgan kuch va vositalarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan markazlashgan yangi tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash faoliyati, xususan, transport xavfsizligi, turizm xavfsizligi, ommaviy tadbirlar, favqulodda vaziyatlar sharoitida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash va shu kabi boshqa dolzarb mavzularda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, patrul-post, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, xavfsiz turizm, transport xavfsizligi faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirishga zamin yaratadi.

Jumladan, “Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat” konsepsiyasi asosida bundan buyon har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya mas’ul va javobgar etib belgilandi. Ushbu konsepsiyani samarali ro‘yobga chiqarish uchun Milliy gvardiya xodimlari joylarda o‘tkazilayotgan tezkor va profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Fikrimizcha, konstitutsiyaviy normalarining qisqacha tahlili Konstitutsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlashda inson, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirish hamda qonunni qo‘llash madaniyatining barqaror rivojlanishiga imkon beradi, deb hisoblaymiz.

Bizningcha, Konstitutsiya Milliy gvardiya tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimining rivojlanishi uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan konseptual qoida va prinsiplarni belgilab beradi. Konstitutsiyadan keyingi o‘rinda turuvchi, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat sifatida qonunlar xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini mustahkamlash va ularning huquqni muhofaza qilishdagi rolini oshirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

- Konstitutsiyada “xavfsizlik”, “jamoat xavfsizligini ta’minlash” “jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar ishtiroki” masalalari alohida qoida sifatida kiritilishi kerak. “Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi jamoat xavfsizligini ijtimoiy maqbul bo‘lgan darajada saqlab turishga qaratilgan siyosiy, harbiy, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, ilmiy va boshqa choralardan iborat”ligini huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiq.

- jamoat xavfsizligini ta’minlashning quyidagi asosiy prinsiplari – qonuniylik, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya etish, jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarining boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligini takomillashtirish lozim.

Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirishga, xavfsizlik va jamoat xavfsizligini samarali, ishonchli ta’minlashning darajasi oshirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://lex.uz/uz/docs/5749291 2018 йил 10 январь кунидаги Хавсизлик кенгашининг кенгайтирилган мажлиси // Президент ҳузуридаги Хавфсизлик кенгаши

йиғилиши бўлиб ўтди (kun.uz)

2. А.Мадвалиев, Ўзбек тилининг изоҳли луғати (А.Мадвалийев, Annotated dictionary of the Uzbek language) // “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006- 2008-йиллар //https://www.n.ziyouz.com/books/uz-bek_tilining_izohli_lugati/

3. Федеральный Закон “О безопасности” N 390-ФЗ Российской Федератsии от 28 декабря 2010 года [электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.internet-law.ru/law/inflaw/sec.htm. – Дата обращения: 02.10.2022.

4. Маматқулов С.С. “Ички ишлар идоралари фаолиятини такомиллаштириш Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим омили сифатида” магистирлик дис. -Т., 2011. – 12 б.

5. Закон Республики Казахстан «О национальной безопасности Республики Казахстан» от 6 января 2012 года № 527-IV [электронный ресурс]. – Режим доступа: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31106860. – Дата обращения: 02.10.2022.

6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // lex.uz (murojaat sanasi 09.08.2022 yil)

7. Хабриева, Т.Я. Правовая охрана Конституции. – Казань, 1995. – С. 11.

8. Одилқориев Х.Т. Қонун ижодкорлиги соҳасидаги ҳуқуқий сиёсат: шаклланиши ва амалга оширилиши // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – Тошкент, 2015. – №2. – Б.5. (Б.3-9)

9. Бундай белгилар сирасига Конституцияни қабул қилувчи субъект ҳуқуқий мақоми, уни қабул қилиш ва ўзгартиришнинг ўзига хос тартиби, конституциявий кўрсатмаларнинг таъсисчи, бирламчи хусусияти, олий юридик кучи ва бошқалар кўрсатилади. Бу ҳақда қаранг: Чухвичев Д.В. Законодательная техника. 2-е изд. – М.: Закон и право, Юнити, 2012. – С.62-67.

10. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон

Nurmuhammedova G.B., Nizametdinxodjayev U.R. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarining tartibga solinishi

Maqolada yurtimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning ijtimoiy zarurati, shuningdek, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, jamoat xavfsizligi, islohotlar, huquq, konsepsiya, ta’minlash.

Нурмухаммедова Г.Б., Низаметдинходжаев У.Р. Регулирование вопросов общественной безопасности в Конституции Республики Узбекистан

В статье научно анализируется социальная необходимость проводимых в нашей стране конституционных реформ, а также конституционно-правовые гарантии общественной безопасности в стране.

Ключевые слова: конституция, общественная безопасность, реформы, право, концепция, обеспечение.

Nurmuhammedova G.B., Nizametdinxodjaev U.R. Regulation of public safety issues in the Constitution of the Republic of Uzbekistan

The article scientifically analyzes the social necessity of the constitutional reforms implemented in our country, as well as the constitutional and legal guarantees of public safety in the country.

Key words: constitution, public safety, reforms, law, conctpt, security.

Xomidov Eldor Olimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TA’LIM OLISHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Mamlakatimizda fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini va ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlash davlatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Zero, ta’lim-tarbiyasiz jamiyat va davlatning kelajagini tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’lim olish huquqini ta’minlash, uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash orqaligina jamiyat va davlat taraqqiyotiga hamda xalq farovonligiga erishish mumkin.

Tarixga nazar tashlasak, dunyoda uzoq vaqtlar davomida qonunlarda ta’lim olish huquqi mustahkamlab qo‘yilmagan. Faqatgina XV asrga kelib, dunyoda majburiy boshlang‘ich ta’lim olish huquqi birinchilardan bo‘lib Shotlandiya mamlakatida amalga oshirilgan. Meksika davlati esa 1917 yilda birinchilardan bo‘lib o‘z konstitutsiyasida ta’lim olish huquqini mustahkamlab qo‘ygan[1]. 1918 yilda Rossiya Federatsiyasi RSFSR konstitutsiyasining 17-moddasida ta’lim berish davlatning vazifasi ekanligini belgilaydi. 1936 yilda SSSR konstitutsiyasining 121-moddasida birinchi bo‘lib davlatning majburiyatlari sirasiga kiritilgan.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab mamlakatimizning kelajagini, davlatimiz va jamiyatimizning ijtimoiy qurilishini belgilashda, birinchi navbatda, Konstitutsiyani ishlab chiqish va tasdiqlashda ta’lim olish haqidagi prinsipial masala doim davlatimiz siyosatining e’tibor markazida bo‘ldi.

Keyinchalik bilim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”[2] gi qonunida rivojlantirildi. Jumladan, ushbu qonunning 1-moddasida uning maqsadi fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilganligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi. Unga ko‘ra, ta’lim O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor deb e’lon qilinib, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demok-ratik xarakterda ekanligi; ta’limning uzluk-sizligi va izchilligi; umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi; ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish kabilar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining asosiy xususiyatlaridan biri har kimga jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat’iy nazar, bilim olishda teng huquqlar kafolatlanganligidadir. Shuningdek, boshqa davlatlarning fuqarolari O‘zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaligi, Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilim olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga egaligi ham diqqatga sazovor holatdir.

Qonunda ta’lim turlari sifatida makta-

bgacha ta’lim; umumiy o‘rta ta’lim; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi; oliy ta’lim; oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta’lim amalda bo‘lishi belgilangan.

Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta’lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat’iy nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi.

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi. Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bilim olish huquqi insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari tarkibida alohida ahamiyat kasb etadi (ba’zi davlatlar konstitutsiyasida madaniy huquqlar sirasiga kiritilgan). Masalan, Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyasining 43-moddasi. Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyasining madaniy huquqlar sirasiga kiritilishining asosiy sababi shundaki, ushbu huquq inson, jamiyat va davlatning moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarining asosini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga ko‘ra, “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”[3], deb belgilangan. Mazkur norma konstitutsiyamizning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar bobidan o‘rin olgan.

Shuni ham nazarda tutish lozimki ko‘pgina rivojlangan davlatlarning Konstitutsiyalarida ta’lim olish huquqi insonning tabiiy huquqi sifatida e’tirof etiladi. Jumladan, 1978 yilgi Ispaniya Konstitutsiyasida, 1949 yilgi Germaniya Konstitutsiyasi (asosiy qonuni)da aks etganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur davlatlar bolani ta’lim olishini davlat ta’lim muassasalarida bo‘ladimi yoki xususiy ta’lim muassasalarida bo‘ladimi birday qo‘llab quvvatlaydi. Insonning tabiiy huquqi sifatida tushunilgan ta’lim olish huquqi shaxsga tug‘ilgan vaqtidan boshlab ajralmas sanalib uni boshqa bir shaxsga o‘tkazib yuborish mumkin emasligi nazarda tutiladi. Bunda, insonning ta’lim shaklini erkin tanlashi o‘zining ixtiyorida bo‘ladi. O‘z navbatida insonning ham davlat, ham xususiy ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim olishi kafolatlanishi lozim.

Ta’lim olish huquqi insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqmi yoki madaniy huquqimi degan haqli savol kelib chiqadi. Bu borada xorijiy olimlarning fikri ancha qiziqarli ahamiyatga ega.

A.F.Nozdrachevning fikricha, ta’lim olish huquqi jamiyatning rivojlanishi, globallashuv sharoitida to‘la-to‘kis yashashi uchun muayyan bilim, madaniy ko‘nikma va zaruriy-hayotiy kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish huquqi[4].

Ta’lim olish huquqi fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining nomulkiy huquqlaridan biri sifatida belgilanadi, uni amalga oshirish tenglik, irodaning mustaqilligi va mulkiy mustaqillik tamo-yillariga asoslanadi deb ta’rif beradi T.V.Jukova[5].

Ta’lim huquqiga oid Jukovaning bergan ta’rifi anchagina mushohada qilishga undaydi. Sababi muallif, insonning ta’lim huquqiga sivilistika fani nuqtai nazaridan yondashadi. Muallifning fikrlariga konstitutsiyaviy huquq nazariyasi bo‘yicha qo‘shilib bo‘lmaydi.

Birinchidan, fuqarolik huquqi munosabatlar ishtirokchilarining degan fikriga shaxsan biz qo‘shilmaymiz. Negaki, fuqarolik huquqi ishtirokchilariga davlat, yuridik shaxslar va inson hisoblanadi.

Ikkinchidan ta’lim olish huquqi faqat insonga nisbatan ishlatiladi.

Uchinchidan, ta’lim olish huquqi fuqarolik huquqiy munosabat emas, balki ijtimoiy munosabat bo‘lib, fuqarolik huquqiy munosabatga ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilar o‘rtasida shartnomalardan vujudga keladigan huquq va majburiyatlarga

ega bo‘lish hisoblanadi.

To‘rtinchidan, fuqarolik huquqi ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar tenglik tamoyiliga asoslanadi. Aksariyat konstitutsiyalarda umumiy o‘rta ta’lim olish majburiyligi belgilangan. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolik huquqida munosabat ishtirokchilarining tengligi tamoyiliga zid tushuncha hisoblanadi.

Shu bois T.V.Jukovaning fikrlari ta’lim olish huquqi konstitutsiyaviy huquq fani doirasidagi xususiyatlarini ochib berolmaydi.

Huquqshunos olimlar o‘rtasida insonning ta’lim olish huquqini to‘laligicha o‘zida ifodalaydigan yagona tushunchaning yo‘qligi turli xil fikrlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonunining 5-moddasida ham umumiy tarzda ifodalangan bo‘lib, konstitutsiyaviy huquq doirasida xususiyati ochib berilmagan.

Nazarimizda, ta’lim olish huquqi insonni ma’naviy, ma’rifiy va madaniy jihatdan kamolotga yetaklovchi subyektiv huquqi sanaladi. Shuning uchun konstitutsiyamizda kiritilayotgan o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar zamirida 9-bobini insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari deb emas balkim, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari bobi sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq sanalar edi.

Insonning ushbu huquqi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 26-moddasida, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro Paktning 13 va 14-moddalarida, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 28 va 29 moddalarida mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida aynan insonlarning qaysi davlat fuqarosi bo‘lishidan qat'iy nazar har kimning bilim olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Mazkur sohaga oid tushunchalar 1960 yil 14 dekabr Parijda qabul qilingan va 1962 yil 22 maydan boshlab kuchga kirgan “Ta’limdagi kamsitishlarga qarshi” xalqaro Konvensiyada ham insonlarni ta’lim olishi uchun ta’lim shaklini erkin tanlashi hamda o‘z ona tillarida o‘qish huquqiga egaligi belgilangan. 2020 yilning dekabr oyiga qadar ushbu Konvensiyaga 106 ta davlat qo‘shilgan.

Mamlakatimizda ham ta’lim sohasini rivojlantirish uchun yillik yo‘naltirilayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etmoqda va bu tizimning Davlat budjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Dunyoning boshqa davlatlarida yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 10-12 foizini tashkil etadigan bunday ko‘rsatkichni kamdan-kam uchratish mumkin.

Konstitutsiyamizning 41-moddasida nazarda tutilgan ta’lim olish huquqiga oid norma umumiy xususiyatga ega bo‘lib, ta’lim olish huquqining mazmun-mohiyatini to‘la ochib bera olmagan. Mazkur normani tahlil qiladigan bo‘lsak, unda faqatgina umumiy ta’lim o‘z ifodasini topgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim, xususiy maktablar faoliyati, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’lim masalalari ochiq qolib ketgan. Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy davlat sifatida o‘zining bosh qomusida maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’lim masalalarini konstitutsiyaviy norma sifatida batafsil yoritib berishi lozim.

Ta’kidlash joizki, bunday mazmundagi qoidalar “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 26-moddasida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1975 yil 16 dekabrda qabul qilingan va 1976 yil 3 yanvardan kuchga kirgan “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktining (O‘zbekiston ushbu hujjatga 1995 yil 28 sentabrda qo‘shilgan) 13-moddasida, Germaniya (7-modda), Belarus (49-modda) kabi mamlakatlar Konstitutsiyalarida ham o‘z aksini topgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasini quyidagi tahrirda berish maqsadga muvofiq: “Har bir inson ta’lim olish huquqiga ega.

Maktabgacha bir yillik ta’lim, umumiy ta’lim hamma uchun majburiy, teng va bepul bo‘lishi kafolatlanadi. Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolalarning umumiy ta’lim olishlarini ta’minlaydilar.

Xususiy maktablar ochish huquqi kafolatlanadi. Xususiy maktablar davlat ruxsati bilan ochiladi va qonunlarga to‘liq amal qiladi.

Xususiy maktablar faoliyatini tartibga soluvchi tamoyillar davlat maktablari uchun belgilangan talablarga muvofiq qonun hujjatlarida nazarda tutiladi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

O‘rta maxsus ta’lim hamma uchun teng va qurbi yetadigan darajada bo‘lishi kerak, oliy ta’lim esa har kimning qobiliyatiga asoslangan holda hamma uchun bir xil bo‘lishi kerak”.

Normaning ushbu mazmunda berilishi nafaqat umumiy ta’limni, balki ta’limning barcha shakllarini aniq va mukammal ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Право на образование // Большой юридический словарь ОНЛАЙН. Дата обращения: 15 января 2009. Архивировано 1 апреля 2008 года.

2. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги ЎРҚ-637-сон Қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.

3. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2021

4. Матюшева Т.Н. Право на образование – конституционно защищаемая духовная ценность // Современное право. – 2008. – № 12. – С. 33-38.

5. Жукова Т.В. О праве на образование как о личном неиму 1 мили 2”34

Xomidov E.O. Ta’lim olishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va uni takomillashtirish masalalari

Ushbu maqolada ta’lim olishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va uni takomillashtirish borasida mualliflik qarashlar ilgari surilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy davlatlarning va milliy qonunchiligimiz tahlil qilingan. Xorijiy huquqshunos olimlarning ta’lim huquqiga oid fikrlari o‘rganilib, milliy qonunchiligimizni takomillashtirishga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim olish huquqi, umumiy o‘rta ta’lim, ijtimoiy munosabatlar, kasb hunar, ta’lim tarbiya.

Хомидов Э.О. Конституционно-правовая база образования и вопросы ее совершенствования

В данной статье излагаются конституционно-правовые основы образования и авторские взгляды на его совершенствование. Он также высоко оценил анализ зарубежных стран и нашего национального законодательства. Были изучены мнения зарубежных ученых-юристов о праве на образование и выдвинуты предложения по совершенствованию нашего национального законодательства.

Ключевые слова: право на образование, общее среднее образование, социальные отношения, профессия, образовательное образование.

Khomidov E.O.Constitutional and legal framework for education and issues of its improvement

In this article, the constitutional and legal framework for education and author's views on its improvement are put forward. He also praised the analysis of foreign countries and our national legislation. The opinions of foreign legal scholars on the right to education were studied and proposals were put forward to improve our national legislation.

Key words: right to education, general secondary education, social relations, profession, educational education.

Kuchkarov Xayrulla Zikirillayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

SUD QARORLARINI QAYTA KO‘RISHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Istiqlolimizning dastlabki kunlaridanoq nihoyatda muhim va mas’uliyatli iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy vazifalar qatorida sud tizimining eski qaramlik holatiga barham berish, uning qudratli, mustaqil, odil bo‘lishiga erishish imkoniyatlari izlandi, buning uchun eng avvalo huquqiy poydevoriga asos solindi. Konstitutsiyamizning 11-moddasida davlat hokimiyati tizimining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linishi ilk bor alohida norma sifatida belgilab qo‘yildi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, mamlakatimizda “sud hokimiyati” iborasi ilk bora 1991 yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Qonunda qayd etilgan bo‘lib, unga qadar mazkur ibora bizning yuridik muomalamizda mavjud emasdi. Chunki, sobiq sovet tuzumi davrida hech qachon sudni hokimiyatning alohida mustaqil tarmog‘i darajasida tan olmagan.

Bugungi kunda mamlakatimizni modernizatsiya va isloh qilish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilayotgan vaziyatda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy islohotlar bevosita xalqimizning farovon yashashi, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishi va himoyalanishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasida yuqori instansiya (apellyatsiya, kassatsiya) sudlarida ishlarni qayta ko‘rish bo‘yicha shikoyat berish, protest kiritishning umumiy xususiyatlari odil sudlov vazifalarini bajarish faqatgina sudlarning asosli, adolatli va qonuniy hukm, ajrim va qarorlar chiqarishi orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga ko‘ra, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi bois, fuqarolarning hukm, ajrim va qarorlar ustidan apellatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat bildirish huquqi ham ularning konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi [1].

Amaldagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida apellyatsiya, kassatsiya instansiya sudlarida ish yuritishda sud hukmi, ajrimi, qarori ustidan shikoyat va protest kiritish huquqiga ega shaxslar, hamda yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish iltimosnoma berish va protest kiritish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar belgilab qo‘yilgan. Mazkur subyektlar jinoyat protsessi subyektlari hisoblanadi. Shu o‘rinda, yuqori instansiya sudlarida ish yuritish tartibi (apellyatsiya, kassatsiya, kassatsiya tartibida takroran ko‘rish, yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish) va o‘ziga xos xususiyatlari hamda mazkur institutda murojaat qiluvchi shaxslarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Apellatsiya va kassatsiya instansiyalarining hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish shakli, tuzilishi, ish yuritish mexanizmi va mazmuni deyarli bir xil. Shikoyatlarni qabul qilish, shikoyatga qo‘yilgan talablar, protest kiritish majburiyati, ish ko‘rish tartibi, yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf qilish va chiqariladigan qarorlarning mazmuni shular jumlasidandir. Hukmni bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslarining yagonaligi ham ularning o‘ziga xos xususiyatidir.

JPKning 497^2-moddasida apellatsiya tartibida mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat berishga, prokuror va uning o‘rinbosari esa, protestiga binoan

amalga oshirilsa, sudning hukmi, ajrimi ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berishga (protest bildirishga) bo‘lgan huquq JPK ning 499-moddasiga ko‘rsatilgan shaxslarga tegishli bo‘lsa, 50912-moddasiga muvofiq, kassatsiya instansiyasi sudi jinoyat ishini O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o‘rinbosarlarining ushbu Kodeksning 497[19]-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra kiritgan kassatsiya protesti bo‘yicha kassatsiya tartibida takroran ko‘radi. Shuningdek, mazkur kodeksning 524-moddasida mahkum, oqlangan shaxs, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari, jabrlanuvchi hamda uning vakili kassatsiya instansiyasi sudiga yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida iltimosnoma berishga hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar protest berishga haqli ekanligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 28 iyulidagi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni 17-moddasiga muvofiq, taraflar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa boshqa shaxslar ham sud hujjati ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Shikoyat hamda protest xususida bir qator fikrlar keltirib o‘tilgan. Jumladan, ayrim manbalarda yozilishicha, shikoyat – bu qaysidir organning yoki mansabdor shaxsning qarori yoki harakatlari bilan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazilganda o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarini tiklash talabi ko‘rsatilgan murojaatdir. [2]

Boshqa yuridik adabiyotlarda, shikoyat – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to‘g‘risidagi talabi bayon etilgan murojaati [3] - degan fikrni uchratish mumkin.

Bizning fikrimizcha, shikoyat – bu fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan fakti va uning qonuniy tarzda tiklanishi haqidagi talabi (da’vosi)dir.

O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 29-avgustdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunining 38-moddasida, qonunga zid bo‘lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi.

O‘quv lug‘atlarda, protest – bu norozilik, qat’iy qarshilik, e’tiroz [4] degan ma’noda berilgan.

Yuridik ensiklopediyada, protest – yangilanish, yangitdan vujudga kelish, amrnoma, qonunchilik buzilishining oldini olishni ta’minlovchi faoliyat [5] – degan ta’rif keltirilgan.

Yana bir boshqa manbalarda yozilishicha, protest – qonunga zid bo‘lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiriladi. [6]

Bizning fikrimizcha, protest – bu qonunga zid bo‘lgan sud qarorlariga nisbatan tegishli vakolatga ega mansabdor shaxs (sud raisi, prokuror) tomonidan xuddi shu sudga yoki yuqori instansiya sudiga kiritadigan yozma talabidir.

B.X.Po‘latov tahlil qilishicha, Jinoyat-protsessual kodeksining 409-modda, 7-qismiga ko‘ra, “prokuror jinoyat ishlarini ko‘rishda yoki hukmni ijro etish bilan bog‘liq masalalarni yoxud ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda boshqa masalalarni hal etishda apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida ishtirok etadi”, 473-moddaning 4-qismida esa, “raislik qiluvchi sudlanuvchiga va boshqa taraflarga hukmning mazmunini, hukm ustidan apellatsiya tartibida shikoyat berish muddati va tartibini tushuntirishni” ko‘zda tutishi qayd etilgan. Shunday ekan, kassatsiya instansiyasi boshqa instansiyaning o‘rnini to‘laligicha qoplamaydi va o‘ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. [7]

U.A.Tuxtasheva va D.D.Vaxabovlar yozishicha, Jinoyat-protsessual kodeksida apellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlarining vakolatlari mazmuni bir-biriga juda yaqin, ular asosan apellatsiya instansiyasi sudi qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlari ustidan berilgan shikoyat va kiritilgan protestlarni ko‘rib chiqishi, kassatsiya instansiya sudi esa qonuniy kuchga kirgan sud

qarorlari ustidan berilgan shikoyat va kiritilgan protestlarini ko‘rib chiqishi bilan farqlanadi. [8]

Huquqni qo‘llash amaliyotida ko‘pincha mahkumning ahvolini og‘irlashtirish maqsadida jazoning yengil tayinlanganligi, uning yetkazilgan zararga nisbatan adolatsiz bo‘lganligi vaji bilan shikoyat beriladi. Biroq, JPKning 500-moddasiga muvofiq, sud jinoyat ishini kassatsiya tartibida qo‘rib chiqish chog‘ida jazoni kuchaytirishga, xuddi shuningdek og‘irroq jinoyatga doir qonunni qo‘llashga haqli emasligi sababli, bunday shikoyat qanoatlantirilmaydi.

Demak, bu o‘rinda, jabrlanuvchi erishishi mumkin bo‘lgan holat faqat hukmni bekor qilib ishni yangitdan sudda ko‘rishga erishishi hisoblanadi. Bu borada N.N.Kovtun haqli ravishda ishni ko‘rishda sudlanuvchi uchun yomon tarafga o‘zgarishiga ya’ni, unga nisbatan jazoni kuchaytirishga yoki og‘irroq jinoyatga doir moddalarni qo‘llash mumkin emasligi bois, ilgari qabul qilingan qarorlardan norozi bo‘lgan jabrlanuvchi qanday nazorat talabi bilan sudga murojaat qilishi mumkinligi oydin emas. Xuddi shunday, jabrlanuvchining shikoyat berishga haqli bo‘lgan subyektlar qatoriga qo‘shishda qonun chiqaruvchi tomonidan qanday tasavvur bilan yondashgani ham noma’lum [9].

Kassatsiya tartibida ishni qayta ko‘rishda mahkumning ahvolini og‘irlashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi haqida qoida mavjud bo‘lsa-da, jabrlanuvchi tomonidan berilgan shikoyat bo‘yicha oqlov hukmi ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Bu o‘rinda, jabrlanuvchi oqlov hukmi asosi yuzasidan shikoyat beradi.

B.Po‘latov yozishicha, sudning asossiz hukm, ajrim va qarorlari, avvalo, prokurorning apellatsiya, kassatsiya protestlari orqali tuzatilib, qonunga moslashtirilishiga erishish lozim. Buning uchun, prokurorlar sud muhokamasiga puxta tayyorlanishlari, sud tergovida faol ishtirok etib, fikr berishlari, sud qarorlarining asosliligi va qonuniyligini o‘z vaqtida mukammal o‘rganib, qunt bilan tekshirishlari, aniqlangan qonun buzilish holatlarini bartaraf etish choralarini ko‘rishlari zarur [10].

Hukm, ajrim yoki qarorni qonunga xilof va asossiz deb topgan tegishli O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlari protest kiritadilar va ishni shu protest bilan birga tegishli kassatsiya instansiyasi sudiga yuboradilar. Ishga doir boshqa materiallar protestga ilova qilinadi. Protest kiritgani haqida manfaatdor shaxslarga, shuningdek, mahkumga, oqlangan shaxsga, ularning himoyachilari yoki qonuniy vakillariga xabar beriladi.

JPKning 497^{16}-moddasida jinoyat ishlarini sud apellatsiya tartibida, 509^{6}-moddasida kassatsiya tartibida, shuningdek, mazkur kodeksning 526-moddasida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to‘g‘risidagi masalani sud tomonidan ko‘rib chiqishda prokurorning ishtirok etishi majburiy hisoblanadi.

A.Tadjibayeva fikricha, yangi ochilgan holatlarni tekshirish prokurorning qattiq nazoratidir. Aksincha bo‘lishi ham mumkin emas, chunki amaliyotda yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash ko‘p uchramaydi. Bu ish yuritishni qaytadan boshlash asoslarini puxta tekshirish va bunday asoslar qay tariqa tekshirilayotganini nazorat qilishni talab etadi. [11]

Darhaqiqat, sud yuqori instansiyada qayta ko‘rib chiqishda ishtirok etuvchi prokuratura organlari mansabdor shaxslari doirasi asosan qonun bo‘yicha sud apellatsiya, kassatsiya, yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to‘g‘risidagi protest kiritish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar doirasidan iborat. Protestni apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarida ko‘rishga prokuror kelmay qolsa, ishni eshitish boshqa kunga qoldiriladi. Kiritilgan protestni ko‘rib chiqish sanasi va vaqti haqida tegishli (apellyatsiya, kassatsiya) instansiyasi prokurorga oldindan xabar beradi deb belgilab qo‘yilgan.

Prokuror shikoyat berilgan yoki protest kiritilgan hukm yoki ajrimning qonuniyligi va asoslanganligi bo‘yicha protsess ishtirokchilarining tushuntirishlaridan so‘ng o‘z xulosasini beradi. Ushbu xulosada prokuror hukm yoki ajrimni kuchda qoldirish, uni

bekor qilish yoki qisman o‘zgartirish to‘g‘risida o‘z fikrini bayon qiladi.

JPKning 497^{9}-moddasiga ko‘ra, sud quyidagicha apellyatsiya shikoyatiga, protestiga o‘zgartish va qo‘shimcha kiritishi mumkin:

apellatsiya shikoyati (protesti) bergan shaxs apellatsiya instansiyasi sudining majlisi boshlanguniga qadar uni o‘zgartirishga yoki yangi vajlar bilan to‘ldirishga haqli;

hukm ustidan shikoyat (protest) berish muddati o‘tganidan keyin berilgan apellatsiya protestiga, jabrlanuvchining yoki uning vakilining apellatsiya shikoyatiga o‘zgartirish yoki qo‘shimcha kiritishda mahkumning ahvolini og‘irlashtirish to‘g‘risida masala, agar bunday talab dastlabki shikoyatda, protestda mavjud bo‘lmasa, qo‘yilishi mumkin emas;

hukm ustidan shikoyat qilish muddati o‘tganidan keyin ishga kirishgan himoyachi apellatsiya shikoyatini o‘zgartirishi yoki uni yangi vajlar bilan to‘ldirishi, ilgari ishda ishtirok etgan himoyachi tomonidan berilgan shikoyat vajlariga qo‘shimcha asoslar taqdim etishi mumkin.

Mazkur kodeksning 509^{2}-modda ko‘ra, kassatsiya shikoyati, protesti bergan shaxs kassatsiya instansiyasi sudi majlisi boshlanguniga qadar uni o‘zgartirishga yoki yangi vajlar bilan to‘ldirishga haqli.

Kassatsiya protestiga o‘zgartish yoki qo‘shimcha kiritish, jabrlanuvchining yoki uning vakilining kassatsiya shikoyatiga o‘zgartish yoki qo‘shimcha kiritish chog‘ida mahkumning ahvolini og‘irlashtirish to‘g‘risidagi masala, agar bunday talab dastlabki kassatsiya shikoyatida, protestida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, qo‘yilishi mumkin emas.

JPK ning 524-moddasiga muvofiq, mahkum, oqlangan shaxs, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari, jabrlanuvchi hamda uning vakili kassatsiya instansiyasi sudiga yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida iltimosnoma berishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar kassatsiya instansiyasi sudiga yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida protest berishga haqli. Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida sudga protest kiritish uchun quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

1) fuqarolarning, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari mansabdor shaxslarining xabarlari;

2) ommaviy axborot vositalarining xabarlari;

3) surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida va sudda boshqa jinoyat ishini ko‘rish jarayonida olingan ma’lumotlar.

Agar sudga kelib tushgan iltimosnomada, protestda ushbu Kodeksning 522-moddasi uchinchi qismining 1-3-bandlarida nazarda tutilgan holatlarni ko‘rsatuvchi ma’lumotlarga havola mavjud bo‘lsa, sudya surishtiruv, tergov organlaridan va suddan tegishli protsessual hujjatlarni talab qilib oladi hamda asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to‘g‘risidagi yoki bunday asoslar mavjud emasligi haqidagi masalani o‘z ajrimi bilan kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

Agar sudga kelib tushgan iltimosnomada ushbu Kodeks 522-moddasi uchinchi qismining 4-bandida ko‘rsatilgan holatlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, sud materiallarni tergov o‘tkazish uchun prokurorga yuborish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Yangi ochilgan holatlar tergov qilinayotganda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga rioya etilgan holda so‘roq, ko‘zdan kechirish, ekspertiza, olib qo‘yish va boshqa tergov harakatlari o‘tkazilishi mumkin. Tergov natijalari bo‘yicha prokuror uch oylik muddatda sudga yangi ochilgan holatlar tufayli sud hukmi, ajrimini qayta ko‘rish uchun asoslar mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida tegishli materiallarni ilova qilgan holda xulosa yuboradi.

Prokurorning xulosasini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sudya o‘z ajrimi bilan yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to‘g‘risidagi yoki bunday

asoslar mavjud emasligi haqidagi masalani kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

Sudyaning yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash uchun asoslar mavjud emasligi to‘g‘risidagi ajrimi manfaatdor shaxslarning shikoyatiga ko‘ra yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yoki uning o‘rinbosarlarining protestiga ko‘ra, materiallarni kassatsiya instansiyasi sudiga ko‘rib chiqish uchun o‘tkazgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki uning o‘rinbosarlari tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Ishni kassatsiya tartibida ko‘rib chiqayotgan sud oldingi hukm yoki ajrim asossiz ravishda bekor qilingan yoki o‘zgartirilgan, apellatsiya, kassatsiya tartibida ishni ko‘rish chog‘ida qonunning buzilishiga yo‘l qo‘yilgan va bu ajrim yoki qarorni to‘g‘ri chiqarishga ta’sir qilgan yoki ta’sir qilishi mumkin edi deb e’tirof etgan taqdirda apellatsiya instansiyasi hukm va ajrimlari yoki kassatsiya instansiyasi sudining ajrimlari va qarorlari ham bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi lozim.

Bizning fikrimizcha, apellatsiya va kassatsiya tartibida ish yuritish tizimini quyidagicha joriy qilinishi lozim:

Birinchi instansiyada ko‘rilgan ishlar viloyat va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqiladi. Bunda:

- hukm qonuniy kirgunga qadar 20 (yigirma) kun mobaynida berilgan shikoyat yoki protest apellatsiya tartibida sudlov hay’atida 3 nafar sudyadan iborat tarkibda to‘liq sud tergovi o‘tkazish vakolati asosida;

- hukm qonuniy kuchga kirgandan so‘ng (20 kundan keyin) berilgan shikoyat yoki protest bo‘yicha sudlov hay’atida kassatsiya tartibida uch nafar sudyadan iborat tarkibda qisman sud tergovi o‘tkazish huquqi asosida;

- apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar bo‘yicha berilgan shikoyat yoki protest bo‘yicha kassatsiya instansiya sudi **taftish (revizion)** tartibida viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlar Rayosatida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, qisman sud tergovi o‘tkazish vakolati asosida ko‘rib chiqiladi.

Apellatsiya yoki kassatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest)larni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atida 3 nafar sudyadan iborat tarkibda, qisman sud tergovi o‘tkazish vakolati asosida ko‘rib chiqiladi.

Bunda apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ishlarni bekor qilib, birinchi instansiyaga yangitdan ko‘rish uchun yuborish vakolati berilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki Bosh prokurori va ularning o‘rinbosarlari protestiga asosan kassatsiya instansiya sudi **taftish (revizion)** tartibida to‘la hajmda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatida qayta ko‘rib, yakuniy qaror qabul qilinadi.

Sud qarorlari ustidan yuqori instansiya sudlarida shikoyat berish huquqiga yoki protest kiritish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar JPKning 497^{2}, 499, 509^{12}, 524-moddalarida ko‘rsatilgan.

Bizningcha, kassatsiya tartibida “takroran ko‘rish uchun” protest kiritish tartibi apellatsiya yoki kassatsiya tartibida protest kiritishga o‘xshamaydi. Kassatsiya tartibida takroran ko‘rish asoslari JPKning 497[19]-moddasida belgilab qo‘yilgan. Uning o‘ziga xos xususiyatini mazkur asoslarning mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Kassatsiya tartibida mansabdor shaxsning protest kiritish yoki kiritmasligi yuzasidan qat’iy bir xulosaga kelingunga qadar quyidagi masalalar oydinlashtirilishi kerak:

1) Chiqarilgan hukm va keyingi sud instansiyalari tomonidan qabul qilingan qarorlar ishdagi dalillarga mos keladimi?

2) Berilgan jazo chorasi sodir qilingan jinoyatning og‘irlik darajasiga va mahkumning shaxsiga mos keladimi?

3) Jinoiy qilmish to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinganmi?

4) Ayblanuvchi, sudlanuvchining himoya huquqi bilan ta’minlash to‘g‘risidagi qonun normalariga rioya qilganmi?

5) Ayblanuvchi, sudlanuvchi jinoyat ishlari yuritilayotgan tilni bilmagan taqdirda

tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi bilan ta’minlanganmi?

6) Jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan tortib, toki kassatsiya tartibida ish yuritilishiga qadar jinoyat protsessual qonun moddalari talablariga rioya qilinganmi, uni jiddiy buzish asoslari yo‘qmi?

7) Jinoyat sudlov ishlarini yuritish davomida tergovchi, prokuror va sud ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning himoyachilari, jabrlanuvchi va boshqa ishtirokchilar tomonidan tushgan shikoyat, iltimos va talabnomalarni qay tariqa hal qilgan yoki qilmaganligini;

8) Jinoyat ishlari dastlabki tergovda, sud muhokamasida to‘la, har tomonlama va xolisona tekshirilganligi hamda mazmunan ko‘rilganligi va hokazo.

JPK ning 509^{12}- moddasiga asosan, kassatsiya instansiyasi sudi jinoyat ishini O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o‘rinbosarlarining ushbu Kodeksning 497^{19}-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra kiritgan kassatsiya protesti bo‘yicha kassatsiya tartibida takroran ko‘radi.

Jinoyat ishini kassatsiya instansiyasi sudida takroran ko‘rish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining ilgari mazkur ishni ko‘rishda ishtirok etmagan besh nafar sudyasidan iborat tarkibda, ushbu bobda nazarda tutilgan qoidalarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Kassatsiya instansiyasi sudi ishni takroran ko‘rib chiqishda:

1) kassatsiya instansiyasi sudining ajrimini bekor qilishga yoki o‘zgartirishga;

2) birinchi, apellatsiya instansiyalari sudining hukmini, ajrimini o‘z kuchida qoldirishga yoki o‘zgartirishga;

3) apellatsiya instansiyasi sudining hukmini, ajrimini bekor qilishga va ishni apellatsiya tartibida yangidan ko‘rish uchun yuborishga;

4) ish bo‘yicha qabul qilingan barcha sud qarorlarini bekor qilishga va ishni tugatishga haqlidir.

L.Rustamov, yuqori turuvchi sud rahbarlari tomonidan protest kiritilishi ham sudyalar mustaqilligini ta’minlashga to‘sqinlik qilishi haqida ta’kidlaydi. Biroq bunday fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Ya’ni, yuqori instansiya sudlarida protest hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishga qaratilgandir.

Bizningcha, qonuniy kuchga kirgan sud qaroriga protest kiritish huquqi berilgan rahbarlar sud emas-ki, shu sababli ular mustaqil bo‘lishi mumkin emas.

Qonunda protest kiritish huquqi berilgan mansabdorlar qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini kassatsiya tartibida takroran ko‘rib chiqishni so‘rab protest keltirsalargina, bu protestni ish bilan birga ko‘rib chiqadigan butunlay boshqa sud paydo bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud raisi, Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tumanda ko‘rilayotgan aniq bir ish uchun sud deb tushunmaslik kerak. Bu shaxslar mas'ul mansabdorlardir.

Zero, sud qarorlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rish konstitutsiyaviy-huquqiy tartibi va uning bosqichlarini protsessual jihatdan mustahkamlanishi mazkur institut oldida turgan vazifalarni samarali hal qilish imkonini bergan bo‘lur edi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda inson huquqlarini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yaratildi. Sud hokimiyati o‘tgan davr mobaynida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi, nufuzi tobora ortmoqda va bundan keyin ham ortib boradi. Bunda albatta, sud qarorlarini qayta ko‘rish instituti o‘ziga xos muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz).

2. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ. / Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – Б. 167.

3. Ўзбек юридик атамаларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Lesson press, 2021. Б. 412.

4. Аликулов Т. Русско-узбекский учебный словарь. 5000 слов. – М.: Рус. яз., 1982. – 191 б.

5. Юридик энциклопедия / Юридик фанлари доктори, профессор У.Таджихоновнинг умумий таҳририда. – Т.: “Шарқ”, 2001. – Б. 371.

6. Ўзбек юридик атамаларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Lesson press, 2021. Б. 282.

7. Пўлатов Б. Назорат қилишнинг муҳим усули. Ҳаёт ва қонун. 2001, № 4. 40 б.

8. Тухташева У.А., Вахабов Д.Д. Суд хатоларини аниқлаш ва бартараф қилиш юзасидан юқори турувчи инстанция судлари ваколатлари. Илмий-амалий рисола. Т., 2016. Б.20-21.

9. Ковтун Н.Н. Уголовный процесс России: учебник –М.: Юрайт, 2003. С.653.

10. Пўлатов Б. Адолат – прокурор назоратининг мезони. Ҳаёт ва қонун. 2002. № 2. 58 б.

11. Таджибаева А.Ю. Судлар фаолиятини рақамлаштириш: жорий ва истиқболдаги вазифалар мавзусидаги ўтказилган халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами // Т.: ТДЮУ, 2022 й. Б. 181.

Kuchkarov X.Z. Sud qarorlarini qayta ko‘rishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

Maqolada sud qarorlarini qayta ko‘rishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari shakllantirilganligi asoslantirib berilgan. Amaldagi qonunchilik hamda tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarini ilmiy tahlil qilish asosida sud qarorlarini qayta ko‘rish institutini takomillashtirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: apellyatsiya, odil sudlov, kassatsiya, yuqori instansiya sudi, shikoyat, protest, hukm, ajrim.

Кучкаров Х.З. Конституционно-правовые основы пересмотра судебных решений

В статье обоснована необходимость формирования конституционно-правовых основ пересмотра судебных решений по уголовным делам. На основе научного анализа действующего законодательства и мнений исследователей разработаны выводы и предложения по совершенствованию института пересмотра судебных решений по уголовным делам.

Ключевые слова: апелляция, правосудие, кассация, вышестоящий суд, жалоба, протест, решение, постановление.

Kuchkarov Kh.Z. Constitutional and legal bases of revision of court decisions

The article substantiates the formation of the constitutional and legal basis for the review of judicial decisions. Based on the current legislation and scientific analysis of the opinions of various researchers, conclusions and proposals were developed to improve the institute of judicial review.

Key words: appeal, justice, cassation, higher court, complaint, protest, decision, resolution.

Muslimov Ikrom,
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

JAZO TAYINLASHDA HISOBGA OLINADIGAN SODIR ETILGAN JINOYATNING XUSUSIYATINI TAVSIFLOVCHI JAZONI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLAR TAHLILI

Jazoni yengillashtiruvchi holatlar ro‘yxati JKning 55-moddasida sanalgan. Biz ularni shartli ravishda uchta guruhga ajratishimiz mumkin:

a) jinoyatning xususiyatini tavsiflovchi jazoni yengillashtiruvchi holatlar: 1) og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish; 2) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish; 3) jabrlanuvchining zo‘rlik, og‘ir haqorat yoki boshqacha g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish; 4) zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish; 5) jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta’siri ostida jinoyat sodir etish;

b) jinoyat sodir etgan shaxsni tavsiflovchi jazoni yengillashtiruvchi holatlar: 1) voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi; 2) homilador ayolning jinoyat sodir etishi;

v) jinoyat sodir etilgandan keyin jinoyatchining xatti-harakatlarini tavsiflovchi jazoni yengillashtiruvchi holatlar: 1) aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish; 2) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish.

Og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish (JK 55-moddasi 1-qismi “v” kichik bandi).

Og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish jazoni yengillashtiruvchi holatlar qatoriga kiritilishiga bunday vaziyatlarda aybdorning xulq-atvoriga muayyan obyektiv omillar kuchli ta’sir ko‘rsatishi sabab bo‘lgan. Mazkur vaziyatning jinoyat-huquqiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u mazkur qilmishni sodir etishga majbur bo‘lgan huquqbuzarning ijtimoiy xavflilik darajasi uncha katta emasligidan dalolat beradi. Boshqacha aytganda, bunda aybdorning ongi va xulq-atvorida turg‘un nuqsonlar bo‘lmaydi. Ko‘rib chiqilayotgan holatlarda jinoyat sodir etgan shaxslar ijtimoiy-psixologik jihatdan tashqi sharoitlar ta’siriga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatining pastligi yoki ularga qarshilik ko‘rsatishga qodir emaslik bilan tavsiflanadi.

M.X.Rustambayev ta’biri bilan aytganda, qonun mazkur ro‘yxatni ochiq qoldirib, bu bilan inson faoliyatining turli-tuman jihatlarini aks ettirgan va shu tufayli ularni qonunda sanab o‘tishning iloji bo‘lmagan boshqa barcha shartlar jinoyatni yengillashtiruvchi sharoit deb e’tirof etilishi kerakligini nazarda tutadi. Shu vaqtning o‘zida jinoyat sodir etishni u yoki bu sharoit ta’sirida jazoni yumshatadigan sharoitlar sirasiga kiritadigan bosh mezon – mazkur sharoitning noqonuniy tajovuzga qo‘l urgan shaxs uchun og‘ir bo‘lgandagina, ular jazo chorasining yengillashtirilishiga olib kelishi mumkin.

Og‘ir shaxsiy sharoitlar deganda, shaxsning kasalligi, kasbi, xizmati va jamoat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar, shuningdek, shaxsning o‘qishi, mehnat faoliyati va turmushida ayrim shaxslarning yomon munosabati kabi holatlar tushuniladi.

Og‘ir oilaviy sharoitlar deganda, oila a’zolaridan birining kasalligi, oilaning vaqtincha og‘ir ahvolga tushib qolishi, oila a’zolaridan birining yomon xulqi va shu kabi oila a’zolari va oilaviy hayot bilan bog‘liq boshqa holatlar tushuniladi.

Boshqa mushkul ahvol deganda, insonning og‘ir shaxsiy va oilaviy holati bilan bog‘liq bo‘lmagan uni mushkul ahvolga tu-

shirib qo‘yadigan vaziyatlar, jumladan, jabrlanuvchi bilan o‘zaro ixtilof, aybdorning boshqa masalalarda g‘am-tashvishlari va omadsizligi tufayli yuzaga keladigan ruhiy iztiroblari hamda shu kabi boshqa holatlar tushuniladi.

Demak, og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar yoki boshqa mushkul ahvol nisbiy tushuncha bo‘lib, sud tomonidan har bir muayyan holatda aniqlanadi. Ayni holda shaxs tashqi (shaxsiy, oilaviy, ishga doir va sh.k.) omillar ta’sirida jinoyatga qo‘l uradi, shu sababli og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar yoki boshqa mushkul ahvol deganda aybdor uchun ko‘ngilsiz holatlar yig‘indisi tushunilishi mumkin. Bunday og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar yoki boshqa mushkul ahvol ta’sirida aybdor chorasiz vaziyatga tushib qoladi va o‘zini tiyib turuvchi omillardan mahrum bo‘ladi.

Ta’kidlash zarurki, ushbu holatlar bilan sodir etilgan jinoyat o‘rtasida sababiy bog‘lanish bo‘lishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, aybdorning o‘z qonunga xilof yoki axloqqa zid xulq-atvori tufayli yuzaga kelgan og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etganlik jazoni yengillashtiruvchi holat deb topilishi mumkin emas. Masalan, alkogolni surunkali ravishda suiiste’mol qilganlik, ishlashni istamaganlik tufayli yuzaga kelgan og‘ir moddiy ahvol ta’sirida o‘g‘rilik sodir etish.

Og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda qasddan jinoyat sodir etilishi ham, ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etilishi ham, o‘zganing mulkiga qarshi jinoyat ham, jinoyat-huquqiy qo‘riqlash boshqa obyektiga qarshi jinoyat ham sodir etilishi mumkin.

Majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish (JK 55-moddasi 1-qismining “v” kichik bandi).

Mazkur jazoni yengillashtiruvchi holatda aybdorning o‘z xatti-harakatlarini tanlash erkinligi jiddiy cheklangan vaziyat nazarda tutiladi. Qonun mazmuniga ko‘ra, bunday vaziyat uchinchi shaxslar faoliyati natijasida yuzaga keladi. Ayni holda uchinchi shaxslar shu yo‘l bilan aybdorning ongi va irodasiga ta’sir o‘tkazadilar, u qonunga xilof qilmish sodir etishiga turtki beradilar, bu aybdorning harakatlarida tuban motivlar va jinoyat sodir etishga qasd yo‘qligidan dalolat beradi.

Moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik darajasi, jismoniy yoki ruhiy majburlash xususiyati sud tomonida.n baholanishi lozim. Aybdor qonunga xilof harakatlarga qarshilik ko‘rsatishga qodir bo‘lgan, lekin biron-bir sabablarga ko‘ra bunday qilmagan holda jinoiy javobgarlik kelib chiqadi, ammo jazo yengillashtirilishi lozim.

Majburlash keng mazmunli tushuncha bo‘lib, mazkur atama yurisprudensiya ilmining ko‘plab tarmoqlarida qo‘llaniladi. Jumladan, davlat boshqaruvida mazkur atama bilan aloqador alohida nazariya – “zo‘rlik nazariyasi” ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, zo‘rlik nazariyasi jamiyatni itoatda saqlab turish yoki kuch bilan o‘zgartirish faoliyatini amalga oshiruvchi ishni izohlaydigan siyosiy ta’limotlardan biri, davlatning vujudga kelishi va amal qilishi to‘g‘risidagi qarashlar, fikr va mulohazalarga asoslangan nazariya hisoblanadi. Mehnat qonunchiligida majburiy mehnat tushunchasi qo‘llaniladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 7-moddasiga ko‘ra, majburiy mehnat, ya’ni biron-bir jazoni qo‘llash bilan tahdid qilish orqali (shu jumladan mehnat intizomini saqlash vositasi tariqasida) ish bajarishga majburlash taqiqlanadi. O‘z navbatida, harbiy yoki muqobil xizmat to‘g‘risidagi qonunlar asosida, favqulodda holat yuz bergan sharoitlarda, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga binoan, qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar majburiy mehnat deb hisoblanmaydi.

Nihoyat, majburlash tushunchasi jinoyat-huquqiy sohaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ammo, JKda uning izohi va mazmuni aks ettirilmagan. Shu yuzasidan olimlar va soha mutaxassislari ushbu tushunchani turlicha talqin qilishadi.

Majburlash muayyan faoliyat yoki xatti-harakatni majburiy tarzda, zo‘rlab

amalga oshirishni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Majburlash so‘zi shaxsning ixtiyoridan tashqarida, uning xohish irodasi, intilishlariga mos kelmaydigan tarzda biror ishni, yumushni, xatti-harakatni bajarishga yo‘naltirishni anglatadi. M.X. Rustambayevning fikricha, majburlash jabrlanuvchining yaqinlariga nisbatan zo‘rlik ishlatish bilan, mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish bilan, sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish bilan qo‘rqitish va boshqa shu kabilarda ifodalanishi mumkin. Boshqa adabiyotlarda ushbu tushunchaga majburlash inson uchun istalmagan vazifalarni bajarishga undash, uni biron-bir tarzda o‘z erkidan mahrum qilishni anglatadi, deb ta’rif beriladi.

Ma’lumki, an’anaviy tarzda jinoyat-huquqiy ma’noda majburlash jismoniy va ruhiy majburlash kabi shakllarga ajratiladi. Jumladan, M.Musayev qayd etganidek, jinoyat huquqida huquqqa xilof majburlash jismoniy yoki ruhiy bo‘lishi mumkin. Bu zo‘rlik bevosita aybdorga yoki uning qarindoshlariga, yaqin kishilari yoxud begonalarga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin.

Jismoniy majburlash – bu boshqa odam organizmiga uning xohishiga zid ravishda unga nisbatan jismoniy zo‘rlik ishlatish yo‘li bilan ijtimoiy xavfli, qonunga xilof, jinoyat sodir etishga majburlovchi bosim o‘tkazish. Jismoniy majburlash urib do‘pposlashda, sog‘liqqa u yoki bu darajada og‘ir shikast yetkazishda, jismoniy og‘riq yetkazishga qaratilgan boshqa harakatlarni zo‘rlik ishlatib sodir etishda yoki shaxs ozodligini cheklashda (qo‘llarini bog‘lab qo‘yish, qo‘lkishan taqish, xonaga qamab qo‘yish va shu kabilarda) ifodalanishi mumkin.

Ruhiy majburlash deganda, jabrlanuvchiga jismoniy zo‘rlik ishlatish, uning mol-mulkini nobud qilish, jabrlanuvchi sir saqlamoqchi bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish bilan tahdid solish va hokazolarni tushunish zarur. Ruhiy tazyiq turi sifatida shaxsning yaqinlariga nisbatan zo‘ravonlik qo‘llanilishi mumkin. Ular o‘g‘irlanishi, jinsiy zo‘rlanishi, jismoniy tazyiqqa uchrashi ham mumkin. M.Rustambayevning qayd etishicha, ruhiy majburlash jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo‘rlik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma’lumotlarni oshkor etish va hokazo bilan qo‘rqitish hisoblanadi.

Ruhiy majburlash aybdorga yoki uning yaqinlariga har qanday shaklda ruhiy bosim o‘tkazishdan iborat. Ayni holda shaxsni qo‘rqitish og‘zaki, yozma tarzda, telefon, telegraf, radio orqali, imo-ishoralar bilan yoki boshqacha usulda amalga oshirilishi mumkin. Ruhiy bosim bevosita manfaatdor shaxsning o‘zi tomonidan ham, u yollagan vositachi tomonidan ham o‘tkazilishi mumkin. Ayni holda shaxs jismoniy zo‘rlik ishlatish, obro‘siga putur yetkazadigan ma’lumotlar tarqatish, qonuniy manfaatlariga boshqacha zarar yetkazish bilan qo‘rqitilishi mumkin. Qo‘rqitish jiddiy va real bo‘lishi lozim. Qo‘rqitishning jiddiyligi uning shaxs xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatishga qodirligida namoyon bo‘ladi va bu uning mazmunidan aniqlanadi. Qo‘rqitish mazmuni aybdorga yoki uning yaqinlariga nisbatan har qanday qonunga xilof harakatlar sodir etish niyatini bildirishda ifodalanishi mumkin. Qo‘rqitishning realligi aybdorda uning amalga oshirilishidan hayiqish uchun asoslar mavjudligini anglatadi.

Demak, **jismoniy majburlash deganda,** insonning boshqa shaxs tomonidan muayyan harakat qilish yoki uni qilmaslikka doir ixtiyoridan, ya’ni o‘zining xulq-atvori, xatti-harakatini boshqarishdan mahrum etishga qaratilgan jismoniy ta’sir (zo‘rlik bilan yopiq xonaga kiritish, urish va zarbalar berish bilan bog‘liq) o‘tkazishi tushuniladi.

Ruhiy majburlash deganda, shaxsni o‘ldirish yoki uning shaxsiga o‘zga jismoniy zo‘rlik o‘tkazish, mulkini yo‘qotish yoki uning biror-bir hayotiy manfaatlarini buzish bilan qo‘rqitib, jinoyat sodir etishga majburlash tushuniladi.

Majburlashning quyidagi belgilarini farqlash mumkin:

birinchidan, majburlash – bu kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning alohida turi bo‘lib, bu yerda ikki muayyan subyekt – majburlovchi va majburlanuvchi mavjud bo‘ladi;

ikkinchidan, majburlash mazmunan

quyidagi harakatlarni bajarishni o‘z ichiga oladi: muayyan harakatlarni bajarish talabini qo‘yish, mazkur talabni bajarish majburiyligini jismoniy yoki ruhiy ta’sir o‘tkazish yo‘li bilan quvvatlash.

uchinchidan, majbur etish bajarilishi (bajarmaslik) lozim bo‘lgan harakatlar (harakatsizlik) majburlanuvchiga aytilgan yoki boshqacha yo‘l bilan yetkazilgan yoxud ularni bajarish (bajarmaslik) zarurligi yuzaga kelgan vaziyatdan anglashilgan holda mavjud bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilgan tahlillardan kelib chiqib, majburlash tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni taklif qilamiz:

“**Majburlash** – bu bir shaxsning boshqa shaxsga muayyan harakatlarni bajarish (bajarmaslik) talabini qo‘yishi va mazkur talabni boshqa shaxsning irodasini so‘ndiruvchi jismoniy va (yoki) ruhiy ta’sir o‘tkazish bilan quvvatlashi.”.

Biz majburlash tushunchasiga berilgan boshqa ta’riflardan farqli ravishda uning qisqa va keng qamrovli ushbu ta’rifini to‘g‘ri, deb hisoblab, JKning Maxsus qismi **“Atamalarning huquqiy ma’nosi”** bo‘limiga **“majburlash”** tushunchasining yuqoridagi taklif etilayotgan mazmunini kiritish zarur deb hisoblaymiz.

Ta’kidlash lozimki, jismoniy yoki ruhiy majburlash jinoyat sodir etgan shaxs uchun jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblanmaydigan zo‘rlik ishlatmasdan (ko‘ndirish, va’da berish, iltimos qilish yo‘li bilan) jinoyat sodir etishga og‘dirishdan farqlanishi lozim.

Ushbu jazoni yengillashtiruvchi holat bo‘yicha tahlil qilinadigan keyingi muhim masala moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish masalasi hisoblanadi.

“Qaramlik” tushunchasining mazmuni xususidagi bu ikki nuqtai nazar mazkur atamaning umume’tirof etilgan talqiniga mos keladi. Bizningcha, “qaramlik”ni, *birinchidan,* ikki yoki undan ortiq shaxslarning umumiy manfaatlari yoki ulardan birining manfaatlari amalga oshirilishini belgilaydigan harakatlari (harakatsizligi) o‘rtasidagi muayyan aloqa sifatida; *ikkinchidan,* o‘z xulq-atvori variantini tanlashda mustaqillik, erkinlik yo‘qligi bilan belgilangan bir shaxsning boshqa shaxsga qaramligi sifatida tushunish zarur.

Shunday qilib, qaramlikdan foydalanish bir shaxsning tegishli aloqalari va (yoki) tobeligidan o‘z manfaatlarida va (yoki) boshqa shaxslarning manfaatlarida foydalanish demakdir. Bunda qaram shaxsning xulq-atvori, qoida tariqasida, “uning ma’naviy qadriyatlari va maqsadlariga zid keladi”.

JKning 55-moddasida jinoyat sodir etishda uchun aybdor shaxsning boshqa bir shaxsga xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan qaramlik holatida bo‘lishi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan.

M.X.Rustambayevning ta’kidlashicha, xizmat jihatidan qaramlik, ya’ni shaxsning boshqa bir shaxsga xizmat yuzasidan bo‘ysunishi – “rahbar-bo‘ysunuvchi xodim” ko‘rinishida (masalan, jabrlanuvchini ishdan bo‘shatish, kam haq to‘lanadigan ishga o‘tkazish, pul mukofotlaridan mahrum qilish, past lavozimga o‘tkazish, yashash manbalaridan mahrum qilish bilan qo‘rqitish va boshqa) bo‘lishi mumkin.

Xizmat jihatidan qaramlik uchun bir shaxs har qanday mulk shaklidagi korxonada, muassasada yoki tashkilotda ish bo‘yicha tobe shaxsga nisbatan intizomiy choralar ko‘rish yoki uni ishdan bo‘shatish vakolatiga ega bo‘lgan boshqa shaxsga bo‘ysunishi asos bo‘ladi. Bu xizmatchining boshliqqa yoki yuqori turuvchi boshqa mansabdor shaxsga bo‘ysunishi bo‘lishi mumkin.

Bizning nazarimizda, tobe shaxs har qanday jinoyat sodir etishi, uning og‘irlik darajasidan qat’i nazar, agar u boshliqning marhamatiga erishish, xizmat pillapoyalaridan ko‘tarilish, mukofot yoki boshqa xil rag‘batlantirish olish istagi bilan belgilangan bo‘lsa, jazoni yengillashtiruvchi holat deb topilishi mumkin emas. Shu bilan bir vaqtda, mushkul vaziyatga tushib qolgan, og‘ir moddiy ahvolda bo‘lgan, qaramog‘ida voyaga yetmagan farzandlari yoki keksa ota-onasi bo‘lgan xodim ishdan bo‘shatilish tahdidi ostida jinoyat sodir etgani jinoyat o‘z og‘irlik darajasiga ko‘ra qaysi toifaga kirishidan qat’i nazar jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qaralishi lozim.

Bizningcha, “xizmat jihatidan qaramlik” va “xizmat mavqeidan foydalanish” tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Xizmat jihatidan qaramlik aybdor va jabrlangan shaxs o‘rtasidagi xizmatga doir munosabatlardan kelib chiqadigan qaramlikni nazarda tutadi. Xizmat mavqeidan foydalanish esa aybdorga xizmat jihatidan qaram bo‘lmagan shaxsga nisbatan amalga oshirilishi ham mumkin. So‘nggi holda tegishli holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda “boshqa jihatlardan qaramlik”dan foydalanish to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin.

Moddiy jihatdan qaramlik, ya’ni aybdor shaxsning boshqa shaxsga moddiy qaramligi yoki yashash uchun mablag‘larning asosiy qismini shu shaxsdan olishi (masalan, to‘lay olmaydigan qarz majburiyatlarining mavjudligi va boshqalar) hisoblanadi.

Moddiy jihatdan qaramlik, eng avvalo, jabrlangan shaxs to‘liq yoki qisman qaramoq ostida (bolalar – ota-ona qaramog‘i ostida, vasiylik ostidagi shaxs – vasiyning qaramog‘i ostida va h.k.) bo‘lishini nazarda tutadi. Ayni holda jabrlanuvchining moddiy mavjudligi asosiy manbai sifatida aybdorning moddiy-moliyaviy mablag‘lari amal qiladi, jabrlangan shaxs o‘zining mustaqil moddiy mavjudligini ta’minlashga qodir bo‘lmaydi.

Ayrim olimlar fikriga ko‘ra, moddiy jihatdan qaramlikni moddiy mablag‘larga amalda muhtojlik va jabrlangan shaxs jinoyatchiga moddiy jihatdan qaram ekanligiga normativ ishora tavsiflaydi. Moddiy jihatdan qaramlikning normativligi mazkur qaramlik qonunga asoslanishi lozimligini anglatadi. Masalan, Oila kodeksiga muvofiq ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berishi shart (96-moddaning birinchi qismi); voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga ta’minot berishlari shart (109-moddaning birinchi qismi); er yoki xotin mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj xotini yoki eriga moddiy yordam berishi shart (117-modda) va hokazo.

Ayrim mualliflar moddiy jihatdan qaramlikning normativligi birinchi darajali ahamiyatga ega emas, deb hisoblaydi. Masalan, A.I.Chuchayev fikriga ko‘ra, moddiy jihatdan qaramlik bir shaxs aybdorning ixtiyoriy roziligiga ko‘ra to‘liq yoki qisman uning qaramog‘ida bo‘lgan holda ham mavjud bo‘ladi.

Bizningcha, bu fikrga qo‘shilish mumkin. *Birinchidan,* jinoyat-huquqiy normada mazkur qaramlik qonunga asoslangan bo‘lishi lozimligi aytilmagan. *Ikkinchidan,* normativlik emas, balki mazkur qaramlikning amalda mavjudligi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ya’ni qaramlik amalda yuzaga kelgan vaziyat, sharoitlar bilan belgilangan bo‘lishi lozim. *Uchinchidan,* qaramlik unga aybdor ojiz holatining o‘ziga xos bir ko‘rinishi sifatida qarash imkonini beradigan darajada jiddiy bo‘lishi lozim. Qaramlikning jiddiyligi o‘z navbatida aybdor bilan tegishli munosabatlarning hayotiy ahamiyati bilan belgilanadi.

“Boshqa jihatlardan qaramlik” deganda L.L.Kruglikov “qarindoshlik yoki erxotinlik munosabatlaridan kelib chiqadigan, qonunga yoki shartnomaga asoslangan” qaramlikni tushunadi. A.G.Knyazev fikriga ko‘ra, “boshqa jihatlardan qaramlik oilaviy, haqiqiy nikoh munosabatlarida, o‘qituvchi va o‘quvchining munosabatida, diniy sekta doirasidagi munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin”. A.I.Chuchayev boshqa jihatlardan qaramlik – bu “mustaqillik, erkinlikning to‘liq yoki qisman yo‘qligi, xizmat, ish yoki o‘qish bo‘yicha tobelikning mavjudligi bilan tavsiflanadigan boshqa har qanday qaramlik (moddiy jihatdan qaramlikdan tashqari)”, deb hisoblaydi. V.B.Xatuyev fikriga ko‘ra, boshqa jihatlardan qaramlik – bu faoliyatning turli sohalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (masalan, sportchining trenerga qaramligi va h.k.) va aybdor jabrlanuvchining taqdiriga boshqacha yo‘l bilan ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladigan boshqa har qanday vaziyat.

Boshqacha tarzdagi qaramlik, ya’ni tegishli xizmat vazifasini egallab turgan shaxsning jabrlanuvchi uchun muhim sanalgan masalalarni hal qilishi natijasida aybdorning ma’lum bir imtiyoz, foyda, ustunlikka erishishi. Bunday qaramlik turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin: masalan, “sportchi ayol – uning murabbiyi”, “gumon

qilinuvchi – tergovchi", "ariza bilan murojaat qilayotgan shaxs – arizani qanoatlantira oladigan shaxs", "aspirant – ilmiy rahbar".

Majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etilgan holda mazkur qaramlik darajasi va u aybdorning harakatlariga qanday ta'sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkinligi hisobga olinishi lozim. Shuni qayd etib o‘tish lozimki, moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik mavjudligi emas, balki undan aybdorni jinoyat sodir etishga majburlaydigan tarzda foydalanilgani jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi.

Jabrlanuvchining zo‘rlik, og‘ir haqorat yoki boshqacha g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish (JK 55-moddasi 1-qismi "d" kichik bandi).

Ushbu jazoni yengillashtiruvchi holatni qo‘llash uchun ikkita shart mavjud bo‘lishi kerak:

1) kuchli ruhiy hayajonlanish jabrlanuvchining zo‘rlik, og‘ir haqorat yoki boshqacha g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan bo‘lishi kerak;

2) aybdor fiziologik effekt, ya'ni kuchli ruhiy hayajon ostida o‘zini o‘zi idora qila olmay yoki sharoitni hisobga olmay qolish holatiga tushgan bo‘lishi kerak.

Bunday holatda aybdor aqli noraso, ya'ni aqldan ozgan bo‘lmaydi, o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatini biladi, shuning uchun ham javobgarlikdan ozod bo‘lmaydi, ammo ushbu holat jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida jazo tayinlashda inobatga olinadi.

Zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish (JK 55-moddasi 1-qismining "e" kichik bandi).

JKda zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chog‘ida zarar yetkazish, buyruqni yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarish, kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar deb hisoblanadi. Ko‘rsatilgan holatlardan birortasining qonuniyligi shartlaridan chetga chiqilgan holda shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi, ammo ushbu holatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topiladi. L.E.Vladimirov ko‘rsatib o‘tganidek, "qonunga xilof qilmishni oqlaydigan, uning jinoiyligini istisno etadigan shartlar buzilgani ushbu holatlar kuchini bartaraf etmaydi, balki faqat alohida jinoyatni paydo qilishi mumkin. Masalan, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqanlik mazkur qilmishni oqlashning huquqiy ahamiyatiga putur yetkazmaydi, balki faqat zaruriy mudofaa doirasidan chetga chiqqanlikdan iborat bo‘lgan boshqa jinoyat e'tirof etilishiga sabab bo‘ladi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish o‘z-o‘zicha jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi, chunki aybdor mazkur vaziyatda o‘zini, boshqa shaxslarni, jamoat yoki davlat manfaatlarini himoya qilishga urinib, hujum qiluvchining qonunga xilof (jinoiy) harakatlarini qaytaradi. Boshqacha qilib aytganda, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etilishi mazkur jinoiy qilmish ma'lum darajada majburiy xususiyatga ega bo‘lgani tufayli jazoning yengillashtirilishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, jabrlanuvchi qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga tajovuz qilar ekan, o‘zini qonun uning hayoti va sog‘lig‘ini himoyasiz qoldiradigan vaziyatga solib qo‘yadi.

Jinoyat qonunida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deganda qasddan sodir etilgan, tajovuzning xususiyati va xavflilik darajasi bilan mos kelmaydigan harakatlar tushuniladi. Tajovuzning xususiyati va xavflilik darajasi u qaysi obyektga qarshi qaratilgan bo‘lsa, shu obyektning ahamiyati, tajovuz usuli, uning faollik darajasi (kuchi va qizg‘inlik darajasi), ishlatilgan hujum qurollari va vositalari, hujumda ishtirok etuvchi shaxslar soni, tajovuz bosqichi (jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, suiqasd qilish, tamom bo‘lgan jinoyat), jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniyati, tajovuz sodir etil-

gan vaqt, joy, uning sharoitlari va shu kabilar bilan belgilanadi.

“Tajovuzning xususiyati” va “tajovuzning xavflilik darajasi” tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda qaraladi. Buning sababi shundaki, mazkur tushunchalar o‘rtasidagi farq ancha shartli xususiyat kasb etadi va faqat jamuljam holda ular mudofaa ekssessining asosiy masalasini – tajovuz qiluvchiga yetkazilgan zarar bilan u himoya qilinayotgan manfaatlarga yetkazishi mumkin bo‘lgan zararning o‘zaro nisbati to‘g‘risidagi masalani yechish imkonini beradi.

Ayni vaqtda, tajovuz va himoya hech qachon bir-biri bilan mos kelmaydi. Qonunda bunday nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkinligi nazarda tutilgan. Xususan, tajovuz qiluvchiga yetkazilgan ziyon u yetkazishni mo‘ljallagan ziyonga nafaqat teng, balki undan ancha katta bo‘lishi mumkin. Qonunda gap faqat me’yordan ortiq nomutanosiblik haqida boradi.

K.I.Popov ta’kidlab o‘tganidek, yetkazilgan ziyon bilan oldi olingan ziyon o‘rtasida mutanosiblik mavjud bo‘lishini talab qilish amalda bir qator hollarda zaruriy mudofaaga qo‘l urishga imkon bermagan bo‘lar edi. Mudofaa choralari bilan tajovuz choralarini yuzaki solishtirish zaruriy natijani bermaydi, chunki bu holda musht tushirganga faqat musht tushirish bilan javob berish mumkin, degan qoida amal qiladi. Mazkur qoida amalda qo‘llash uchun yaroqli mumkin emas. Buning ustiga, shunday tajovuz turlari ham borki (masalan, nomusga tegish), ularga o‘zini o‘zi mudofaa qilayotgan tomon mos ravishda javob bera olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi o‘zining 1996 yil 20 dekabrdagi 39-son “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi qarorida shuni tushuntirganki, sudlar zaruriy mudofaa alomatlari bor yoki yo‘qligi masalasini hal etishda himoyalanish va hujum vositalarini hisobga olishdan tashqari, tajovuzchi tomonidan himoyalanuvchiga tug‘dirilgan xavfning xarakteri, himoyaning kuchi va tajovuzni qaytarish imkoniyatlari, shuningdek, hujum va himoyalanuvchining kuchi nisbatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi ishdagi barcha holatlarini (hujum qiluvchi va himoyalanuvchilarning soni, ularning yoshi, jismoniy quvvati, quroli, joy, vaqt va boshqalar) hisobga olishlari zarur. Agar tajovuz bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, mudofaalanuvchi hujum qiluvchilarning har biriga nisbatan guruhdagi barcha tajovuzchilar harakatining xarakteri va xavflilik darajasiga qarab tegishli himoya choralarini ko‘rishga haqli.

Shunday qilib, muayyan vaziyatda zaruriy mudofaaning asosli chegarasi mavjudligi yoki undan chetga chiqilganini aniqlashda quyidagi holatlar hisobga olinishi lozim:

birinchi – tajovuzning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi (muhofaza qilinayotgan obyekt mavjudligi va uning ahamiyati; yetkazilishi xavfi mavjud bo‘lgan ziyon xususiyati va uning og‘irlik darajasi; tajovuz quroli va vositalari; tajovuz qiluvchining shaxsi – uning jismoniy kuchi, agressivligi darajasi, turmushdagi xulq-atvori va sh.k.);

ikkinchi – tajovuz qiluvchi va mudofaalanuvchi kuchlarining o‘zaro nisbati (ularning jinsi, yoshi, jismoniy kuchi, sog‘lig‘i holati, ishlatilgan qurol yoki mudofaa va tajovuz boshqa vositalari, tajovuz qiluvchilar va mudofaalanuvchilar soni va sh.k.);

uchinchi – tajovuz va mudofaa amalga oshirilgan muayyan shart-sharoitlar (tajovuz va mudofaalanish vaqti, joyi, sharoiti; tajovuz davom etgan vaqt; tajovuz qo‘qqisdan va shitob bilan sodir etilishi darajasi; tajovuz qiluvchi tomonidan mudofaalanuvchiga zo‘rlik ishlatib ta’sir o‘tkazilishi epizodlari soni; mudofaalanuvchining ruhiy hayajonlanishi, qo‘rqishi va o‘zini yo‘qotishi darajasi va sh.k.).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining yuqorida qayd etilgan qaroriga binoan, sudlar zaruriy mudofaa holatini aniq ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bermasa-da, shaxsning yanglishib, shunday tajovuz qilishi mumkin degan taxminiy holatlaridan farqlashlari kerak. Agar hodisa holatlariga ko‘ra, mudofaa choralarini qo‘llagan shaxs o‘zining yanglishganini bilmagan va bilishi ham mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, uning harakatlari zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan

deb hisoblanishi kerak. Agar shaxs tajovuzning aslida yo‘q va xayoliyligini bila turib, ish holatlariga ko‘ra ham uni albatta bilishi mumkin bo‘lgani holda zarar yetkazsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining ehtiyotsizlik orqasida zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan tavsiflanishi lozim.

Shuni qayd etib o‘tish lozimki, qonunda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish qasddan bajariladigan harakat sifatida belgilangan. Binobarin, shaxs ehtiyotsizlik orqasida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqani jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash haqida gapirganda, eng avvalo shuni inobatga olish lozimki, bu mazkur shaxs yangi jinoyatlar sodir etishini to‘xtatish va uni hokimiyat organlariga ushlab berishga qaratilgan ijtimoiy foydali harakat hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga zarar yetkazish, agar bu uni ushlash uchun talab etilgan bo‘lsa, ushlash motivlari va maqsadlari hamda uning natijalari – jinoiy faoliyatga barham berilgani, jinoyatchi jazolangani bilan oqlanadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish chegarasidan chetga chiqish – bu huquqbuzarga ikki holat: tajovuzning xavflilik darajasi va ushlash shart-sharoitlari bilan mos kelmaydigan asossiz zarar yetkazishdir. Tajovuzning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi jinoyat qonuni tegishli moddasining sanksiyasida mazkur jinoyat uchun maksimal jazo muddati yoki miqdori tarzida nazarda tutilgan formal mezon orqali aks ettiriladi. Bu ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash choralari ushlanuvchi sodir etgan jinoyatning og‘irlik darajasi bilan mos kelishi lozimligini anglatadi. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash sharoitlari esa ushlash vaqtida yuzaga kelgan vaziyat holatlari to‘plamiga bog‘liq bo‘ladi. Amalda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash choralari jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi bilan mos kelmaydigan, lekin ushlash shart-sharoitlari bilan mos keladigan vaziyat yuzaga kelishi ham mumkin.

Shunday qilib, agar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga muayyan ziyon yetkazgan qilmish o‘z og‘irlik darajasiga ko‘ra ushlanayotgan shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishning og‘irlik darajasidan baland bo‘lsa va ushlash shart-sharoitlari bunday ziyon yetkazilishini chetlab o‘tishga imkon bergan bo‘lsa, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash uchun zaruriy choralar chegarasidan chetga chiqilgani haqida so‘z yuritish mumkin.

Shu bilan bir vaqtda, agar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs o‘zini ushlovchilarga qarshilik ko‘rsatmayotgan va ulardan qochib yashirinishga harakat qilmayotgan bo‘lsa hamda ushlashni amalga oshirayotgan shaxs hatto qarshilik ko‘rsatayotgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni unga zarar yetkazmasdan ushlash imkoniyatiga ega bo‘lsa (masalan, ushlayotgan shaxslar soni zarar yetkazmasdan ushlash uchun yetarli bo‘lsa), ushlanayotgan shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishning og‘irlik darajasidan qat’i nazar, unga nisbatan har qanday kuch ishlatish (ushlash elementi bo‘lgan ozodlikni cheklashdan tashqari) ruxsat etilmaydi.

Bu yerda yana bir shartni ko‘rsatib o‘tish muhimdir – ko‘rsatilgan holatlar, agar ular JK Maxsus qismi moddasi dispozitsiyasining tarkibiy qismi bo‘lmasa, ya’ni ular imtiyozli jinoyat tarkibi belgilari hisoblanmasa, jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topilishi mumkin. Bunday jinoyat tarkiblariga quyidagilar kiradi: zaruriy mudofaa chegarasidan chet chiqib yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash uchun zarur choralar chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan odam o‘ldirish; zaruriy mudofaa chegarasidan chet chiqib yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash uchun zarur choralar chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan qasddan sog‘liqqa og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir zarar yetkazish.

Jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta’siri ostida jinoyat sodir etish (JK 55-moddasi 1-qismining “i” kichik bandi).

Hozirgi vaqtda jinoyatchilik aksariyat hollarda situatsion xususiyat kasb etadi, jinoyatlar qo‘qqisdan, aybdor bilan jabrlanuvchi o‘rtasidagi nizoli munosabatlar negizida sodir etiladi. Shu sababli, jabrlanuvchining shaxsini, uning xulq-atvorini o‘rganish jinoyat huquqining vazifalaridan biri hisoblanadi. Jinoyatdan jabrlanganni jinoyatchilik sabablaridan biri sifatida o‘rganish bilan kriminologiyada alohida yo‘nalish – viktimologiya shug‘ullanadi. Jinoyat genezisida jabrlanuvchi ba’zan ancha katta rol o‘ynaydi. Shu sababli jinoyat sodir etilishiga olib kelgan nizoli vaziyat yuzaga kelishida jabrlanuvchining aybi chegaralarini aniqlash juda muhim. Bu aybdor shaxs va u sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga baho berishga to‘g‘ri yondashish va unga odilona jazo tayinlash imkonini beradi.

Xulq-atvorning g‘ayriqonuniyligi jabrlanuvchi tomonidan zo‘rlik ishlatish, urib do‘pposlash, xo‘rlash, qattiq haqorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlar hamda huquqbuzarliklar xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa harakatlar sodir etilishini nazarda tutadi. Ayni holda jabrlanuvchi jinoyat huquqi normalarini ham, huquq boshqa sohalarining normalarini ham buzishi mumkin.

Jabrlanuvchining axloqqa zid xulq-atvori huquq normalarini emas, balki odob-axloq normalarini, ya’ni mazkur jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ammo axloqqa zid xulq-atvor tushunchasi nisbiy kategoriyadir. Har bir inson odob-axloq haqida o‘z tasavvuriga ega bo‘ladi. Har bir muayyan vaziyatda jabrlanuvchining xulq-atvorini axloqqa zid yoki zid emas deb topish to‘laligicha sud fikriga, uning odob-axloq haqidagi nuqtai nazariga bog‘liqdir.

Ammo jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori jazoni yengillashtiruvchi holat deb topilishi uchun u jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lishi lozim, ya’ni aybdor tomonidan sodir etilgan jinoyat jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori oqibati bo‘lishi zarur. Bunday xulq-atvor jinoyat sodir etilishi sababi sifatida yakka xususiyatga ega bo‘lishi ham (masalan, qattiq haqorat qilish), surunkali xususiyatga ega bo‘lishi ham (masalan, surunkali ravishda urib do‘pposlash) mumkin.

Jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lgan g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvorini jazoni yengillashtiruvchi holat deb topishda sud har bir muayyan vaziyatda bunday xulq-atvor ta’siriga yo‘liqqan shaxslar o‘z nerv sistemasining tipiga, yoshiga va boshqa omillarga qarab ayni bir vaziyatni turlicha baholashlari mumkinligini hisobga olishi lozim. Shu bilan bir vaqtda, janjal, mushtlashuv, spirtli ichimliklarni birgalikda iste’mol qilish natijasida qilingan haqoratga javoban jinoyat sodir etganlik, bizning nazarimizda, jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qaralishi mumkin emas.

G‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid harakatlar nafaqat aybdorning o‘ziga, balki uchinchi shaxslarga qarshi qaratilgan bo‘lishi ham mumkin, chunki qonunda bu borada hech qanday cheklashlar mavjud emas, aybdor tomonidan sodir etilgan jinoyat esa aynan g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori unga turtki bergan shaxsga qaratilgan bo‘lishi lozim. Agar aybdor tomonidan jinoyat boshqa shaxslarga nisbatan qaratilgan bo‘lsa, qonun mazmuniga ko‘ra, mazkur holatni jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qo‘llash asossiz deb topilishi lozim.

Muhammadiyeva Mohinur Yaxshibayevna,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Akademiyasi doktoranti

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR HOZIRGI VA KELAJAK BARQAROR RIVOJLANISHNING ZARUR YURIDIK ZAMINIDIR

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan insonlar, birinchi navbatda, rahbarlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi, bu qoidalarga butun jamiyat a’zolari qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhitni yaratish g‘oyat muhim va dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mustaqillik, Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, mustaqil mamlakatni demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois yurtimizda istiqlolning ilk kunlaridanoq demokratik yangilanish, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo‘li tanlab olindi.

Har bir inson jamiyatning a’zosi sifatida me’yorlarga tayanish zarurligini anglaganligi tufayli ularga bo‘ysunadi va shu asosda erkinlikka ega bo‘ladi [1].

Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda aynan fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish va uning institutlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishtirokining rivojlanishini **to‘rt asosiy bosqichga** bo‘lish mumkin deb hisoblaymiz.

Birinchi bosqich o‘z ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyati shakllanishining asoslari yaratildi.

Mazkur bosqichda birinchi navbatda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamg‘armalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Bularning barchasi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining institutlari tuzilmasini tashkil etadi va fuqarolarning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni bajarishda faol ishtirokini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi bosqichda (2000-2010 yillar) mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bo‘yicha faol jarayonlar davom ettirildi. Mazkur jarayonlarning tarkibiy unsuri sifatida fuqarolik jamiyati huquqiy asoslarini takomillashtirish va rivojlantirish, uning institutlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishtirokining rivojlanishini ustuvor maqsad sifatida belgiladi.

2005 yil 23 iyundagi “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” № PQ-107 qarorida ta’kidlanganidek, “Fuqarolik jamiyati institutlari — fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahalla), partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamg‘armalari, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi, uning mazmunini belgilaydi. Ular jamiyat a’zolarining fuqarolik faolligi, milliy o‘zligi, siyosiy madaniyati va yuksak ma’naviyatini yuksaltirishga, ularni o‘z-o‘zini hurmat qilish, mustaqil fikrlash, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, o‘z kelajagini o‘z qo‘li bilan qurish istagini tarbiyalashga qaratilgan” [2].

Mazkur bosqichda «BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O‘zbekiston

Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Shu asosda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha boshqarmalar tuzildi.

2010 yil 12 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi e’lon qilindi. Bu Konsepsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning ikkinchi bosqichiga yakun yasadi va ya’ni – **uchinchi bosqichni** (2010-2016 yillar) boshlab berdi.

2010 yil 12 noyabr Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishi hamda ravnaq topishiga alohida e’tibor qaratilib, Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyilni amalda to‘liq tatbiq etishning aniq va ravshan qirralarini belgilab berdi.

Sh.A.Xoliqova asosli ta’kildaganidek mazkur paytda jamoatchilik nazoratining “ex-ante” (hali amalga oshirilmagan, loyihalashtirilayotgan faoliyat ustidan nazorat) va “ex-post” (amalga oshirib bo‘lingan, yakunlangan, tamom bo‘lgan faoliyat ustidan nazorat) turlari shakllangandi [3].

Avvalambor, hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o‘tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish bo‘yicha qo‘shimcha yangiliklar ishlab chiqildi;

O‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalla, mahalla qo‘mitalari va qishloq fuqarolik yig‘inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish muhim vazifa etib belgilandi;

Siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarini qabul qilishdagi roli va ta'siri kuchaytirildi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish hamda uning institutlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishtiroki rivojlanishining bugungi kundagi **to‘rtinchi bosqichi** (2016 yildan bugungi kunlarga qadar) korrupsiyaga qarshi kurashish davlat ahamiyatidagi vazifa sifatida e’tirof etishi bilan bog‘liq.

Ta’kidlash kerakki, 2016 yilda Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi tartibida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga ko‘rib chiqishi uchun kiritilgan **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”**gi Qonunning 2017 yil yanvarida qabul qilinishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi [4]. Va bu tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq tartibotni ta’minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimi yaratildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu Qonun, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni keng ko‘lamda qonun yo‘li bilan tartibga solishga qaratildi. O‘z vaqtida qabul qilingan ushbu qonun hujjati davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining samaradorligini kuchaytirishga, shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohasida bunday holatga to‘liq barham berishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali korrupsiyaning barcha ko‘rinishiga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishga xizmat qilmoqda.

Shuning bilan birga, bugungi kunda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda: birinchi yo‘nalish – huquqiy asoslar yaratildi; ikkinchi yo‘nalish – institutsiyaviy tizimga asos solindi; uchinchi yo‘nalish – ta’lim tizimi shakllantirilib, ma’rifiy-axborot va targ‘ibot ishlari yo‘lga qo‘yildi; to‘rtinchi yo‘nalish – monitoring olib borilmoqda; beshinchi yo‘nalish–xalqaro hamkorlik amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda oxirgi besh yil ichida, fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va maqomini mustahkamlash, jamoatchilik nazorati samaradorligi hamda fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirish bo‘yicha sezilarli islohotlar

amalga oshirilayotganligi alohida e’tirof etiladi. Bugungi kunda respublikada turli sohalarda 9965 NNTlar va ularning 5024 filial va vakolatxonalari ro‘yxatdan o‘tgan, 2200 dan ortiq diniy tashkilotlar va 2000 ga yaqin OAVlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bundan tashqari Respublikada 9349 mahallalar faoliyat yuritmoqda [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 1, 11, 12, 20, 83, 84 maqsadlari bevosita yoki bilvosita mazkur mavzuga bag‘ishlangan. Tegishli maqsadlar mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish, xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish, korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish masalalarini qamrab olgan.

Shunday bo‘lsa-da korrupsiya jinoyatlarining oldini olish va ularga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda yechimini kutayotgan muammolar hamda foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjud.

Xususan korrupsiyaga qarshi kurashda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar yo‘q emas va ular quyidagilar deb hisoblaymiz.

- faktlari bo‘yicha jurnalistik surishtiruv ta'qibdan huquqiy va amaliy jihatdan himoyalanishi masalasi, shu jumladan O‘zbekistonda jurnalist faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni belgilash (1997-yilda O‘zbekistonda “Jurnalistik faoliyat to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Qonunning 14-moddasida jurnalistning materiallari va zarur texnikalarini g‘ayriqonuniy tarzda olib qo‘yish, sha’ni va qadr-qimmatini haqorat qilganlik, uning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga tahdid, zo‘ravonlik yoki tajovuz qilish qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Lekin amaliyotda uni qaysi shaklda javobgarlikka tortish masalasi ochiq qolgan).

Yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklar xorijiy huquqni muhofaza qilish amaliyotida uning oldini olish borasida hamda fuqarolik jamiyati institutlarini korrupsiyaga qarshi kurashishga jalb qilishning qator yo‘nalishlari amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan:

Saylov paytida korrupsiyaga qarshi cheklovlarga rioya etilishini nazorat qilish, siyosat, qonunlar, normalar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga qarshi xabardorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi siyosatni ishlab chiqish, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha milliy harakatlar rejalari va chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat idoralari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, fuqarolarni, shuningdek davlat organlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o‘qitish, malakasini oshirish, boshqa mamlakatlardan NNTlari bilan aloqalarni o‘rnatish, davlat organlarining ochiqligi va oshkoraligini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi birgalikda tadbirlar tashkil etish, davlat xaridlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, sud-huquq tizimi ustidan korrupsiyaga qarshi davlat nazorati, axborot beruvchilarni xabardor qilish va himoya qilish, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni oshirish, davlat miqyosida korrupsiyaga qarshi xalqaro majburiyatlarni bajarishga ko‘maklashish.

Bundan tashqari Germaniyada fuqarolik jamiyatining o‘rni, jamoatchilik nazoratining yuqori darajada bo‘lib, fuqarolarning korrupsion holatlarga nisbatan “ziyrak”ligi baholanadi, bunday jinoyatlarni OAVlari orqali kuzatib borishlari hamda o‘zlari tomonidan ma’lumot bo‘lgan taqdirda, bu kabi jinoyatlarni teledasturlarda yoritilib borilishini talab ham qilishlari mumkin. Shuningdek, OAVlar orqali noqonuniy davlat xarajatlari to‘g‘risida muntazam xabar berib

borilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Bu esa korrupsion jinoyatlarning 25 foizi ichki nazorat orqali, 75 foizi esa chetdan kelgan ma’lumotlarga asoslanib ochilishini ta’minlamoqda.

Serbiyada BMT Taraqqiyot dasturi ko‘magida jurnalistika, siyosatshunoslik. Sotsiologiya fakultetlari talabalari Facebook, Twitter va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda “Ijtimoiy tarmoqdagi korrupsiyaga qarshi jurnalistik surishtiruv” loyihasini amalga oshiradi. Unda davlat tashkilotlaridagi muammolar tahlil qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tashkilotlarga ma'lumotnoma taqdim etiladi.

O‘xshash qoidalar bir qator xorijiy davlatlar, xususan, Armaniston, Avstriya, Gruziya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Ukraina va Serbiya kabi davlatlarning qonunchiligida ham uchraydi. Jumladan GFRda eng e’tiborli tomoni shuki, korrupsion va umuman barcha jinoyatlar haqida berilgan **anonim xabarlar – xabar sifatida qabul qilinadi** va javobgarlikka asos bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib mamlakatimizda ham korrupsion jinoyatlar haqida anonim xabar berish bo‘yicha xalqaro standartlarni inobatga olgan holda, yaqin kelajakda bu kabi tizimning muqobil varianti ishlab chiqish zarur.

Fuqarolik jamiyati va davlat institutlarining, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi muammolarni hal etishda ularning birgalikdagi sa’y-harakatlarini birlashtirish pirovard natijada ijtimoiy barqarorlik va jamoat totuvligini qaror toptirishga xizmat qilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida, fuqarolik jamiyati institutlarini korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

O‘zbekistonda bugun OAV faoliyati to‘laqonli yuritilishi borasida siyosiy iroda mavjud. Buni davlatimiz rahbari doim ta’kidlab kelmoqda. Bugungi kunda shuningdek, keng jamoatchilik takliflari bilan Konstitutsiyamizning 67-moddasiga, ommaviy axborot vositalarining va jurnalistlarning faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yilishi kutilmoqda [6].

Shu bilan birga O‘zbekistonda qator qonunlarda jurnalistlarning bosimlar va tahdidlardan himoyalanishi qayd etilgan bo‘lsa-da, **kodekslarda bunga nisbatan javobgarlik kiritilmagan.**

Yuqorida keltirilgan tashabbusni qo‘llab quvvatlagan holda uni takomillashtirish taklif etiladi. O‘ylashimizcha jurnalistning korrupsiya va boshqa g‘ayriijtimoiy holatlarni fosh etishda kasbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilishni oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining **1977-moddasi “Jurnalistning kasbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoxud unga nisbatan tazyiq o‘tkazish”** deb nomlangan modda bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

- JPKning 323-moddasi quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilishi taklif etiladi. “Korrupsiyaviy holatlar tayyorlanishi, sodir etilishi yoki sodir etib bo‘lingan jinoyatlar to‘g‘risidagi anonim murojaatlar o‘rnatilgan tartibda o‘rganib chiqiladi va asosli bo‘lganida jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun sabab bo‘ladi”.

Xulosa o‘tkazilgan tahlillar asosida korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratining samaradorligi, birinchidan, fuqarolik jamiyati vakillarining kasbiy tayyorgarligi va vijdonlilik darajasidan; ikkinchidan, davlat organlari, shuningdek, davlat muassasalari faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlarning to‘liq va ishonchli ekanligini ta’minlashdan; uchinchidan, nazorat organlari, eng avvalo, prokuratura faoliyati samaradorligidan korrupsiya huquqbuzarliklari to‘g‘risida hisobotlarni o‘z ichiga olgan fuqarolar va jamoat birlashmalarining murojaatlarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari Konstitutsiyaviy islohotlar hozirgi va kelajak barqaror rivojlanishning zarur yuridik zaminidir. Shunday ekan mamlakat konstitutsiyasini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga asosli takliflar asosida hissa qo‘shish har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.10.2018 й., 03/18/498/2051-сон
2. Қаранг: https://lex.uz/docs/1711869
3. Холиқова Ш.А. Давлат ҳокимияти фаолияти устидан жамоатчилик назоратини такомиллаштириш масалалари. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати.-Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси. 2021.Б.32.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 1-сон, 2-модда.
5. Қаранг: https://moqqv.uz/
6. https://kun.uz/news/2022/10/03/jurnalistlar-faoliyatiga-tosqinlik-javobgarlikka-sabab-bolishi-konstitutsiyaga-kiritilmoqda

Muhammadiyeva M.Y. Konstitutsiyaviy islohotlar hozirgi va kelajak barqaror rivojlanishning zarur yuridik zaminidir

Maqolada yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqligi ta'riflangan. Hamda O‘zbekistonda aynan fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish va uning institutlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishtirokining Konstitutsiya va qonunlar asosida rivojlangan bosqichlari tahlil qilindi. Shuningdek maqolada fuqarolik jamiyati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar keltirilib uning yechimiga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosala va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘z va iboralar: Konstitutsiya, mamlakatimiz taraqqiyoti, fuqarolik jamiyati, boshqaruvida eng muhim huquqiy hujjat, asosli takliflar, Germaniya AQSh, Kanada, Avstraliya, Serbiya davlatlarning qonunchiligida, jamoatchilik xavfsizligi, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalar, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

Мухаммадиева М.Я. Конституционные реформы – необходимая правовая основа настоящего и будущего устойчивого развития

В статье эффект масштабных реформ, проводимых в нашей стране, основной залог мира и развития напрямую связан с обеспечением Конституции и законности. Также были проанализированы этапы сложившихся в Узбекистане на основе Конституции и законов создания и развития основ гражданского общества и участия его институтов в борьбе с коррупцией. Также в статье представлены факторы, препятствующие формированию активной гражданской позиции в борьбе с коррупцией со стороны гражданского общества, выдвинуты научно-теоретические выводы и предложения, направленные на ее решение.

Ключевые слова: Конституция, важнейший правовой документ в развитии нашей страны, гражданского общества, управления, разумных предложений, в законодательстве Германии, США, Канады, Австралии, Сербии, общественной безопасности, политических партий, массовых движений, профсоюзов, общественные объединения и общественные фонды, негосударственные некоммерческие организации, формирующие гражданскую позицию.

Mukhamadieva M.Y. Constitutional reforms are a necessary legal ground for pre-

sent and future sustainable development

In the article, the effect of large-scale reforms implemented in our country, the main guarantee of peace and development is directly related to ensuring the Constitution and the rule of law. Also, the stages developed in Uzbekistan on the basis of the Constitution and laws of the creation and development of the foundations of civil society and the participation of its institutions in the fight against corruption were analyzed. Also, in the article, the factors hindering the formation of an active civil position in the fight against corruption by the civil society are presented, scientific-theoretical conclusions and proposals aimed at its solution are put forward.

Key words: The Constitution, the most important legal document in the development of our country, civil society, management, reasonable proposals, in the legislation of Germany, the USA, Canada, Australia, Serbia, public safety, political parties, mass movements, trade unions, public associations and public funds, non-governmental non-profit organizations, forming a civil position

Таджиева Мухлиса Музаффаровна,
ответственная сотрудница Конституционного суда
Республики Узбекистан

НОРМЫ-ПРИНЦИПЫ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

История становления нашего государства берет свое начало в далекие 90-е годы, и именно тогда была заложена основа нашей независимости – Консти-туция независимой Республики Узбекистан.

В соответствии с концепцией конституционализма цель принятия конституции заключается в том, чтобы *установить пределы осуществления государственной власти, ограничить ее определенными рамками, не допустить произвола при ее осуществлении* как в отношениях отдельных ветвей власти друг с другом, так и по отношению к человеческой личности.

Конституционализм означает, что основные правила эффективного осуществления государственной власти и защиты индивидуальных прав человека должны быть стабильными и предска-зуемыми и не должны быть легко изменяемыми. Это очень важно для легитимности конституционного строя [1].

8 декабря 1992 года, ровно 30 лет назад наше государство принял Основной закон, защищающий и оберегающий интересы граждан.

Конституция Республики Узбекистан является высший нормативно-правовой акт действующий на территории Республики Узбекистана. Конституция была принята 8 декабря 1992 года и в тот же самый судьбаносный день вступила в силу, тем самым установив президентскую республику. Если обратим внимание на историю нашей Коституции, первая редакция Конституции была опубликована в номере 247 газеты «Народное слово» 15 декабря 1992 года.

О необходимости разработки новой Конституции было заявлено еще на II сессии, которая состоялась 20 июня 1990 года и на которой была принята «Декларация о суверенитете». Сессия приняла постановление о создании комиссии по подготовке проекта Конституции из 64 человек во главе с первым Президентом Узбекистана Исламом Каримовым. В состав комиссии вошли депутаты Верховного Совета, представители Каракалпакстана и областей, учёные и специалисты. Конституционная комиссия почти 2,5 года непокладая рук, бессонными ночами трудилась над созданием Конституции Республики Узбекистан. На заседании Конституционной комиссии, которое прошло 12 апреля 1991 года, была создана рабочая группа из 32 человек — ведущих специалистов и ученых. Для подготовки разделов Конституции было создано 6 небольших групп из 50 человек.

Провозглашение государственной независимости Узбекистана 31 августа 1991 года и принятие Закона «Об основах государственной независимости Республики Узбекистан», придание этому закону статуса конституционного, еще больше усилили ответственность Конституционной комиссии. Стоит отметить тот факт, что при разработке проекта Конституции была изучена мировая практика конституционного развития, учтены успехи, достигнутые в мире в области прав человека, демократии и законодательства.

При разработке проекта Конституции были учтены очень многие факторы: исторические, национальные и культурные особенности страны, демографические и природные условия, наконец, что особенно важно, интересы различных социальных классов и групп, боровшихся, за закрепление своих интересов в нормах права.

26 сентября 1992 года проект Конституции Республики Узбекистан был опубликован в прессе для всенародного обсуждения. Обсуждение продолжалось около двух месяцев. Проект с исправлени-

ями, внесенными на основе предложений, высказанных в процессе обсуждения, был опубликован в прессе 26 ноября 1992 года. Во время всенародного обсуждения было внесено более 6 тысяч предложений, которые были приняты комиссией к рассмотрению.

XI сессия Верховного Совета, которая проходила в декабре 1992 года, обсудила вопрос принятия Конституции Республики Узбекистан.

Надо особо подчеркнуть, что при создании проекта новой Конституции мы руководствовались документами Организации Объединённых Наций, Всеобщей Декларацией прав человека, другими актами, признанными международным правом. При этом также творчески использовали конституционную практику таких развитых демократических государств, как Турция, Соединённые Штаты Америки, Япония, Канада, Германия, Франция, Португалия, Италия, Швеция, Испания и таких восточных стран, как Индия, Пакистан, Египет.

На сессии депутаты внесли в проект около 80 изменений, дополнений и уточнений. Таким образом, 8 декабря 1992 года Конституция Республики Узбекистан была принята. В тот же день первый президент Республики Ислам Каримов подписал законы «О принятии Конституции Республики Узбекистан», «Об объявлении Дня принятия Конституции Республики Узбекистан всенародным праздником», «О порядке введения в действие Конституции Республики Узбекистан». Конституция Узбекистана прошла экспертизу специалистов Организации Объединён-ных Наций, Совета по безопасности и сотрудничеству в Европе, учёных, юристов США, Великобритании, Франции и многих других стран, она закрепила основополагающие положения демок-ратии.

Структура Конституция Республики Узбекистан состоит из Преамбулы, 6 разделов, 26 глав, разделённых на 128 статей.

Если сравнить, большинство европейских конституций содержат примерно от 100 до 200 статей, но сильно различаются по объему и детализации норм и, конечно, имеют очень разную степень значимости. Объемный и наце-ленный на регулирование конституционный текст больше напоминает обычное законодательство и более подвержен внесению поправок. Некоторые европейские конституции различаются в зависимости от их принадлежности к категориям, каждая из которых имеет свой порог внесения поправок: первая включает конституции, закрепляющие главным образом самые основные правила и принципы, которые очень трудно изменить; вторая охватывает конституции, которые содержат детализированные правила деятельности государственных органов, изменяются в упрощенном порядке.

Один из главных юридических признаков конституции — ее верховенство. В случае коллизии нормы конституции и нормы любого иного законодательного акта преиму-щественную силу всегда имеет норма конституции. Согласно ст.ст.15,16 Конституции Республики Узбекистан в Республике Узбекистан признается безусловное верховенство Конституции и законов Республики Узбекистан. Государство, его органы, должностные лица, общественные объединения, граждане действуют в соответствии с Конституцией и законами.

Ни одно из положений настоящей Конституции не может толковаться в ущерб правам и интересам Республики Узбекистан.

Ни один закон или иной нормативно-правовой акт не может противоречить нормам и принципам Конституции.

Конституция Республики Узбекистан имеет высшую юридическую силу и применяется на всей территории Республики Узбекистан.

Конституция — это основной закон государства. Обусловлено это не только верховенством данного нормативно-правового акта в общей системе правовых источников, это связано также с тем, что

именно в конституции фиксируются основные права и свободы, принципы общественного и государственного устройства.

Конституция Республики Узбекистан – основа всей правовой системы государства, поскольку ряд норм являются основополагающими для различных отраслей права: гражданского, административного, финансового, трудового и др.

Согласно статьи 13 Конституции Республики Узбекистан демократия в Республике Узбекистан базируется на общечеловеческих принципах, согласно которым высшей ценностью является человек, его жизнь, свобода, честь, достоинство и другие неотъемлемые права.

Данная конституционная норма стала решающим условием появления особой системы правовых норм, которые призваны были утвердить как высшие ценности свободу индивида, права и свободы человека и подчинить этим высшим ценностям порядок формирования, организацию и осуществление государственной власти.

Специфика Конституции Республики Узбекистан заключается прежде всего в том, что *оно регулирует отношения между человеком, обществом и государством.* Отношения, которые складываются в процессе осуществления и в связи с осуществлением государственной власти. Нормы Конституции призваны обеспечить взаимодействие этих трех слагаемых, определив одновременно те ценности и приоритеты, которые предопределяют реальную конституционно-правовую практику.

Еще один особенностью Конституции является сложная процедура внесения поправок. Изменения в Конституцию Республики Узбекистан вносятся законом, принятым большинством, не менее чем двумя третями от общего числа соответственно депутатов Законодательной палаты и членов Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан, или референдумом Республики Узбекистан. Олий Мажлис Республики Узбекистан может принять закон об изменениях и поправках к Конституции в течение шести месяцев после внесения соответствующего предложения с учетом его широкого обсуждения. Если Олий Мажлис Республики Узбекистан отклонил предложение об изменении Конституции, оно может быть возобновлено не ранее чем через год.

Конституции являются «средствами предварительного сдерживания или самоограничения, созданными политическими органами вцелях защиты от собственных неразумных решений, как вполне предсказуемой тенденции» (Elster) [2].

В то же время было отмечено, что «конституции представляютсобой цепи, которыми люди связывают себя, находясь в здравом уме,чтобы в будущем избежать самоубийственных действий в моменты-помутнения рассудка» (Stockton) и что «конституция это галстук, отрезвляющий того, кто пьян» (Hayek). Довольно широко используется метафора о том, как Улисс приказал своим сподвижникам привязатьего к мачте, чтобы его не искусили песни сирен [3]. Таким же образомобщество, приняв жесткие конституции, «привязывает себя к мачте»,чтобы не поддаться искушениям краткосрочных политических выгод и страстей.

В Конституции Республики Узбекистан важное место занимают *нормы-принципы,* конкретное содержание которых необязательно и не всегда детально раскрывается в нормативном акте. Среди таких принципов фигурирует признание человека, его прав и свобод высшей ценностью, приверженность правам человека, верность идеалам демократии и социальной справедливости, приоритет общепризнанных норм международного права, стремление обеспечению достойную жизнь гражданам, создание гуманного демократического правового государства, построение и функционирование механизма власти на основе принципа разделения властей, провозглашение демократического характера государства; народовластие, политический плюрализм; равноправие всех форм собственно-

сти и др.

Высшей ценностью является человек, его жизнь, свобода, честь, достоинство и другие неотъемлемые права (статья 13).

Это единственная высшая конституционная ценность, все остальные ценности такой конституционной оценки не получили и, следовательно, располагаются по отношению к ней на более низкой ступени и не могут ей противоречить.

Узбекистан — демократическая республика (статья 1). Конституция провозглашает демократический политический режим, то есть установление власти народа, гарантии реализации прав и свобод человека и гражданина, разделение власти на законодательную, исполнительную и судебную, идеологическое и политическое многообразие, многопартийность. Показателем демократичности является проведение выборов в представительные органы государственной власти. Выборы осуществляются на основе всеобщего равного прямого избирательного права при тайном голосовании. Выдвижение кандидатов на выборные должности происходит на альтернативной основе.

Социальная справедливость *(Статья 14. Государство строит свою деятельность на принципах социальной справедливости).*

Социальная справедливость может пониматься как распределение плодов экономического роста на основе принципов справедливости и сострадания [4]. Хотя понимание социальной справедливости различается, как минимум 3 общих элемента присутствуют в современных теориях: обязанность государства распределять определённые жизненно важные блага (такие как экономические, социальные и культурные права), защита человеческого достоинства и продвижение равных возможностей для каждого [5].

Приоритет общепризнанных норм международного права (Преамбула)

Под общепризнанными принципами международного права следует понимать основополагающие императивные нормы международного права, принимаемые и признаваемые международным сообществом государств в целом, отклонение от которых недопустимо [6].

Судья Высшего Арбитражного Суда Российской Федерации, профессор Т.Н.Нешатаева выделяет ряд признаков, устоявшихся характеристик общепризнанных принципов международного права: 1) эти принципы являются признанными всеми или почти всеми государствами; 2) принципы носят характер сверхимперативных норм, или норм jus cogens, имеющих высшую юридическую силу;

3) общепризнанные принципы международного права регулируют как частные, так и публичные отношения;

4) нарушение любого из общепризнанных принципов международного права является основанием применения санкций международно-правового характера (вплоть до вооруженных) [7].

Правовое государство (Преамбула)

Данное понятие подразумевает четкую и предсказуемую правовую систему, при который каждый гражданин имеет право на достойное, равноправное и разумное отношение в соответствии с законом со стороны всех лиц, обладающих властью, а также имеет возможность оспорить их решения в независимых и беспристрастных судах в рамках справедливого судебного разбирательства.

Элементы правового государства: 1) Законность, включающая в себя транспарентный, подотчетный и демократический процесс законотворчества; 2) Правовая определенность; 3) Запрет произвола; 4) Доступ к правосудию в независимых и беспристрастных судах, включая судебный контроль над административными актами; 5) Уважение прав человека; 6) Недискриминация и равенство перед законом.

Политический и идеологический плюрализм *(Статья 12. В Республике Уз-*

бекистан общественная жизнь развивается на основе многообразия политических институтов, идеологий и мнений. Никакая идеология не может устанавливаться в качестве государственной).

Политический и идеологический плюрализм – возможность свободного существования в обществе различных политических взглядов, школ, идеологий, политических партий и организаций с неодинаковыми целями и программами.

Политический и идеологический плюрализм – закономерное следствие таких конституционных прав и свобод человека и гражданина, как свобода мысли и слова, свобода совести, прав на объединение.

Вместе с тем понятно и очевидно, что такого рода нормы-принципы требуют своей последующей конкретизации в последующем законодательстве, которое развивает и дополняет конституционные нормы.

Использованная литература

1. Венецианская комиссия о конституциях, конституционных поправках и конституционном правосудии: сборник аналитических материалов Венецианской комиссии Совета Европы / сост. Т.Я. Хабриева, Р.А. Курбанов, В.И. Лафитский; под ред. Т.Я. Хабриевой. — М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации, 2016. — С.25.

2. Ulysses and the Sirens, Cambridge University Press, 1984 и Ulysses Unbound. Studies in Rationality, Precommittment and Constraints. Cambridge University Press, 2000.

3. Ulysses and the Sirens, Cambridge University Press, 1984 и Ulysses Unbound. Studies in Rationality, Precommittment and Constraints. Cambridge University Press, 2000.

4. Social Justice in an Open World: The Role of the United Nations", The International Forum for Social Development, Department of Economic and Social Affairs, Division for Social Policy and Development, ST/ESA/305

5. Pérez-Garzón, Carlos Andrés. Unveiling the Meaning of Social Justice in Colombia (англ.) // Mexican Law Review (англ.)рус. : journal. — 2018. — 14 January (vol. 10, no. 2). — P. 27—66. — ISSN 2448-5306. Архивировано 29 марта 2018 года.

6. О применении судами общей юрисдикции общепризнанных принципов и норм международного права и международных договоров Российской Федерации: постановление Пленума Верховного Суда Российской Федерации, 10 окт. 2003 г., N 5 // КонсультантПлюс. Россия: Судебная практика. [Электронный ресурс].

7. Нешатаева Т.Н. Суд и общепризнанные принципы и нормы международного права / Т.Н.Нешатаева // Вестник Высшего Арбитражного Суда Российской Федерации. - 2004. - N 3.

Xo‘jamberdiyev Farrux Komilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATIDA KONSTITUTSIYA NORMALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish sohasiga alohida ahamiyat berilmoqda. “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish”[16] ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining huquqiy asoslarini takomillashtirishni ilmiy tadqiq etish zarurligini taqozo etmoqda.

Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyatini tartibga soluvchi, normativ-huquqiy hujjatlarning pog‘onali mutanosibligiga muvofiq qonunchilik tizimida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy ta’minlashni o‘zida mujassam etgan qonun hujjatlari tizimida konstitutsiyaviy normalar o‘ziga yarasha alohida o‘rin va ahamiyat kasb etib quyidagilarga namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, Konstitutsiyaning Asosiy qonun sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tizimidagi ustuvor o‘rin egallashi, avvalambor, Konstitutsiyamizning o‘zida, xususan, uning 15-moddasidagi O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinishi hamda 16-moddasi ikkinchi qismidagi birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi qoida mazmunidan kelib chiqadi[1].

“Darhaqiqat Konstitutsiyada jamiyat rivojlanishining bosh strategiyasi, ustuvor yo‘nalishlari, davlat umumiy va huquqiy siyosatining mazmun-mohiyati o‘zining qonuniy ifodasini topadi. Konstitutsiya jamiyat siyosiy yetukligining, ma’rifiy-huquqiy saviyasining, turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar muvozanatining natijasi, mahsulidir” [2].

Konstitutsiyani aksar hollarda davlatning Asosiy Qonuni deb atab, uning huquqiy tartibga solish tizimida alohida o‘rin tutishiga e’tibor qaratadilar. Konstitutsiya zamonaviy huquqiy davlatning yuridik hayotini belgilab beruvchi huquqiy tizimning o‘ziga xos o‘zagi, poydevori, hisoblanadi. Konstitutsiya normativ-huquqiy hujjat sifatida zamonaviy demokratik davlatning huquqiy tizimida alohida o‘rin tutadi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan yaratilish texnikasining o‘ziga xos xususiyatlari hamda o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan belgilar majmui bilan farqlanadi[3].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq norma O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari berilgan 93-moddasining 19-bandida aks etgan bo‘lib, unga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etishi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritishi mumkin[1]. Vaholanki ushbu norma jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan holatlarda fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, huquq va erkinliklarini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Konstitutsiya doirasida o‘z vakolatlarini amalga oshirishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, butun qonun hujjatlari, shu jumladan harbiy qonun hujjatlari shakllanishida ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tartibga solishga oid normalarni shartli ikki guruhga bo‘lish mumkin: umumiy normalar va maxsus normalar. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatiga oid umumiy konstitutsiyaviy normalarga (o‘ndan ortiq) davlat organlari jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligi, hamda uning manfaatlariga xizmat qilishi (2-modda), davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida (Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatining asosiy prinsipi ham qonuniylik hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari talablariga og‘ishmay rioya etgan holda jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish[4]ga qaratilgan) amalga oshirishi (14-modda), umuminsoniy prinsiplarga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi (13-modda) (Milliy gvardiyaning o‘z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish prinsipi[4]ga asosan amalga oshirishi), Konstitutsiya va qonunlarning (xususan, fuqaro muhofazasi sohasidagi qonun hujjatlarining) ustunligi so‘zsiz tan olinishi, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar o‘z faoliyatlarida qonunlarga (shu jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunlarga ham) rioya etishlari (15-modda) kabilarni kiritishimiz mumkin. Shu singari barcha sohalar, shu jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga ham taalluqli konstitutsiyaviy qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 22, 23, 25 va 52-moddalari mazmunidan ham anglash mumkin[1].

Ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy tusdagi konstitutsiyaviy normalarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda garchand, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan bo‘lsa-da, ushbu normalar jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonun hujjatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muhim qoidalarni belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi asosiy maxsus qoidalar ham mustahkamlangan hamda Asosiy qonunimizning 3, 33, 35, 43, 57, 64, 70, 78, 93, 98, 125 va 126-moddalari mazmunida keltirib o‘tilgan[1]. Unda Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatining elementlarini o‘zida mujassam etgan normalar ifodalangan, xususan, davlat chegarasi va hududining daxlsizligi(3-modda, 2-qism), fuqarolarning miting, yig‘ilish va namoyishlar o‘tkazish bilan bog‘liq siyosiy huquqlarini ta’minlash (33-modda), har bir shaxsning vakolatli davlat organiga murojaat qilishi, hamda ularning murojaatlari qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi(35-modda), davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlashi(43-modda), konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish (57-modda), davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlashi (64-modda 2-qism) (Milliy gvardiya tomonidan voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning huquqiy asosi), Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etilishi(70-modda 2-qismi), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi

farmonlarini tasdiqlashi (78-modda 19-bandi), favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat va tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda insonlar xavfsizligini ta’minlash (93-modda, 19-band), davlatning ijro tizimini rivojlantirish (98-modda), aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish hamda mamlakat mudofaasini tashkil etishda ko‘maklashish (125-126-moddalar) kabi faoliyati tartibga solingan.

Shu bilan birga mamlakatimizda qabul qilingan qonunlarda jamoat xavfsizligi tushunchasiga ta’rif berilmagan. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va amaldagi qonun hujjatlarida «xavfsizlik», «jamoat xavfsizligi» kategoriyalari (tushunchalari, atamalari) keng qo‘llaniladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi belgilangan. Shu bilan birga hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

MDHga a’zo ayrim davlatlarning qonunchilik tizimida xavfsizlik sohasidagi munosabatlar alohida «Xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonun orqali tartibga solingan. Jumladan Rossiya Federatsiyasining «Xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunida xavfsizlik - shaxs, jamiyat va davlatning hayot uchun muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati deb ta’rif berilgan[5]. Bunda hayot uchun muhim manfaatlar shaxs, jamiyat va davlatning mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun ishonchli ta’minlaydigan ehtiyojlar yig‘indisi deb tushuncha berilgan. Xavfsizlikning asosiy obyektlariga shaxs uning huquq va erkinliklari, jamiyat uning moddiy va ma’naviy qadriyatlari, davlat va uning konstitutsiyaviy tuzimi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi kiradi[6].

Qozog‘iston Respublikasining «Milliy xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunida jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xavf va tahdidlardan fuqarolarning siyosiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy himoyalangan holati deb ta’rif berilgan[7].

Holbuki, Asosiy Qonunimizning 3, 25, 57 va 125-moddalarida har bir shaxsning daxlsizligi, mamlakatimizning chegara va hududlarining daxlsizligi, uning konstitutsiyaviy tuzumining himoya qilinishi hamda Qurolli Kuchlarning aholining tinch hayoti va xavfsizligi hamda mudofaa salohiyatiga ko‘maklashish bilan bog‘liq normalarning konstitutsiyaviy asoslari belgilab o‘tilgan[1]. Konstitutsiyadagi real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat va epidemiyalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyat yuzaga kelganda davlat rahbarining qarori bilan mamlakatning butun hududi yoki ayrim joylarida favqulodda holat joriy etilishi konstitutsiyaviy mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlarda jamoat xavfsizligiga - jamiyat hayotining xavfsiz sharoiti, ya’ni fuqarolarning daxlsizligi, hayoti va sog‘lig‘ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlari, har qanday davlat va jamoat tuzilmalarining normal faoliyati va hokazolarni ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir deb ta’rif berilgan[8]. Shu bilan birga sharhning Jamoat xavfsizligi va tartibiga qarshi jinoyatlar deb nomlanuvchi bo‘limining Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bobining jami uchdan bir qismida jamoat tartibi, Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar bobining jami 2 ta moddasidan 1 tasida jamoat xavfsizligi jinoyat obyekti sifatida e’tirof etilgan[9]. Bu jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi tushun-chalarining ko‘lamini belgilab olishda mavjud bo‘lgan ba’zi bir muammolarning oqibati bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, tizimlashtirish, shu jumladan, kodifikatsiyalash natijasida yangi qonun hujjati yaratilishi ko‘zda tutiladigan bo‘lsa, u konstitutsiyaviy talablarni kafolatlashga qaratilgan normalarni qamrab olishi lozim bo‘ladi. Ya’ni, “huquq ijodkorligi faoliyati Konstitutsiyani amalga oshirishning huquqiy vositasi hisoblanadi” [10].

Qonunchilik hujjatlarini tizimlash-tirish huquqiy tizim amal qilishining, muntazam rivojlanib borishining sharti

hamda amaldagi qonunchilik hujjatlarini tartibga solish, mantiqiy umumlashtirishning shaklidir[11]. Mavjud qonunchilik hujjatlarini kodeks shaklida tartibga solingan hujjatlar bilan almashtirib borish, qonunlar majmuini yaratish, mamlakat huquqiy klassifikatorini takomillashtirish, shuningdek, qonunchilik resurslaridan foydalanish tizimini zamonaviy global elektron axborot tarmog‘i imkoniyatlari bilan ta’minlashga qaratilgan yaxlit, uzluksiz ilmiy-nazariy hamda amaliy faoliyatdir[12].

Jumladan, Konstitutsiyamizning 43-moddasida “davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi” hamda 23-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi” deya ta’kidlab o‘tilgan. Bundan kelib chiqadiki, fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning o‘zini xavfsiz his qilishlari uchun zamin bo‘lib xizmat qiladigan shaxs va jamoat xavfsizligini ta’minlash, ularning hayoti va sog‘lig‘i, erkinliklari, huquqlari va qonuniy manfaatlarini jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolardan himoya qilishga qaratilgan konseptual yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

B.P. Kondrashovning ta’kidlashicha, “fuqaro va shaxsning jamoat xavfsizligi sohasidagi huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash bo‘yicha huquqiy normalar muhim tartibga soluvchi rol o‘ynaydi” [13]. Shu bois, fuqaro o‘zining huquqiy savodxonligi darajasidan kelib chiqib, huquqlarining buzilishiga oid tegishli huquqiy normani qidirib topa olmasligi mumkin. Fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida fuqarolarning huquqlari va burchlari bilan bog‘liq normalarni qonunchilik tizimida alohida bo‘lim sifatida ajratish maqsadga muvofiq.

Zero, fuqaroning o‘zi izlagan qonunni tez va oson topishiga erishish qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishning eng asosiy maqsadidir[12].

Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish davlat mexanizmi va huquqiy tizim jo‘shqin maromda ishlashining zaruriy shartidir[12]. Shu bois, Konstitutsiyamizda belgilangan jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qonunchilikni tizimlashtirish jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini oqilona yo‘lga qo‘yish uning nazariy va metodologik asoslari hamda mukammal mexanizmini ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 apreldagi PF-6218-son Farmoni[14]ga asosan “2022 – 2025 yillarda normativ-huquqiy hujjatlarni qonunchilik tarmoqlari bo‘yicha tizimlashtirish dasturi” ishlab chiqilgan. Dasturga muvofiq jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish 2025 yil II choragigacha amalga oshirish rejalashtirilgan.

Fikrimizcha, qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishda Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga hamda hokimiyatlarning o‘zaro muvozanati va hamkorligini ta’minlovchi mexanizmning shakllanishiga erishiladi.

To‘rtinchidan, jamiyat rivojlanib borar ekan, turli yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishi bilan birga qonunlar ham, xususan Konstitutsiya ham takomillashib boradi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ijtimoiy davlat prinsipidan kelib chiqib isloh qilinmoqda. Ushbu islohotlarda tom ma’noda Bosh Qomusimizga xalqimiz tashabbusi va takliflari asosida juda katta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Buning natijasi o‘laroq Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi meningkonstitutsiyam.uz sayti orqali umumxalq muhokamasiga qo‘yilgan. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi orqali Konstitutsiyaning 64 ta moddasiga 200 dan ortiq o‘zgartishlar kiritish, 6 ta yangi modda bilan 16 ta yangi norma qo‘shish taklif etilmoqda. E’tiborli jihati, Konstitutsiyaviy

qonun loyihasining 8-qismida keltirib o‘tilgan 20-moddaning 2-qismida “Insonning huquq va erkinliklari faqat qonun bilan va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini, shuningdek, jamoat xavfsizligini va tartibini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin” degan mazmundagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan to‘ldirilgan[15]. Xususan, Loyihaning 12-qismida keltirib o‘tilgan 29-modda quyidagicha mazmunda “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Har kim Internet jahon axborot tarmog‘iga kirish va undan erkin foydalanish huquqiga ega.

Mazkur huquqlarni cheklashga faqat mavjud konstitutsiyaviy tuzumni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini, jamoat xavfsizligini hamda tartibini himoya qilish, shuningdek, davlat siri yoki boshqa sir deb e’tirof etilgan axborot oshkor etilishining oldini olish bilan bog‘liq hollarda, qonun bilan yo‘l qo‘yiladi” [15] belgilangan.

Ma’lumki, mamlakatimiz Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari ifodalangan bo‘lib ularning cheklanishi faqat qonun bilan belgilanishi bilan bog‘liq havolaki normalar mavjud. Holbuki, yuqorida taklif etilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning kiritilishi jamoat xavfsizligi ta’minlanishi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi tahdidlarni samarali va o‘z vaqtida bartaraf etishda, nafaqat Milliy gvardiya balki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatining huquqiy asosi tom poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Fikrimizcha, konstitutsiyaviy normalarining qisqacha tahlili Konstitutsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlashda inson, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirish hamda qonunni qo‘llash madaniyatining barqaror rivojlanishiga imkon beradi, deb hisoblaymiz.

Bizningcha, Konstitutsiya Milliy gvardiya tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimining rivojlanishi uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan konseptual qoida va prinsiplarni belgilab beradi. Konstitutsiyadan keyingi o‘rinda turuvchi, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat sifatida qonunlar xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // lex.uz (murojaat sanasi 09.08.2022 yil)

2. Одилқориев Х.Т. Қонун ижодкорлиги соҳасидаги ҳуқуқий сиёсат: шаклланиши ва амалга оширилиши // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – Тошкент, 2015. – №2. – Б.5. (Б.3-9)

3. Бундай белгилар сирасига Конституцияни қабул қилувчи субъект ҳуқуқий мақоми, уни қабул қилиш ва ўзгартиришнинг ўзига хос тартиби, конституциявий кўрсатмаларнинг таъсисчи, бирламчи хусусияти, олий юридик кучи ва бошқалар кўрсатилади. Бу ҳақда қаранг: Чухвичев Д.В. Законодательная техника. 2-е изд. – М.: Закон и право, Юнити, 2012. – С.62-67.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi” O‘RQ-647- son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 22.08.2022 yil).

5. Федеральный Закон “О безопасности” N 390-ФЗ Российской Федерации от 28 декабря 2010 года [электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.internet-law.ru/law/inflaw/sec.htm. – Дата обращения: 02.10.2022.

6. Маматқулов С.С. “Ички ишлар идоралари фаолиятини такомиллаштириш ўзбекистон республикаси жамоат хавфсизлигини таьминлашнинг муҳим омили сифатида” магистирлик дис. -Т., 2011. – 12 б.

7. Закон Республики Казахстан «О национальной безопасности Республики Казахстан» от 6 января 2012 года № 527-IV [электронный ресурс]. – Режим доступа:

https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31106860. – Дата обращения: 02.10.2022.

8. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. – Т: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – Б. 324.

9. Мухамедов, О.И., Маматкулов С.С. Жамоат хавфсизлиги тушунчасининг мазмун ва моҳияти // Ёш олимларнинг илмий мақолалар тўплами. – Т.: ТДЮИ, 2011. - Б.196.

10. Хабриева, Т.Я. Правовая охрана Конституции. – Казань, 1995. – С. 11.

11. Марченко, М.Н. Проблемы общей теории права и государства/Под. общ. ред. проф. В.С. Нерсесянца.– М., 2008. – С. 347; Теория права / Под. ред. проф. М.Н. Марченко. – М., 1998. – С. 197–198.

12. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T: «Adolat», 2018. – B. 328.

13. Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства её обеспечения. Дис. д-ра юрид. наук: 12.00.02. -М.: РГБ, 2003 (Из фондов Российской Государственной библиотеки).

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 aprel kunidagi “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6218-son Farmoni // lex uz. (murojaat sanasi 04.09.2022 yil).

15. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi // meningkonstitutsiyam.uz (murojaat sanasi 27.08.2022 yil).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

Xo‘jamberdiyev F.K. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida konstitutsiya normalarining o‘rni va ahamiyati

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining O‘zbekistonda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini poymol etilishini oldini olishda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ushbu munosabatlarni tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarining o‘rni o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: normativ-huquqiy hujjat, ijtimoiy adolat, ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofat, konstitutsiyaviy tuzum, mulkiy manfaatlar va boshqalar.

Хужамбердиев Ф.К. Роль и значение конституционных норм в деятельности по обеспечению общественной безопасности Национальной гвардии Республики Узбекистан

В данной статье отражены реформы, проводимые в сфере обеспечения общественного порядка и общественной безопасности Национальной гвардией Республики Узбекистан, защиты прав и свобод граждан, недопущения нарушений их законных интересов, а также норм Конституции Республики Узбекистан в регулировании этих отношений.

Ключевые слова: нормативно-правовой документ, социальная справедливость, общественные беспорядки, стихийное бедствие, конституционный строй, имущественные интересы и др.

Khujamberdiev F.K. The role and significance of constitutional norms in activities to ensure public security of the National guard of the Republic of Uzbekistan

This article reflects the reforms carried out in the field of ensuring public order and public security by the National Guard of the Republic of Uzbekistan, protecting the rights and freedoms of citizens, preventing violations of their legitimate interests, as well as the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in regulating these relations.

Key words: legal document, social justice, civil unrest, natural disaster, constitutional system, property interests and etc.

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktoranti

KONSTITUTSIYA – INSONPARVARLIK AKTLARI ASOSI YOHUD AFV ETISH INSTITUTINI QO‘LLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI

Bugungi kunda dunyoda jinoiy jazolarni liberallashtirish, jinoyatlarni ochish va isbot etishda ilg‘or texnologik yutuqlarni qo‘llash, inson sha’ni va qadr-qimmatini asrashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu sababdan barcha qonunlarning prinsipial asosi sifatida xizmat qiluvchi mamlakatlarning bosh qomusi – Konstitutsiyada bu ijtimoiy munosabatlarni belgilash, hamda mazkur jarayonlarni rivojlanishi munosabati bilan tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritib borish muhim sanaladi.

Konstitutsion islohotlar jarayonida insonparvarlik aktlari va ularning qo‘llanilishi samaradorligi masalasiga alohida e’tibor qaratish lozimligini nafaqat nazariya balki amaliyot ham isbotlab kelmoqda. Bu jarayonlarda harbiy xizmatchilarning jinoyat subyekti sifatida huquq va manfaatlarini himoya qilish, harbiy xizmat bilan bog‘liq jinoyatlarda ayblilik masalasini hal etmay turib jinoyat ishini tugatish institutini kengaytirish, bu masalalarda jinoyat subyektlarini javobgarlik yoki jazoga tortmay turib tarbiyalash, jinoyat yo‘liga adashib kirib qolgan harbiy xizmatchilarga imkoniyat berish singari insonparvarlik prinsipi doirasidagi huquqiy normalarni joriy etish va bu borada tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti yangi bosqichga yuz tutayotgan bir vaqtda, rivoj topib borayotgan o‘lkamiz jamiyati huquqiy ong va huquqiy madaniyat borasida yangi bir davrni boshdan kechirmoqda. Mamlakatimiz erishayotgan yutuqlar dunyo davlatlari tomonidan tan olinishi bilan bir qatorda yurtimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlar qizg‘inlik bilan kuzatib kelinmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizning huquqiy-demokratik davlatlar qatorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, iqtisodiyotning ravnaq topishi, investitsiya va o‘zaro hamkorlik masalalarida ko‘p jihatdan yurtimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida yettita ustuvor yo‘nalishdan biri bo‘lgan, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo‘nalishida **“Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash”** ko‘rsatib o‘tilgan.[1] Mazkur masalalar Yangi O‘zbekistonning huquqiy davlat maqomini mustahkamlash, mamlakatimizdagi har bir shaxsning xususan, harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklari kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Amalda, harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatish O‘zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra amalga oshirilishini inobatga olgan holda ushbu normalarni ish yuritish uchun muvofiqlashtirish va vujudga kelayotgan kollizion holatlarni bartaraf etish lozim bo‘ladi.

JPKning 84-moddasi 1-qismi 2-bandida nazarda tutilgan e’lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo‘lsa jinoyat ishi tugatilishi yoki ish qo‘zg‘atilishi rad etilishi mumkin. Mazkur bandda **afv etish instituti** aks etmaganligi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Shu bilan birga afv etish instituti jinoyat protsessi emas, balki jinoyat huquqi obyekti sifatida qaralishi sababli yetarlicha o‘rganilmagan deb o‘ylaymiz.

Xususan, M.X.Rustambayev “Afv etish amnistiyadan farqli ravishda javobgarlikdan ozod qilishga qaratilmagan. Agar amnistiya

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va mahkumlarga nisbatan umumiy kechirishni qamrab olsa, afv etish esa muayyan bir mahkumni kechirish aktidir.[2]" deydi.

M.X.Rustambayev fikrlariga qo‘shilgan holda shuni e’tirof etish mumkinki, jinoyat qonunchiligida afv etish instituti amnistiya aktini qo‘llash institutiga nisbatan tor yurisdiksiyani o‘zida aks etayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Afv etishning afzallik qismi deya baholanishi lozim bo‘lgan tarafi bu – uning mazkur munosabatlarga individual yondashishidir.

Sh.Gayberdiyev fikriga ko‘ra **afv** – faqat sud hukmi bilan jazo tayinlangan mahkumlarga e’lon qilinadi. **Amnistiya** – jinoyat protsessining istalgan bosqichida – dastlabki tergov, surishtiruv, tergovga qadar tekshiruv va hattoki, jinoyat ishini qo‘zg‘atishgacha bo‘lgan bosqichda ham qo‘llanilishi mumkin. Boshqacha aytganda amnistiyaning afv etishdan farqli xususiyati shundaki, amnistiya keng mazmunga ega bo‘lib, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ham, jinoiy jazodan ham ozod qiladi.[3]

Sh.Gayberdiyevning fikrlari o‘rinli amnistiya aktining yurisdiksiyasi kengroq mazmunga ega, ammo shu bilan birga amnistiya aktini qo‘llash uzoq vaqtni oluvchi jarayon hisoblanadi va ko‘plab tashkiliy masalalarni qamrab oladi. Afv etish instituti bo‘lsa, mazmuniga ko‘ra qabul qilinishi bilan darhol ijro etiladi va buning uchun alohida bosqichlardan o‘tish shart emas. Biroq Sh.Gayberdiyev afv doirasini milliy qonunchiligimiz nuqtai nazaridan tahlil qilgan xolos, jahonda afv etish institutining turli xildagi ko‘rinishlari mavjudligini hisobga olmagan.

Sh.Berdiyevning fikricha, Respublika Prezidentiga shaxsni javobgarlikdan ozod qilish bilan bog‘liq bo‘lgan vakolatning berilishi, davlatga yetkazilgan zararni to‘liq hajmda qoplashga, xuddi shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar bilan sudgacha bo‘lgan bosqichda faol hamkorlik qilishga imkoniyat yaratadi[4]. Bu kabi amaliyot muqaddam Respublikamizda kuzatilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 6 sentabrdagi «Terrorchi guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risida»gi PF-2712-son Farmoni bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur Farmon bilan terrorchi-ekstremistik guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan shaxslarga o‘z qilmishidan pushaymon bo‘lib, javobgarlikdan ozod bo‘lish imkoniyati yaratilgan.

M.X.Rustambayev afv etish, amnistiya kabi o‘zining yuridik tabiatiga ko‘ra sud hujjati hisoblanmasligini va uni amalga oshirish vakolati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra Prezidentga tegishli ekanligini bildirgan[2].

M.X.Rustambayev ham mazkur munosabatlar sud hujjati hisoblanmasligi e’tirof etmoqda, albatta ushbu fikrlar o‘z o‘rniga ko‘ra har ikki institutni jinoyat protsessi o‘zida ifodalashi hamda tartibga solishi lozimligini anglatadi.

K.Mirzajonov ham o‘z tadqiqotlarida afv etish instituti jinoyat protsessual qonunchiligida aks etmaganligi huquq nazariyasi nuqtai nazaridan tushunarsiz ekanligini e’tirof etib, amaliyotdagi muammolardan kelib chiqqan holda afv etish instituti nafaqat jazodan balki javobgarlikdan ozod qilish borasidagi munosabatlarni qamrab olishi lozimligini e’tirof etgan[5].

Shu bilan birga bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 yildagi “Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5542-son Farmoni jinoiy javobgarlikdan ozod etuvchi normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi va o‘z mazmuniga ko‘ra qonunlarda aks etmaganligi bois bir qancha huquqiy kollizion holatlarni keltirib chiqaradi.

Jumladan, mazkur Farmonning 5-bandida komissiyaning ishchi organi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hisoblanishi va shunga ko‘ra 6-bandda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Oliy sud bilan birgalikda taqiqlangan tashkilotlar tar-

kibiga adashib kirib qolgan fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish va jinoiy javobgarlikdan ozod etish mexanizmlarini nazarda tutuvchi Nizom ishlab chiqilgan. Mazkur Farmon va Nizomning talablariga ko‘ra, shaxs aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida shaxsan arz qilib kelsa, qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lsa va tuzalish yo‘liga o‘tgan bo‘lsa;

jinoiy faoliyat va boshqa huquqqa xilof qilmishlarni fosh etishda faol yordam bergan bo‘lsa;

taqiqlangan tashkilotlar safiga aldov yo‘li bilan jalb etilgan bo‘lsa;

taqiqlangan tashkilotlarning g‘oyaviy yoki ma’naviy rahnamosi bo‘lmagan bo‘lsa;

jangovar harakatlarda va qo‘poruvchilik harakatlarini sodir etishda ishtirok etmagan bo‘lsa;

terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida taqiqlangan tashkilotlarda o‘quv, maxsus yoki harbiy tayyorgarlikdan o‘tmagan bo‘lsa;

terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida chiqish yoki harakatlanishni amalga oshirmagan bo‘lsa;

xalqaro terrorizmni moliyalashtirishda ishtirok etmagan bo‘lsa;

terroristik, ekstremistik va boshqa buzg‘unchi g‘oyalar mavjud bo‘lgan materiallarni adashib yoki axborot-kommunikatsiya vositalarida tarqatishga qasd qilmagan va bunday maqsadni ko‘zlamagan holda saqlagan bo‘lsa ularga nisbatan yuritilgan jinoyat ishi harakatdan tugatiladi.

Biroq bunda afv etish institutidan farqli o‘laroq, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish uchun asos sifatida Prezidentning maxsus qarori emas, balki idoralararo komissiyaning xulosasi asosidagi qarori qabul qilinadi va mazkur qaror barcha surishtiruv-tergov idoralari uchun ijro etilishi majburiy hisoblanadi. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi, mazkur idoralararo komissiyaning xulosasi asosidagi qarori biror bir imperativ hujjat hisoblanishi JPKda qayd etilganmi? Albatta yo‘q, bunday hujjatlar surishtiruvchi va tergovchilarga javobgarlikdan ozod qilishi mumkinligi inobatga olish lozimligi belgilanmagan.

Yuqoridagi Farmon asosidagi, terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibi to‘g‘risida Nizomning 4-bandida jinoiy javobgarlikdan ozod etish Komissiyaning tegishli xulosasi asosida dastlabki tergov organlari yoki sud tomonidan amalga oshirilishi;

5-bandida Jinoiy javobgarlikdan ozod etish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasida belgilangan asoslarga ko‘ra jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish yoki ayblilik to‘g‘risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish tarzida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.[6]

Nizomga ko‘ra Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

murojaat qilgan shaxsga nisbatan ehtiyot chorasini o‘zgartirish to‘g‘risida dastlabki tergov organlari yoki sudga yakka tartibdagi topshiriqlarni yuborish;

Tergovga qadar tekshiruv yoki tergov harakatlarining to‘liq emasligi aniqlangan taqdirda, Komissiya dastlabki tergov organi yoki sudga qo‘shimcha tergovga qadar tekshiruv yoki tergov harakatlarini o‘tkazish haqida topshiriq berishga haqli.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risidagi xulosa Komissiya tomonidan darhol tegishli dastlabki tergov organi yoki sudga yuboriladi.

Bunday hollarda dastlabki tergov organi yoki sud Komissiya xulosasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasida belgilangan asoslarga ko‘ra jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish yoxud jinoyat ishini tugatish haqida qaror qabul qiladi hamda bu haqda Komissiyaga ma’lumot taqdim qiladi.[7]

Komissiyaga 2021 yilning 1 yanvar kuniga qadar jami 70 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning 18 tasi farmon talablariga mos kelmagan, 20 tasi komissiyada muhokama qilingan (10 tasi javobgarlikdan ozod etish va 4 tasini rad etish haqida xulosa qilingan, 6 tasi qo‘shimcha o‘rganishga qaytarilgan), 32 tasi qoldiqda qolgan.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan 11 nafar fuqaroni O‘zbekistonga qaytarish, ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish, shu jumladan, ularning bandligini ta’minlashga ko‘maklashishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish haqida topshiriqlar berilgan.[8]

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘lmoqdaki, afv etish institutini javobgarlikdan ozod qilish vakolati bilan to‘ldirish nafaqat amaliyot uchun balki qonun hujjatlaridagi noaniqliklar, hamda kollizion holatlarni oldini olish uchun xizmat qiladi. Binobarin, mazkur idoralararo komissiyaning xulosasi asosidagi topshiriq qarori JPKga ziddir, shuningdek Nizomning 5-bandiga, muvofiq mazkur topshiriq shaklida kelib tushgan hujjat asosida JPKning 84-moddasi 5-qismi 1-bandiga ko‘ra ya’ni qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotgan yoxud vaziyat o‘zgarishi oqibatida bu shaxs ijtimoiy jihatdan xavfli bo‘lmay qolgan deb e’tirof etish asosi bilan jinoyat ishini tugatish bandiga to‘liq muvofiq deb bo‘lmaydi.

2016–2021 yillarda afv etish to‘g‘risida 17 ta Prezident Farmoni qabul qilingan. Ushbu farmonlar asosida afv etilganlarning 2647 nafari jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan. Shundan **1227 nafari** asosiy jazodan to‘liq ozod etilgan bo‘lsa, **990 nafari** muddatidan ilgari shartli ozod etilgan. **430 nafar** shaxsning o‘talmagan jazosi axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirilgan.[9]

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, 2017 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida amnistiya emas, balki afv etish instituti keng doirada qo‘llanila boshlaganligi, hamda bu boradagi ijtimoiy munosabatlar nafaqat jazodan qisman yoki to‘liq ozod etish, sudlanganlikni bekor qilinishini, balki javobgarlikdan ozod qilish masalalarini ham qamrab olishi lozimligini ko‘rsatadi.

Jahon tarixida afv etish institutining qo‘llanilishi nuqtai nazaridan uch turi farqlanadi, ya’ni birinchi turi sifatida shaxsga sud tomonidan hukm e’lon qilingan va mazkur qilmishlar davlatda jinoyat qonun bilan afv etish asosida jazoga tortilmasdan ozod etilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Bunda sud mazkur sudlanuvchiga jazo qo‘llash maqsadga muvofiq emasligini asoslab, afv asosida ozod etish lozimligi bo‘yicha tashabbus bilan Adliya vazirligi orqali Imperatorga chiqishgan [10].

Ikkinchi turi, ko‘plab davlatlarning amaliyotida qo‘llaniluvchi abbolitio, ya’ni jinoiy ta’qib yoki javobgarlikdan ozod etuvchi turi. Ushbu tur afvning tashabbuskorlari mazkur ayblovni ilgari surgan organlarning o‘zlari hisoblanganlar. *Uchinchi turi*, stitutio, ya’ni jazodan to‘liq yoki qisman ozod etish yoki jazoni almashtirish bo‘lib hisoblanadi[11].

Tadqiqotimizda bu boradagi xorijiy davlatlarning tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Jumladan, Germaniya (GFR), Rossiya Federatsiyasi, Estoniya, Gruziya, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va Saudiya Arabistoni [12] kabi davlatlarining JPKlarida afv etish tartibi protsessual normalarda bevosita belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Belarus Respublikasi Prezidentining 1994 yil 3 dekabr hamda 2005 yil 12 oktabrdagi farmonlari bilan qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymonligi munosabati bilan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibi va asoslarida ham nafaqat jazodan balki javobgarlikdan ozod qilishni ham nazarda tutgan.[13]

Tadqiqot doirasida surishtiruvchi-tergovchi hamda amaliyotchi huquqshunoslar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning ko‘pchiligi tomonidan (52%) PF-5542 Farmon talablari bo‘yicha idoralararo komissiyaning xulosasi asosida JPKning 84-moddaning 5-qismi 1-2 bandlari asosida tugatilishi jinoyat-protsessual qonunchilikka xilof ekanligini va mazkur munosabatlarni afv etish instituti doirasiga kiritish lozimligini e’tirof etishdi.[14]

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, JPKning 84-moddasi 1-qismi 2-bandiga afv etish institutini aks etishi ham nazariy ham amaliy jihatdan zarur hisoblanadi, bizningcha jinoyat-protsessual qonunchilikda mazkur asosning nazarda tutmaganligi tushunarsizdir. Albatta afv etish

javobgarlikdan ozod etish masalalari jinoyat huquqi tadqiqot obyekti sanaladi, biroq mazkur asoslarni jinoyat protsessida qo‘llash masalasi dolzarbdir. Fikrimizni quyidagilar bilan asoslashga harakat qilamiz;

Birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 1-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan belgilanadi. Jinoyat ishlarini yuritishning Kodeksda belgilangan tartibi barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari, advokatura, shuningdek fuqarolar uchun yagona hamda majburiy ekanligi, 2-moddasida Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalarida, jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog‘i lozimligi belgilab qo‘yilgan. Shunday bo‘lsada, afv etish instituti o‘z mazmuniga ko‘ra sud tomonidan hukm qilingan shaxslarni jazodan to‘liq yoki qisman ozod etadigan yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtiradigan yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan insonparvarlik akti [15] ekanligi jinoyat-protsessual qonunchiligining tartibga solishi lozim bo‘lgan obyektlari sirasiga kirishi lozimligini ko‘rsatadi. Biroq afv etish tartibi JPKda belgilangan yoki havolaki sifatida bo‘lsa ham biror normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinishi ko‘rsatib o‘tilmagan.

Ikkinchidan, JPKda amnistiya akti qo‘llanilishi, amalga oshirilish va tartibi belgilab qo‘yilgan. Ushbu vakolat sudlarda bo‘lganligi sababli, faqatgina sud ish yurituvi tartibi jinoyat-protsessual qonunchiligining obyekti sifatida qarash fikrimizcha noto‘g‘ridir.

Uchinchidan, huquq nazariyasiga muvofiq, moddiy huquq sifatida Jinoyat kodeksida aks etgan asoslarning ishlash mexanizmi va tartibini protsessual huquq ya’ni jinoyat protsessi belgilashi lozim. Shunga asosan ya’ni moddiy qonun hisoblangan Jinoyat kodeksining 76-moddasida amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish tartibi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo‘shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o‘talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan [16]. Biroq JPKning 5361-moddasida faqatgina mahkumni amnistiya aktiga asosan jazodan ozod qilish tartibi ko‘rsatib o‘tilgan xolos, afv etish asosida mahkumni jazodan ozod qilish tartibi belgilanmagan. Demak, moddiy huquqda ko‘rsatilgan asoslarning protsessual huquqda aks ettirmaganlik holati huquq nazariyasi nuqtai nazaridan ham noto‘g‘ridir.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 yildagi “Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5542-son Farmoni o‘z mazmuniga ko‘ra jinoiy javobgarlikdan ozod qiluvchi normativ-huquqiy hujjat sanalganligi bois, quyida o‘zgartish taklif etilayotgan qonun va qonunosti hujjatlar bilan kollizion holatlarni vujudga keltirayotganligi sababli ushbu hujjatlarga tuzatish kiritish dolzarb sanaladi. Eng avvalo JPKning 84-moddasida Prezident afvi asosida javobgarlikdan ozod etish lozimligini nazarda tutuvchi bandning mavjud emasligi, bu boradagi tergov amaliyotiga noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 10-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 93-moddasida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘rishi qayd etilgan. Konstitutsiyaning 80-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish vakolati sanab o‘tilgan.

Mazkur sanab o‘tilgan konstitutsion normalarni tahlil etadigan bo‘lsak, konstitutsiyaviy huquq subyektlari o‘zaro teng yurisdiksiya ega ekanligi kuzatishimiz mumkin, ya’ni O‘zbekiston xalqi nomidan u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti teng maqomda ish olib borish vakolati nazarda tutilmoqda. Ma’lumki, amnistiya akti ham ana shunday O‘zbekiston xalqi nomidan ko‘riluvchi insonparvarlik akti sirasiga kiradi va yurisdiksiya nuqtai nazaridan kengroq institut sanaladi. Ya’ni amnistiya aktini qo‘llash instituti nafaqat asosiy yoki qo‘shimcha jazolardan ozod qilish, shu bilan birga ma’lum toifali jinoyatlar bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish, tugatish va boshqa jihatlarni qamrab olishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston xalqi nomidan ish ko‘rishda Respublika Oliy Majlisi bilan teng vakolatda ekanligini inobatga olib, afv etish instituti doirasini faqatgina sud tomonidan hukm qilingan shaxslarni jazodan to‘liq yoki qisman ozod etish yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirish yoxud sudlanganlikni olib tashlash bilan chegaralamasdan, afvga asosan ma’lum shaxslarga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish yoki jinoyat ishlarini tugatish vakolatlari kabi amnistiya instituti o‘z ichiga olgan barcha yurisdiksiyani qamrab olish lozim. Shu sababli JPKning ish yuritishni rad etish va tugatish asoslariga amnistiya bilan bir qatorda afv etish institutini ham qo‘shish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq bunga amaliyotda ham zarurat mavjudligi bilan asoslash yuqoridagi fikrlarimizni isboti sanaladi.

Ma’lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Suriya, Iroq va Afg‘onistondagi qurolli to‘qnashuvlar hududlaridan fuqarolarimizni olib kelish bo‘yicha juda katta insonparvarlik tadbirlar, “Mehr” operatsiyalari amalga oshirildi. Bir qancha operatsiya natijasida 2019-2021 yillar davomida jami 435 nafar ayollar va bolalar yurtimizga qaytarildi va ularning jamiyatga moslashib ketishlari uchun zarur sharoitlar yaratildi [17]. Mazkur amalga oshirilgan “Mehr” operatsiyalari natijasida Respublikamizga olib kelingan fuqarolarga muqaddam yuritilgan jinoyat ishlari bo‘yicha qarorlar qabul qilinishi zarurati mavjudligini amaliyot ko‘rsatdi. Sababi mazkur olib kelingan ayollar va bolalarning, ularga nisbatan yuritilgan jinoyat ishlari doirasida HMQOlarga chaqirtirilishi, ularning bu vaqtda reabilitatsiya etilayotgan vaqtga to‘g‘ri kelishi bilan maqsadga nomuvofiqligi ayon bo‘ldi. Albatta mazkur jinoyat ishlari belgilangan tartibda insonparvarlik prinsiplariga amal qilingan holda hal etilgan, biroq yuqorida afv etish instituti doirasining bir tomonlama ekanligini mazkur institut vakolat doirasini kengaytirish zarurati mavjudligini isbotlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilingan holda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

Birinchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 23-bandini quyidagi tahrirda o‘zgartish kiritish maqsadga muvofiq.

93-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti:

23) amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va **afv asosida shaxslarni javobgarlikdan va jazodan ozod etadi**;

Ikkinchi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 68-moddasi quyidagi tahrirda o‘zgartirish lozim.

68-modda. Amnistiya akti yoki afv etish asosida javobgarlikdan ozod qilish.

Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti **yoki afv etish** asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Uchinchi, afv etish tartibi institutini jinoyat-protsessual qonunchiligida aks etishi lozim.

36-modda. Tergovchining vakolatlari

“afv etish to‘g‘risidagi qarorga asosan jinoyat ishni tugatish haqida qaror qabul qilishga” jumlalari bilan to‘ldirish.

38¹-modda. Surishtiruvchining vakolatlari.

“afv etish to‘g‘risidagi qarorga asosan jinoyat ishni tugatish haqida qaror qabul qilishga” jumlalari bilan to‘ldirish.

83 va 84-moddalar birlashtirish taklifi ilgari surilayotganligini sababli quyidagicha tahrirda bayon etish lozim.

83-modda. Jinoyatga oid ishlarni yuritishni rad etish va tugatish asoslari.

Jinoyatga oid ishlar quyidagi hollarda rad etilishi yoki tugatilishi lozim, agar:

7) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o‘tgan bo‘lsa;

8) e’lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo‘lsa, **shuningdek, e’lon qilingan afv etish qarori shaxsga daxldor bo‘lsa;**

351-modda. Dastlabki tergov muddatlari

4-qismi. Ish ayblov xulosasi bilan, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoxud taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risidagi qaror bilan, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan prokurorga topshirilgan kuni yoxud **afv etish to‘g‘risidagi qarorga asosan ishni tugatish haqida qaror chiqarilgan kuni** yoxud ishni tugatish haqida qaror chiqarilgan kuni dastlabki tergov tamomlangan hisoblanadi.

355-modda. Tergovchilar guruhi rahbarining vakolatlari

7) ayblov xulosasini tuzadi yoki tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun ishni sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqaradi va tasdiqlash uchun ularni ish bilan birga prokurorga yuboradi yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish haqida prokurorga taqdimnoma kiritadi yoxud **afv etish to‘g‘risidagi qarorga asosan ishni tugatish haqida qaror** chiqaradi.

372-modda. Dastlabki tergovni tamomlash turlari

Dastlabki tergov jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarish, ayblov xulosasi tuzish, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoki taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqarish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida taqdimnoma tayyorlash yoxud **afv etish haqidagi qarorga asosan ishni tugatish to‘g‘risidagi qaror chiqarish** bilan tamomlanadi.

381^{7}-modda. Surishtiruv yuritish muddati

5-qismi. Ish ayblov dalolatnomasi bilan, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoxud taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risidagi qaror bilan, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan prokurorga topshirilgan kuni yoxud **afv etish to‘g‘risidagi qarorga asosan ishni tugatish haqida qaror chiqarilgan kuni** yoxud ishni tugatish haqida qaror chiqarilgan kuni surishtiruv tamomlangan hisoblanadi.

381^{10}-modda. Surishtiruvni tamomlash turlari

Surishtiruv jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarish, ayblov dalolatnomasi, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoki taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqarish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish yoxud **afv etish to‘g‘risidagi qarorga asosan ishni tugatish** haqida qaror chiqarish sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida taqdimnoma tayyorlash bilan tamomlanadi.

382-modda. Prokurorning vakolatlari

9-qismi. amnistiya aktiga yoki **afv etish to‘g‘risidagi qarorga** asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqida yoxud jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritadi;

536^{2}-modda. Mahkumni afv etish to‘g‘risidagi qarorga asosan jazodan ozod qilish tartibi

Mahkumni **afv etish to‘g‘risidagi qarorga** asosan va ijro etilmagan qo‘shimcha jazodan to‘liq yoki qisman ozod qilish yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki unga tayinlangan jazoning o‘talmay qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Farmoni bilan tasdiqlanadigan Nizom asosida amalga oshiriladi.

To‘rtinchi, 2018 yil 8 may kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5439-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga quyidagicha o‘zgartish kiritish maqsadga muvofiq.

Xususan, Nizomning 2-bandi. Afv etish **jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilishi** yoki mahkumni jazodan to‘liq yoki qisman ozod etadigan yoxud sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtiradigan yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan insonparvarlik akti hisoblanadi.

Afv etish **muayyan shaxsga** yoki mahkumga nisbatan individual tartibda amalga oshiriladi hamda uni oqlaydigan va u tomonidan jinoyat sodir etganlik faktini bartaraf qiladigan holat hisoblanmaydi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z ixtiyoriga ko‘ra istalgan **shaxsni** yoki mahkumni yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsni afv etishi mumkin.

4. Afv etish **O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning surishtiruv va tergov bo‘limlari tomonidan javobgarlikka tortilgan** yoki O‘zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan hukm qilingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

5. Afv etish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Shaxsni javobgarlikdan ozod qilish;

2-bob. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Afv etish masalalari bo‘yicha komissiya faoliyatini tashkil etish

9. Komissiya tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, **Mudofaa vazirligi,** Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va «Nuroniy» jamg‘armasi vakillari kiritiladi.

12. Komissiya majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori, Davlat xavfsizlik xizmati raisi, ichki ishlar, **mudofaa,** adliya hamda mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirlari, ular bo‘lmagan taqdirda o‘rinbosarlari ishtirok etishi mumkin.

3-bob. Afv etish to‘g‘risidagi iltimosnomalarni taqdim etish tartibi

15. Afv etish to‘g‘risidagi iltimosnoma **javobgarlikka tortilgan shaxs,** mahkum yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxs, shuningdek, qonun hujjatlari bilan afv etish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish huquqi berilgan shaxs (organ)lar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yozma shaklda beriladi.

Agar iltimosnoma qonun hujjatlari bilan afv etish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish huquqi berilgan shaxs (organ) tomonidan berilgan bo‘lsa, **javobgarlikka tortilgan shaxs** yoki mahkumning yozma roziligi olinishi shart.

16. Afv etish to‘g‘risidagi iltimosnoma **javobgarlikka tortilgan** yoki sud hukmi qonuniy kuchga kirgandan keyin quyidagi muddatlarda berilishi mumkin:

d) javobgarlikka tortilgan shaxslar, ular jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qaysi toifadagi jinoyatni sodir etganligidan qat’iy nazar Sho‘ba tomonidan ushbu shaxsni javobgarlikka tortish maqsadga muvofiq emas deb topgan taqdirda javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

17. Afv etish to‘g‘risidagi iltimosnoma Sho‘baga:

a) jazoni ijro etish muassasasining ma’muriyati yoki **intizomiy qism qo‘mondonligi yoki** hukmni ijro etuvchi boshqa organ (keyingi o‘rinlarda — muassasa ma’muriyati) orqali;

b) sudlanganlikni olib tashlash **yoki javobgarlikdan ozod qilish** bo‘yicha afv etish to‘g‘risidagi iltimosnoma berilgan hollarda mustaqil ravishda yuboriladi.

6¹-bob. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra **javobgarlikka tortilgan shaxsni,** mahkumni yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsni afv etish tartibi.

34[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **javobgarlikka tortilgan shaxsni,** mahkumning yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsning afv etishni so‘rab yozgan iltimosnomasi mavjud yoki mavjud emasligidan qat’i nazar o‘z tashabbusi bilan istalgan **javobgarlikka tortilgan shaxsni,** mahkumni yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsni afv etishi mumkin.

34[5]. Ishchi guruh Komissiyaning muhokamasiga kiritish uchun hujjatlari ajratib olingan **javobgarlikka tortilgan shaxslar,** mahkumlardan yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan ularga nisbatan afv etish masalasi ko‘rib chiqilishiga e’tirozi yo‘qligi haqida rozilik xatini oladi.

Javobgarlikka tortilgan shaxs, mahkumning yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsning rozilik xatiga mazkur Nizomning 21-bandida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinadi.

Javobgarlikka tortilgan shaxs, mahkum yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxs rozilik xatini yozmagan taqdirda, uning hujjatlari Komissiyaning muhokamasiga kiritilmaydi.

34[6]. Komissiya ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan **javobgarlikka tortilgan shaxslarning,** mahkumlarning yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslarning hujjatlarini muhokama qilib, afv etilishi mumkin bo‘lgan mahkumlar yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslar bo‘yicha bayonnoma qarorini qabul qiladi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taklif kiritadi.

34[7]. Komissiyaning **javobgarlikka tortilgan shaxsni,** mahkumni yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsni afv etishga tavsiya qilishni rad etganligi, **javobgarlikka tortilgan shaxs**ga mahkumga yoki jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsga kelgusida afv etishni so‘rab iltimosnoma bilan murojaat qilishga monelik qilmaydi.

7-bob. Afv etish to‘g‘risidagi qarorning ijrosi

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining afv etish to‘g‘risidagi farmoni ijro qilish uchun:

javobgarlikdan ozod qilingan shaxslarga nisbatan – tegishliligiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasidagi huquqni muhofaza qiluvchi barcha surishtiruv va tergov idoralariga;

Yuqorida nazarda tutilgan o‘zgartish birinchi navbatda insonparvarlik akti sanalgan afv etish institutini samarali rivoj topishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan jinoyat va jinoyat protsessual normalar o‘rtasidagi kollizion holatlarni bartaraf etadi, konstitutsiyamizning takomillashuvchiga, hamda mazkur qonun hujjatlari o‘rtasidagi bog‘liqni mustahkamlaydi va mazkur institutni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga afv etish instituti shaxsning taqdiriga individual yondashishi nuqtai nazaridan, davlat va jamiyat munosabatlarida o‘zaro aloqalarni va shaxslarni davlatga ishonchini oshiradi deb o‘ylaymiz

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, Тошкент ш., 2022 йил 28 январь, ПФ-60-сон.

2. М.Х.Рустамбаев. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. II том. Умумий қисм жазо ҳақида таълимот Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти Тошкент 2018 йил. 275-б.

3. Мустақиллик ва афв. Афвнинг амнистиядан фарқли жиҳатлари. Шавкат Гайбердиев Ўзбекистон Республикаси Олий суди катта консультанти https://sud.uz/mustaqillik/ мурожаат санаси 29.04.2022 йил

4. Бердиев Ш. Жиноят қонунларининг либераллаштирилиши жараёнида жиноий жавобгарликдан озод қилишни такомиллаштириш муаммолари: Юрид. фан. док. ... дис. – Т., 2011. – Б.124.

5. К.Мирзажонов. Амнистия ва афв этиш назарияси ва амалиёти. Юридик фанлар бўйича докторлик диссертацияси

6. Террористик, экстремистик ёки бошқа тақиқланган ташкилот ва гуруҳлар таркибига адашиб кириб қолган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини жиноий жавобгарликдан озод этиш тартиби тўғрисида Низом. https://regulation.gov.uz/uz/document/1273 мурожаат санаси 27.05.2022 йил https://aniq.uz/yangiliklar/terroristik-tashkilotlarga-adashib-kirib-qolgan-fuqarolarni-jinoiy-javobgarlikdan-ozod-etish-tugrisidagi-nizom-loyihasi-elon-qilindi ва мурожаат санаси 27.05.2022 йил

7. Террористик, экстремистик ёки бошқа тақиқланган ташкилот ва гуруҳлар таркибига адашиб кириб қолган фуқароларнинг мурожаатлари кўриб чиқилди. ЎзА https://kknews.uz/uz/52541.html мурожаат санаси 27.05.2022 йил

8. Ўзбекистонда афв амалиёти: Тақдирларни англатувчи рақамлар. Жамшид Ниёзов. https://kun.uz/news/2021/10/31/ мурожаат санаси 29.04.2022 йил

9. Прохоров Л.А. Прохорова М.Л. Помилование как важнейший гуманистический институт демократического государства // Российский следователь – №2. Ст.2

10. Н.И.Верченко Совершенствования правового регулирования института помилования вестник Кузбасского института №3 2017. https://cyberleninka.ru/

11. Уголовно-процессуальный кодекс Эстонии. Принят 12.02.2003 RT I 2003, 27, 166 Вступил в законную силу 01.07.2004. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Армения от 1 сентября 1998 года №ЗР-248, Уголовно-процессуальное право - Саудовская Аравия Уголовно-процессуальный закон Королевский указ № (М / 39) 28 раджаба 1422 г. - 16 октября 2001 г. Уголовно-процессуальное право ОАЭ. Основные положения статья 1-6 и др.

12. Бержанин А. А. Вопросы освобождения от уголовной ответственности в Республике Беларусь // Государство и право – 2006. – № 6. – С.100.

13. Тадқиқот иши доирасида олиб борилган суриштирувчи, терговчи, амалиётчи ва ҳуқуқшунослардан иборат респондентлар жамоаси ўртасидаги сўров натижалари

14. “Ўзбекистон Республикасида афв этишни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони Тошкент ш., 2018 йил 8 май, ПФ-5439-сон.

15. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. Умумий қисм. 1994 йил 22 сентябрь.

16. «Меҳр-5» операцияси доирасида Суриядан яна 93 нафар аёллар ва болалар Ўзбекистонга қайтарилди Раҳим Шерқулов. «Халқ сўзи» 30 Апрель 2021. https://xs.uz/uzkr/post/mehr-5-operatsiyasi-doirasida-suriyadan-yana-93-nafar-ayollar-va-bolalar-ozbekistonga-qajtarildi мурожаат санаси 26.05.2022 йил.

Ataniyazov J.K. Konstitutsiya – insonparvarlik aktlari asosi yohud afv etish institutini qo‘llash samaradorligini oshirishning amaliy jihatlari

Ushbu maqolada dunyo mamlakatlari konstitutsiyalarida afv etish instituti qo‘llashning turlari, mavjud protsessual muammolar va ish yurituvini rad etish yoki tugatish asoslari sifatida qayd etishning huquqiy tartibga solish jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo‘llanilgan.

Tadqiqot ishida ilg‘or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o‘rganilgan, buning natijasi o‘laroq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeksiga va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: afv, amnistiya, jinoyat ishi, tugatish, konstitutsiya.

Атаниязов Ж.К. Конституция - основа гуманитарных актов, практические аспекты повышения эффективности применения института помилования

В данной статье рассматриваются виды и существующие процессуальные проблемы применения института помилования в мире и аспекты правового регулирования применения помилования как основания для отказа или прекращения производства по делу. В исследовании применены методы анализа, синтеза, индукции, дедукции, сравнительно-правового анализа и др.

В исследовательской работе был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды и следственная и судебная практика, в результате чего были разработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Конституцию Республики Узбекистан, уголовный, уголовно-процессуальный кодексы и другие законодательные акты.

Ключевые слова: помилование, амнистия, уголовное дело, прекращение, конституция.

Ataniyazov J.K. The constitution is the basis of humanitarian acts, practical aspects of increasing the effectiveness of the use of the institution of pardon

This article examines the types and existing procedural problems of the use of the institution of pardon in the world and aspects of the legal regulation of the use of pardon as grounds for refusal or termination of proceedings. The study used methods of analysis, synthesis, induction, deduction, comparative legal analysis and etc.

In the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Constitution of the Republic of Uzbekistan, criminal, criminal procedure codes and other legislative acts.

Key words: pardon, amnesty, criminal case, termination, constitution.

Ravshanov Ulugbek Maxmurbekovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

XALQARO GUMANITAR HUQUQ NORMALARINI MAMLAKAT QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTASIYA QILISHDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Insoniyat paydo bo‘lganidan buyon katta va kichik urushlarga guvoh bo‘lib kelmoqda. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng ham 1290 dan ziyod jang-u jadallar yuz berdi, ularda qariyb 22 million kishi qurbon bo‘ldi. [1] Urush tasodifan hech kim himoyalanmaganligi, uning ayanchli oqibatlaridan hech kim sug‘urtalanmaganligi bois ham xalqaro gumanitar huquq xalqaro huquqning muhim tarmog‘i sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqaro hamjamiyat necha yillardan buyon urush qurbonlarini himoya qilish, ularning azob-uqubatlarini yengillashtirish yo‘lida bosh qotirib kelmoqda. 1864 yil 22 avgustda jang maydonida jarohatlanganlarning qismatini yaxshilash masalalari bo‘yicha qabul qilingan Jeneva Konvensiyasi xalqaro gumanitar huquqni tom ma’noda dunyoga kelishiga sababchi bo‘ldi.

Xalqaro gumanitar huquq kompleks ma’noda 3 ta sohani o‘ziga qamrab oladi: urush olib borish qonun-qoidalari (Gaaga huquqi), qurolli mojaro qurbonlarini himoya qilish (Jeneva huquqi) va insonning asosiy huquqlarini himoya qilish (Nyu-York huquqi). Xalqaro gumanitar huquq o‘zida aks etgan prinsiplar orqali ham insonning umum tan olingan asosiy huquqlari (1948 yil 10 dekabr “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”) bilan uzviy bog‘liqdir. Ammo o‘zining tabiatiga ko‘ra xalqaro gumanitar huquq xalqaro yoki xalqaro bo‘lmagan tusdagi qurolli mojaro vaqtida jabrlanganlarni himoya qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi kunda keng qo‘llanilib kelinayotgan mamlakat qonunchiligiga xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish amaliyoti dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Avvalambor implementatsiya o‘zi nima degan savolga oydinlik kiritib olsak. Implementatsiya (inglizcha “implementtation” – amalga oshirish, bajarilishini ta’minlash) “muayyan tartib asosida transformatsiya qilish”, [2] amaliy natija va haqiqiy ishlashni aniq vositalar bilan ta’minlash", [3] Adabiyotlarda biz quyidagi ta'riflarni topishimiz mumkin. Implementatsiya - keng ma’noda xalqaro-huquqiy normalarni amalga oshirish maqsadida xalqaro huquq va ichki normalarni amalga oshirish, shuningdek, xalqaro va ichki miqyosda bunday amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishni anglatadi. [4] “Implementatsiya (xalqaro huquq) - xalqaro majburiyatlarning ichki miqyosda amalda bajarilishi; xalqaro huquq normalarini milliy qonunlar va qonunosti hujjatlariga aylantirish orqali amalga oshiriladi”.[5] Shuni ta’kidlash lozimlik, R.A.Myullerson “milliy-huquqiy implementatsiya” atamasini qo‘llaydi. [6] A.S.Gaverdovskiy esa, “ichki davlat huquqiy implementatsiyasi” atamasini, E.M.Ametistov esa “ichki huquqiy implementatsiya” atamasini qo‘llashadi. Muallif xalqaro huquq normalarini keng ma’noda amalga oshirish xalqaro huquq normalari maqsadlarini xalqaro miqyosda amalga oshirishga qaratilgan davlatlar va xalqaro tashkilotlarning birgalikdagi tashkiliy-huquqiy faoliyatidir, deb hisoblaydi. Tor ma’noda xalqaro huquq normalarini amalga oshirish deganda, xalqaro huquq normalarini davlat hududida milliy huquq sohasidagi boshqa davlat organlarining qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni amalda bajarishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy faoliyati yordami bilan ma’lum bir tartib orqali ta’minlangan holda amalga oshirishni tushunish kerak. Milliy huquq, bir tomondan, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va normalarini, ikkinchi tomondan, shartnomalarni ajratib turadi. Birinchisi, odatda, umumiy qabul qilingan qoidalar sifatida mamlakat qonunchiligiga kiritilgan va qonunlardan ustun turadi. Ikkinchisi

ko‘pincha umumiy qabul qilingan qoidalardan yiroqda bo‘ladi va milliy qonunchilik normalariga zid bo‘lishi mumkin. Shartnoma normalarini milliy qonunchilikka tatbiq etish masalasidagi pozitsiyalariga ko‘ra davlatlar 3 guruhga bo‘linadi: 1) xalqaro shartnomalarni mamlakat milliy qonunchiligining qismi deb e’lon qilgan mamlakatlar (AQSh, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Shveysariya va boshqalar); 2) milliy qonunchilik va sud amaliyoti xalqaro va milliy qonunchilikni qat’iy ajratib turadigan chegaralar (Buyuk Britaniya, Kanada va boshqalar); 3) Konstitutsiyada xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari mamlakat qonunchiligidan ustun deb e’lon qilingan va tegishli tartibda ratifikatsiya qilingan va rasman e’lon qilingan shartnoma qoidalari bevosita milliy qonunchilikka ta’sir kuchiga ega bo‘lgan mamlakatlar (Germaniya, Italiya, Gretsiya).

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida tubdan islohotlar, yangilanishlar, o‘zgarishlarga qo‘l urdi. Hech kimga sir emaski, bu kabi islohotlar zamirida, avvalo, qonuniylik va huquq-tartibot sohasida ilgari surilgan islohotlar peshqadam bo‘ldi. Mamlakatning asosiy qonuni bo‘lmish – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyaning muqaddimasining o‘zidayoq “xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,”[7] kabi qoidaning kiritilishi ham O‘zbekistonning xalqaro huquqning to‘laqonli subyekti sifatida xalqaro hamjamiyat e’tirof etgan xalqaro shartnoma, konvensiya, deklaratsiya kabi hujjatlarga rioya etishini ifodalaydi. Bundan tashqari Konstitutsiyaning 26–moddasining 2- va 3-qismlarida bayon etilganidek, “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.” [8] Ushbu norma o‘zining mohiyati bilan 1948 yilgi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi va 1949 yilgi urush qurbonlarining qismatini yaxshilash to‘g‘risidagi Jeneva Konvensiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, dushman taraf tomonidan asir olinganlar ustida tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazish, asirlarni qiynash ham man etilgan. Albatta bizga ma’lumki, faqatgina urushayotgan tomonlarning kombatantlari qo‘lga tushib qolgan taqdirdagina harbiy asir maqomini oladilar, yollanganlar, josuslar esa bundan mustasno. Chunki, yollanish va josuslik qilish xalqaro jinoyat turiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligi bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigida Prezidentimiz “Biz yaqinlashib kelayotgan yangi – 2023 yil ulkan dastur va rejalarni tuzmoqdamiz. Konstitutsiyamizda belgilab olayotgan ezgu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish, yangi uy-joylar barpo etish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish bo‘yicha katta-katta vazifalar bu dasturlarda o‘zining aniq ifodasini topmoqda” [9] deb konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish zaruratini asoslab berdilar. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash, mamlakat kelajagi uchun qayg‘urish, davlatning rivoj topishi, fuqarolarning tinch hayot kechirishlari uchun intilish borligini bildiradi. Chunki davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek, “....shu sababli hozirgi vaqtda “inson-jamiyat-davlat” degan tamoyilni Konstitutsiyamiz va qonun-larimizga, kundalik hayotimizga chuqur singdirishimiz zarur. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, inson, uning hayoti, huquq va erkin-liklarini himoya qilish, qonuniy manfaatlarini ta’minlash, inson qadrini ulug‘lash bu boradagi islohotlarimiz markaziga olib chiqilmoqda [10]”. Hech kimga sir emaski, inson manfaatlari, uning huquq va erkinliklari ta’minlanishi yanada mustahkamlanib borayotgan davrda yashayapmiz. Endilikda barcha qulayliklar, imkoniyatlar yaratilib bormoqdaki, davlat hokimiyatining deyarli barcha organlarida, ta’lim, sog‘liqni saqlash tizimlarida inson omilini kamaytirishga qaratilgan ishlar avj olmoqda.

Qisqa muddat davomida nafaqat davlatning ichki qonunlari qabul qilindi, balki xalqaro shartnomalar, konvensiyalarni ham ratifikatsiya qildi. Jumladan O‘zbekiston Jeneva konvensiyalari va ularga qo‘shimcha

protokollarga 1993-yilda, Qurolli mojaro chiqqan hollarda boyliklarning himoya qilinishi to‘g‘risidagi konvensiyaga esa 1994-yilda qo‘shilgan [11]. 1949 yil 12 avgustdagi to‘rttala Jeneva konvensiyalari hamda 1977 yilgi qo‘shimcha protokollarni davlatimiz tomonidan ratifikatsiya qilinishi va ushbu normalarni mamlakat qonunchiligiga implementatsiya qilib borilayotganligi ham yuqoridagi fikrimizning tasdig‘idir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Jeneva shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 2021 yil 22 fevral kuni so‘zlagan 46-sessiyasidagi nutqi[4] da inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan o‘tkir va dolzarb tashabbuslarni ilgari surganiga barchamiz guvoh bo‘ldik. Ushbu tarixiy nutq keng jamoatchilik, xalqaro ekspertlar tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi, - desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Darhaqiqat, insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarda eng muhim o‘rinda turishini aytib, 2030 yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni nazarda tutadigan “hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyili asosida amalga oshirilishi lozim.

“Islohot islohot uchun emas, balki inson manfaatlari uchun” degan tamoyildan kelib chiqqan holda, fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida olib borilayotgan barcha islohotlar, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishligi ta’minlanishi lozim. Zero, Konstitutsiyamizning 2-moddasining o‘zidayoq “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar” deb mustahkamlangan.

Harbiy xizmatchilar xalqaro gumanitar huquqda kombatant, nokombatant, harbiy asir kabi maqomga ega bo‘lishlari mumkin. Shunday ekan, avvalambor, xalqaro gumanitar huquq normalariga rioya etishdan oldin bu turdagi normalarni o‘rganish talab etiladi. Hozirgi globallashuv, axborot telekommunikatsiyalar rivojlangan davrda nafaqat, harbiy xizmatchilar, balki fuqarolar ham o‘zlari bilib-bilmay xalqaro huquq normalarini buzib qo‘ymoqdalar. Bunga oddiy misol yollanish jinoyatini keltiramiz. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 154-moddasiga ko‘ra “yollanish – nizolashayotgan davlatning fuqarosi yoki harbiy xizmatchisi hisoblanmagan yoxud nazorat qilinib turgan nizolashayotgan davlat hududida doimiy yashamaydigan yoki hech qanday davlat tomonidan Qurolli kuchlar tarkibida rasmiy topshiriqni bajarish vakolati berilmagan shaxsning moddiy manfaatdorlik yoki boshqa biron shaxsiy manfaatni ko‘zlab, o‘zga davlatlar hududida yoki uning tarafini olib qurolli to‘qnashuvda yoxud harbiy harakatlarda qatnashish uchun yollanishi”[12], deya ta’rif berilgan.

Zamonaviy davlatlararo munosabatlarda xalqaro huquq normalarini mamlakat qonunchiligiga implementatsiya qilish har bir davlatning qonunchilik, ma’muriy-boshqaruv va sud mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Gumanitar huquq sohasidagi xalqaro huquqiy normalarning ko‘pchiligi jahon hamjamiyati oldida bir xil darajadagi muhim masalani, ya’ni har bir davlat tomonidan xalqaro gumanitar konvensiyalar normalarini amalga oshirishning qonunchilik mexanizmini yaratish masalasini qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga xalqaro gumanitar huquq normalarini implementatsiya qilish avvalambor ushbu normalarning qanchalik mamlakat Konstitutsiyasiga mosligi hamda o‘zaro bog‘liqligi masalasini ko‘rib chiqishlikni talab etadi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya nafaqat mamlakatimizning xalqaro huquq subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni, balki mamlakat ichidagi ham huquqiy munosabatlarni tartibga solishda ham katta qadam bo‘ldi.

Konstitutsiyaning “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan 2-bo‘limi 22-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi”. 23-moddaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xal-

qaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarini ado etadilar. [13] O‘zbekiston Respublikasi chet el fuqarolariga inson huquqlari poymol etilganligi yuzasidan siyosiy boshpana ham bera oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi” deb nomlangan XVIII bobida xalqaro huquq normalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri havolalar mavjud emas. 78-moddaning 20-bandiga ko‘ra xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari sirasiga kiradi.

“O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyati” deb nomlangan XXII bobida ham xalqaro huquq normalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri havolalar mavjud emas. 109-moddaning 1-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi. [14] Konstitutsiya mamlakatning barcha hududida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilinadigan yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan qonundir. Konstitutsiyaga zid bo‘lgan qonun va normativ-huquqiy hujjatlar yuridik kuchga ega emas. Shunday ekan Konstitutsiya mamlakat ichki hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Milliy qonunchilikning tarkibiy qismiga aylangan xalqaro huquq normalari mamlakatimizning butun hududlarida qo‘llanilishi va amal qilinishi shart.

Ayrim rivojlangan davlatlarda, masalan GFRda qachonki sud ishlarida biror-bir xalqaro huquq normasi federal qonunchilik tarkibi hisoblanadimi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri alohida shaxslarga huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradimi kabi ikkilanishlar bo‘lgan taqdirda sud Federal Konstitutsion sud qarorini chetlab o‘tishi mumkinligi belgilangan. (GFR Asosiy qonu-nining 100-moddasi 2-qismi). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bunga o‘xshagan normalar mavjud emas. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi” qonunida bu kabi qoida mustahkamlanmagan. Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifalaridan biri yuqorida ta’kidlab o‘tildi. Ammo shunisi ma’lumki, sharh berishga asosan sudlarda va xalqaro huquq normalarining ular bilan bog‘liqligi yuzasidan masalalarda ehtiyoj seziladi.

Milliy va xalqaro huquq normalarining iyerarxiyasiga keladigan bo‘lsak, davlatimiz tomonidan xalqaro umum tan olingan normalar ustunligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni taklif qilamiz:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 15-moddasini “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingan milliy qonunchilik tarkibiga kiruvchi xalqaro huquqiy hujjatlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi” tahrirda qabul qilinish;
- barcha umumta’lim maktablariga “xalqaro gumanitar huquq” fanini ta’lim dasturlariga kiritish;
- “O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida xalqaro huquqiy hujjatlar realizatsiyasi tartibi to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XXII bobida Konstitutsion sud, Oliy Sudga bag‘ishlangan moddalarida ham “O‘zbekiston tomonidan tan olingan” yoki “mamlakat qonunchiligining tarkibi bo‘lgan” xalqaro huquq normalari qoidalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishiga oid norma mavjud emas. Shu sababdan ham ushbu bobga “O‘zbekiston tomonidan tan olingan” yoki “mamlakat qonunchiligining tarkibi bo‘lgan” xalqaro huquq normalari (shu jumladan xalqaro gumanitar huquq normalari)ni qo‘llagan holda odil sudlovni amalga oshirish amaliyotini joriy etish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida sobitqadamlik bilan boshlangan islohotlarimiz asosida Konstitutsiya va qonunlarning o‘rni beqiyos. Ushbu normalarga rioya qilib yashaydigan, huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yishdan tiyiladigan millat rivojlanishdan to‘xtamaydi deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Международный журнал Красного Креста”, январь - февраль 1996, № 8, с 22.
2. Англо-русский словарь. М., Русский язык, 2005 г., с.257.
3. Webster's Third New International Dictionary, Cambr.(Mass.),2017, p.1134.
4. Словарь международного права. М , «Международные отношения», 2014 г., с. 102.
5. Юридический энциклопедический словарь. М., ИНФРА-М, 2016 г., с. 116.
6. Мюллерсон Р.А. Соотношение международного и национального права. М.,1982, с.74.
7. [8,13,14] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:O‘zbekiston, 2021
9. [10] www.kun.uz (murojaat sanasi 09.12.22.)
11. Saidov A.X. O‘zbekiston Respublikasi va xalqaro gumanitar huquq / Xalqaro gumanitar huquq:Jeneva konvensiyalari to‘plami. Toshkent, 2002, 6-26-betlar.
12. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. Махсус қисм. 1994 йил 22 сентябрь.

Ravshanov U.M. Xalqaro gumanitar huquq normalarini mamlakat qonunchiligiga implementasiya qilishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘rni va ahamiyati

Ushbu maqolada xalqaro gumanitar huquq normalarining xalqaro huquqning alohida tarmog‘i ekanligi, dolzarbligi, ayniqsa xalqaro gumanitar huquq normalarini mamlakat milliy qonunchiligiga implementatsiya qilishning ahamiyati, zarurligi asoslantirilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham ayni vaqtda xalqaro gumanitar huquq normalarini mamlakat hududida realizatsiya qilishda yetakchi normativ-huquqiy hujjat ekanligi o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: deklaratsiya, implementatsiya, Gaaga konvensiyasi, Jeneva konvensiyalari, realizatsiya, ratifikatsiya, denonsatsiya.

Равшанов У.М. Роль и значение Конституции Республики Узбекистан в реализации норм международного гуманитарного права в законодательстве страны

В данной статье рассматривается тот факт, что нормы международного гуманитарного права являются отдельной отраслью международного права, их актуальность, особенности важность и необходимость имплементации норм международного гуманитарного права в национальное законодательство страны, Конституцию Российской Федерации. Республики Узбекистан в то же время при реализации норм международного гуманитарного права на территории страны обосновано, выражено, что оно является ведущим нормативно-правовым документом.

Ключевые слова: декларация, имплементация, Гаагская конвенция, Женевские конвенции, реализация, ратификация, денонсация.

Ravshanov U.M. The role and significance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the implementation of the norms of international humanitarian law in the legislation of the country

In this article, the fact that the norms of international humanitarian law are a separate branch of international law, their relevance, especially the importance and necessity of implementing the norms of international humanitarian law into the national legislation of the country, and the Constitution of the Republic of Uzbekistan at the same time in the implementation of the norms of international humanitarian law on the territory of the country are justified. it is expressed that it is the leading normative-legal document.

Key words: declaration, implementation, Hague Convention, Geneva Conventions, implementation, ratification, denunciation.